



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 7 (9)
2023**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

7

ISBN 978-9943-5256-3-4

MAXSUS SON

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti professor-
o‘qituvchilari maqolalari

Toshkent – 2023

UDK: 818.213

BBK: 84.61

B- 29

Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug‘ maqsadimiz – Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratamiz.

Yangi O‘zbekiston – bu, avvalo, yangi iqtisodiy munosabatlar, yangi iqtisodiy dunyoqarash demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev

Все свои силы и потенциал мы направим на достижение нашей общей великой цели - построение нового Узбекистана. Новый Узбекистан – это, прежде всего, новые экономические отношения, новое экономическое мировоззрение.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев

© Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti

© «*KLASSIC PRINT*» nashriyoti

“Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” - ilmiy-uslubiy jurnal

Ilmiy-uslubiy jurnal 1.09.2022-yildan boshlab chiqa boshlagan, yiliga 6 marta chop etiladi.

Ta’sischi:

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Bosh muharrir
Bosh muharrir o‘rinbosari
Mas’ul kotib

i.f.d., prof. A.Qodirov
PhD, dots. X.X.Rejapov
PhD. K.A.Muxitdinova

Jamoatchilik kengashi:

Prof. I.U.Madjidov (rais), prof. Sh.Toshmatov, PhD E.Yodgorov, i.f.n., dots. A.T.Umarov, i.f.d., prof. A.Qodirov

Tahrir hay’ati:

Prof. Sh.O.Toshmatov, i.f.d., prof. A.Qodirov, prof. A.V.Vaxabov, prof. X.P.Abdulqosimov, prof. F.T.Egamberdiyev, prof. Sh.K.Yo‘ldashev, prof. A.M.Sodiqov, prof. Q.Muftaydinov, prof. K.Ubaydullayev, i.f.d. Q.K.Mambetjanov, i.f.d. B.Tagayev, i.f.d. Z.T. G‘oipnazarova, i.f.d., G.N.Maxmudova, i.f.d. I.Y.Umarov, i.f.d. X.X.Rejapov, i.f.d. B.B. Baxtiyorov, prof. v.b. P.Z.Xashimov, prof. N.G.Mo‘minov, dots. A.T.Umarov, dots. Sh.S.Nasretdinova, dots., B.B.Mullaboyev, dots. Z.Jumaqulov, dots. N.A.Artiqov, dots. K.A.Muxiddinova, dots. D.I.Ro‘ziyeva, dots. A.Boboyev, dots. X.Baratov, dots. A.M.Tursunov, dots. O.O.Daminov, dots. J.O.Xakimov, dots. N.A.Kudratxodjayeva, dots. A.Ambartsumyan, dots. M.I.Saidkarimova, dots. N.Z. Umarova, PhD K.Jabborov, PhD Sh.Abdullayeva.

Tahririyat manzili:

10095, Toshkent - 95, Universitet ko‘chasi, 4. tel: (+99899) 821-20-72

Журнал сайти: <https://journal.econuu.uz>

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi tomonidan 17.07.2022-yilda № 4715-son bilan ro‘yxatga olingan.

Buyurtma: ISSN 978-9943-5256-3-4

Jurnal OAK ro‘yxatiga 2023 yil 1 iyuldan kiritilgan (OAK rayosat qarori 04.07.2023 yil № 340/3).

Jurnalda ma’lumotlar bosilganda dalillar ko‘rsatilishi shart. Jurnalda chop etilgan ma’lumot va keltirilgan dalilarning aniqligi uchun muallif javobgardir.

“Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” № 7. 2023

MUNDARIJA

Kudiyarov K.R. Evroaziya ekonomikaliq shólkeminde saliq sistemasin salistirimali taliqlaw.....	8
Утемуратова Г.Х. Давлат-хусусий шериклиги механизмини жорий қилишнинг самарали йўллари ва мавжуд чекловлар.....	12
Sauxanov J.K., Daniyarov S.S. Aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan iste’mol talablariga ta’sir etuvchi omillar va ularning tavsifi.....	16
Daniyarov Q.D., Maxsetova X. Kishi biznesi kreditlew máseleleri hám onı sheshiw jollari.....	21
Tajekeev Z., Salilayev A., Jienbaeva A. Qarizlar boyınsha qárejetlerdi FEXS tiykarında esapqa alıw ózgeshelikleri.....	27
Қалмуратов Б.С., Айтбаев А.Қ. Минтақада саноат корхоналаринг инновацион ривожланишининг ресурс таъминотини бошқариш.....	30
Назарбаев О. Қарақалпақстан Республикасының раўажланыў стратегиясын әмелге асырыў механизмлери.....	36
Jiemuratov T., Muratbayev B. Statistika ishlarini tashkil qilishda raqamli texnologiyalar: mintaqaviy aspect.....	39
Daniyarov Q.D. Kichik biznes faoliyatini moliyalashtirish va kreditlash orqali rag‘batlantirish.....	44
Шамуратов А.Ш., Исмаилов К.С. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришни самарадорлигини ошириш.....	49
Tajekeev Z., Pirnazarova J. Kárxanalarda paydağa erisiwde ónimniń ózine túser bahasin duris anıqlawdıń áhmiyeti.....	54
Utegenova S.T. Akcionerlik jámiyetlerinde auditorlıq tekseriwı jumısı sapasin támiyinlewde ishki auditorlıq standartlariniń áhmiyeti.....	58
Sitmuratov U.T. Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik biznesning holati va rivojlanish tendentsiyasining statistik tahlili.....	65
Madenova E.N., Aytbaeva G.K. Ways to increase the advantages and efficiency of the natural and economic potential of the Republic of Karakalpakstan.....	70
Ismailov T.K. Suw xojalıǵında meliorativ sistemalar jaǵdayın bahalawdıń metodikalıq tárepleri.....	75
Bekbosinov K.K. Ekonomikaniń globalasıwı sharayatında kárxanalarda óndiris natiyjeliligin joqarılatıw jollari.....	80
Ismaylov K., Burkitov B. Paydaniń qáliplesiwi hám oǵan tásir etiwshi faktorlardıń analizi..	83
Mirzanov B.J. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining statistik tahlili.....	88
Utegenova S.T., Nasirova D. Salıq adminstrativligin rawajlandırıwda duris shólkemlestirilgen salıq esabınıń roli.....	96
Bisenbayev Sh. Davlat byudjetining soliqli daromadlarini shakllantirishda qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rni va ahamiyati.....	103
Бекбосынов А.К. Sanaat kárxanaların innovciyalıq rawajlandırıw natiyjeliligin bahalaw....	108
Abishov M.S., Mamutova A.R. Qurilis karxanalarında daramat hám paydanı qáliplestiriw ózgeshelikleri.....	113
Erejepova B.A. Maishiy xizmatlar sifatini baholashga yondashuvlar va baholash ko‘rsatkichlari.....	117
Turdiyeva G.O., Bekimbetova G.M. Bank xizmetinde dáramatlar hám qárejetlerdiń analizin jetilistiriw.....	122

Erejepova B.A., Qdirbaeva A.M. Maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatini tartibga solish.....	129
Embergenov A.J. Hududlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish salohiyatini baholashning xorijiy mezonlari.....	132
Sitmuratov T., Matekeev A.A., Otepoa A.M. Qoraqalpog'istonda investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	136
Abishov M.S., Jumanova V.A., Muratbaev I.P., Nuranov I.B. Agrobizneste innovatsiyaliq siyosat ham investitsiyaliq proseslarning o'zgarishlari.....	141
Sarsenbaev B.A. Baliq onimlari bazarida marketing xizmetini paydalanish natijaligi....	146
Shamshetova D.S. Selection of management decisions at the moment of achieving maximum efficiency raw.....	150
Мадреимов А.О. Бюджет харажатлари самарадорлигини оширишда ўрта муддатли бюджетлаштиришдан фойдаланиш амалиёти.....	153
Baymuratova Z.A., Jarilkapova N.P. Pulning kelib shig'iw tarixi.....	159
Aytmuratova U.J. Aktsiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	163
Жузбаев А.О. Кичик бизнес субъектлари фаолиятини самарали молиялаштиришда иқтисодий манфаатдорлик тамойилларини кучайтириш.....	168
Kamiljanov B., Mamutova K.M. Fond birjalari xizmeti mexanizmin jetilistiriw mashqalalari.....	171
Aytmuratova U.J., Aminova Sh.Q. O'zbekstanda mamleketlik qarizlari basqariw bag'darlari.....	175
Ismailov B.A., Xojanazarov N.R. Raqamli boshqaruvni rivojlantirish muammolari va istiqbollari.....	181
Tleubergenov R.Sh., Saparbaev Q.A. Kommerciyalik banklarning baski ustunliklerin asiriw strategiyasi.....	186
Сейтимбетов К.С., Давлетов Ж.М. Қишлоқ хўжалиги тармоқларида маркетинг тадқиқотларининг аҳамияти.....	189
Pirniyazova G.J. Avtomobil transporti salasin basqariwdi sholkemlestiriw o'zgarishlari....	193
Dauletmuratov A.M. Xizmat ko'rsatish korxonasida inson kapitaliga investitsiya kiritish tizimi va inson kapitali qiymatini baholash modeli.....	196
Dosekeev J.I. Mintaqada turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	202
Begjanova A.M. Investitsiyaliq xizmetni tartipke saliw usullari ham qurallari boyinsha dunya tajiriybelari.....	207
Turganbaev I.S. O'zbekstan respublikasi bank sistemasini baskige shidamliligini taminlew ham asiriw usullari.....	211
Асенбаева А.Е. Хизмат кўрсатиш корхоналарида рақобатбардошлик салоҳиятини оширишининг омиллари.....	215
Еримбетова У., Нурлыбаева Б. Управление конкурентоспособностью и эффективные инструменты бизнеса.....	220
Опаев Б., Муратбаев Б. Рақамли иқтисодиёт: тушунчалари ва ривожланиш йўналишлари.....	225
Adilchaev R.T., Xojanova G.G. Qoraqalpog'iston Respublikasida strategik loyihalarni amalga oshirish mexanizmlari.....	233
Xalmuratov K.P. Regionda innovatsiyaliq xizmetlar turleri rawajlanishini ekzogen ham endogen faktorlari.....	236
Тлеуов Н.Р., Бекмуратов М. Анализ показателей производства сельскохозяйственной продукции, образующей сырьевую базу пищевой промышленности (на примере Республики Каракалпакстан).....	240

Inyatov A., Reimbaeva Z. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishida shartnomaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari.....	246
Alimov A. Baymuratova S. Sport turizmin ravaajlandiriw baǵdarlari.....	250
Berdimuratov Q.G., Utepbergenov A.A. Asalarichilikda asalari ko‘paytirishni yo‘lga qo‘yish methodologyasi.....	253
Калимбетов Ж.К., Калимбетов Х.К., Разбаев С.Н. Aholi daromadlarini optimal soliqqa tortish va soliq stavkalari ta’sirini baholash.....	257
Jumanazarov O.S., Oteev U.A. Sanli sektordiń ekonomikalıq áhmiyeti hám onıń rawajlanıw tendenciyalari.....	262
Jumanazarov O.S. Xızmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini rivojlantirishning ijtimoiy – iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	265
Каленов К.Т. Қишлоқ хўжалигида молиявий суғирта рисклари: хусусиятлари ва илмий метадалогик таснифлаш асослари.....	268
Urazbaeva L.M. Qishloq xo‘jaligida eksternaliylar ta’sirini tartiblashtirish.....	273
Ембергенова А., Каражанова Р. Роль государственных музеев в развитии туризма в Республике Каракалпакстан и важность их управления.....	276
Seytniyazov S.P. Rivojlanish va zamonaviy mehnat bozori.....	284
Отеев У.А. Билимлендириўде инновациялардың тутқан орны.....	288
Utepbergenov A.O., Xudaybergenov R.B. Iste'dodli yoshlarni boshqarish tizimini rivojlantirish modelini yaratish.....	292
Маратова М.Б. “Introduction of new banking services in the conditions innovative economy in Uzbekistan”.....	297
Бекимбетов Д.Р. Аймақларда хызмет көрсетиў тармақлары инфраструктурасын жетилистириў стратегиясы.....	301
Кеулимжаев Б.Қ. Иқтисодиётни глобаллашув шароитида саноат корхонаси самарадорлигини баҳолаш тамойиллари ва усуллари.....	307
Allasheva N.A. Qaraqalpqstan Respublikasında sanaat tarawınıń rawajlanıw dinamikası.....	312

EVROAZIYA EKONOMIKALIQ SHÓLKEMINDE SALIQ SISTEMASIN SALISTIRIMALI TALIQLAW

EVROOSIYO IQTISODIY TASHKILOTLARIDA SOLIQ TIZIMINI TAQQOSLAMA TAHLILI

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ В ЕВРАЗИЙСКИХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

COMPARATIVE ANALYS OF THE TAX SYSTEM IN EURASIAN ECONOMIC ORGANIZATIONS

Kudiyarov Kishibay Ramatullaevich

Berdaq atındağı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti
Ekonomika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, docent,

Annotaciya

Bul maqalada salıqlardıń ekonomikadağı hám byudjettiń dáramatlar bólegin qáılestiriwdegi roli, sonıń menen birge salıq salasında ámelge asırılıp atırǵan ózgerisler haqqında jazılǵan. Sonıń menen birge bul maqalada mámleketimizde turaqlı ekonomikalıq ósiwdi támiyinlew boyınsha ámelge asırılıp atırǵan ekonomikalıq ózgerisler hám olardıń xalıq párawanlıǵına tásiiri haqqında jazılǵan.

Tayanış sózler: ekonomikalıq integraciya, salıq integraciyası, salıq

Бу мақолада солиқларнинг иқтисодиётдаги ва бюджетнинг даромадлар қисмини шакллантиришдаги роли, шунингдек солиқ соҳасида амалга оширилаётган ислохатлар ҳақида ёзилган. Шунингдек бу мақолада мамлакатимизда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш борасида амалга оширилаётган иқтисодий ислохатлар ва уларнинг халқ фаровонлигига таъсири ҳақида ёзилган.

Калит сўзлар: иқтисодий интеграция, солиқ интеграцияси, солиқ

В данной статье рассматривается экономическое значение налогов и его роль в формировании доходной части бюджета, а также ход реформ в этой отрасли. А также в данной статье рассказывается об экономических реформах, осуществляемых в нашей стране для обеспечения стабильного экономического роста, и их влияние на благополучие народа.

Ключевые слова: экономическая интеграция, налоговая интеграция, налог

In this article, the problem of economic meanings of taxes and its role in formation of profit part of the budget, and also reforming process in this sphere, is considered.

And also this article tells about the economic reforms carried out in our country to ensure sustainable economic growth, and their impact on the welfare of the people.

Key words: economic integration, tax integration, tax

Búgingi kúnde Evroaziya ekonomikalıq shólkemi sheńberinde tovarlar, xızmetler, miynet hám kapitaldıń erkin bazarı iskerligi sharayatında shólkemge aǵza mámleketlerdiń salıq sisteması jaqınlasıwı máselesi tuwıladı. Evroaziya ekonomikalıq sholkemine aǵza mámleketlerdiń salıq sistemaların sáykeslestiriw xalıq aralıq integraciya jolındaǵı zárúr basqısh bolıp tabıladı. Bul EAESh birden-bir ishki bazarın rawajlandırıwǵa, sonıń menen birge, ekonomikalıq hám valyuta sholkemin qáılestiriwge járdem beredi. [5.5b] EAESh sheńberinde salıq sistemasın sáykeslestiriw sholkemniń birden-bir salıq sistemasın jaratıw, sonıń menen birge, birden-bir salıq stavkaları hám

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

birden-bir basqariw apparatın tastıyqlawdı ańlatadı. Salıq sistemasın sáykeslestiriwden maqset onı jetilistiriwden ibarat bolıp, bul ekonomikalıq ósiwge úles qosadı hám sholkemniń jáhán kólemindegi básekige shıdamlı ústinliklerin bekkemleydi. Salıq siyasatı tarawındaǵı EAESh strategiyası tómendegilerden ibarat:

- jáhán bazarlarında básekige shıdamlılıqtı engiziw;
- salıq biytárepligin támiyinlew hám sáykessizliklerdiń aldın alıw;
- milliy salıq nızamshılıǵın maslastırıw;
- ekonomikalıq qatnasıqlar subektleri iskerligi ústinen salıq qadaǵalawın jetilistiriw.[7.24b]

Salıq sistemaların sáykeslestiriw baǵdarların anıqlaw ushın shólkemniń barlıq aǵzaların milliy salıq sistemalarınń házirgi jaǵdayın talıqlaw kerek. Rossiya Federaciyasınıń salıq sisteması úsh basqıshlı byudjet dárejesine iye. Ol tómendegilerden ibarat: federal, aymaqlıq hám jergilikli byudjetler. Salıqlar jıynaladı hám olar tiyisli byudjetke ótkeriledi. Rossiya Federaciyası salıq sistemasınıń salıq hám jıyılarınıń túrleri: Federal salıqlar hám jıyımlar :- Qosımsha qun salıǵı ; - akciz salıǵı ; -payda salıǵı ; -dáramat salıǵı ; - paydalı qazılmalardı qazıp alıw salıǵı; -suw salıǵı ; - mámleket bajıları; - jabayı tábiyat hám suw resurslarınan paydalanǵanlıq ushın jıyımlar. Aymaqlıq salıqlar :- transport salıǵı ; múlkk salıǵı. Jergilikli salıqlar : -jer salıǵı ; -sawda tólemi; -jeke múlkk salıǵı. Rossiya Federaciyasınıń salıq sisteması tómendegiler menen tártiplestiriledi: Konstituciya, Rossiya Federaciyasınıń salıq kodeksi. Jergilikli salıq shólkemleriniń normativlik-huqıqıy hújjetleri. Salıq qatnasıqların tártipke salıwshı tiykarǵı hújjet salıq kodeksi bolıp, ol eki baptan (ulıwma hám arnawlı) ibarat. Salıq kodeksiniń birinshi bólimi 1999-jıl 1-yanvar kúni kúshke kirdi, hám ekinshisi 2001-jılda kúshke kirdi. Ol salıq sistemasın qurıwdıń ulıwma principlerin, sonıń menen birge, salıqlardıń arnawlı bir túrleri boyınsha mámleket hám salıq tólewshiler ortasındaǵı qatnasıqlardı tártipke saladı. Mámleket byudjetinde salıqlardıń rolin tolıq túsiniw ushın byudjettiń dáramat bóleginiń dúzilisin talıqlaw kerek.

Rossiya Federaciyası Finans ministrliginiń maǵlıwmatlarına tiykarlanıp, byudjet dáramatlarınń tiykarǵı bólegi salıq túsimlerine tuwrı keliwin kóremiz.

Mámleket byudjetinde qaysı salıq túrleri kóbirek bolıwın kórip shıǵayıq

Byudjet dáramatlarınıń eń joqarı payızı:

- QQS — 16%.
- Payda salıǵı -10%.
- Dáramat salıǵı -10%.
- Májbúriy medicinalıq qamsızlandırıw ushın qamsızlandırıw tólemleri-21%.

Respublika salıqları: qosımsha qun salıǵı, akciz salıǵı, payda salıǵı, shet el kárxanalarınń dáramat salıǵı, fizikalıq shaxslardıń dáramat salıǵı, kóshpes múlkk salıǵı, jer salıǵı, átirap-ortalıq salıǵı, tábiyiy resurslardı qazıp alıw salıǵı, shet el mámleketlerdiń avtotransport qurallarınıń ótiwi ushın tólem, shtamp bajı, konsullıq tólemi, mámleket bajı, patent tólemleri. Jergilikli salıqlar hám jıyımlar: iytge iyelik qılıw ushın salıq, kurort tólemi, jetkerip beretuǵınlardan alınatuǵın tólem. Salıq qatnasıqların tártipke salıwshı tiykarǵı normativ hújjet salıq kodeksi esaplanadı. Belarussiya salıq kodeksi ulıwma hám arnawlı bólimlerden ibarat. Ulıwma bólim salıqlardıń ulıwma sistemasın ornatadı, olardıń mámleket aymaǵına tásin engizedi, ózerttiredi, juwmaqlaydı, tiykarǵı atamalar hám túsiniqlerdi belgileydi, salıqqa tartıwdıń barlıq ulıwma máselelerin tártipke saladı.

Arnawlı bólimde mámlekette iskerlik júrgizip atırǵan barlıq salıqlar, túrli salıq tártipleriniń tolıq xarakteristikası keltirilgen.

Sonıń menen birge, salıq tólemleri menen baylanıslı bolǵan bir qatar basqa tólemler hám jıyımlar ámeldegi qaǵıydalar menen tártiplestiriledi. Belarussiya salıq kodeksi salıq sistemasınıń tiykarların belgileydi. Salıqlardıń arnawlı bir túrlerin esaplaw hám tólew tártibi arnawlı nızamlar menen tártiplestiriledi. "Belarus Respublikasında jergilikli Mámleket hákimiyatı hám ózin ózi basqariw haqqında" ǵı nızam jergilikli byudjetlerge salıq hám jıyımlardı esaplawdı kórsetip beredi.

Kelesi jıl ushın byudjetti tastıyqlawda jergilikli byudjetlerge milliy salıqlardan ajratılǵan qarjılar payız belgilenedi. Salıq salıw obektleri, tólew tártibi, stavkalar, hár bir salıq túri hám óndiriw ushın jeńillikler salıq nızamshılıǵınıń arnawlı hújjetlerinde názerde tutılǵan [9]. Belarus Respublikasında salıq túsimleri salıqsız dáramatlardan bir neshe teńdey joqarı bolıp esaplanadı.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

Byudjet dāramatlariniñ eñ joqarı payız tōmendegi salıq tusimlerine tuwrı keledi:

- QQS-30%.
- Payda salıǵı -14%.
- Dāramat salıǵı -24%.
- Akciz salıǵı -12%.

Qazaqstan Respublikası salıq sistemasında ulıwma mámleketlik hám jergilikli salıqlar bar. Ulıwma mámleketlik salıqları mámleket ġáziynesiniñ tiykarǵı dāramat deregi bolıp, jergilikli salıqlar, salıq nızamshılıǵına kóre, jergilikli byudjetlerdiñ dāramatları esaplanadı.[6.17] Qazaqstan Respublikası statistikalıq maǵlıwmatlarǵa kóre Respublika byudjetiniñ tiykarǵı dāramat bólegi salıq tusimleri ekenligin kóriw múmkin, Rossiya Federaciyası hám Belarus Respublikasındaǵı sıyaqlı.

Qazaqstandaǵı tiykarǵı salıqlardan biri bul qosımsha qun salıǵı. Salıq salıw obektleri, sonıñ menen birge QQS salıq bazası Rossiya nızamshılıǵı menen birdey esaplanadı. QQS tólewshileri barlıq yuridikalıq shaxslar, sonday-aq Qazaqstan Respublikası rezident emes tárepleri bolıp, olar Qazaqstan aymaǵında turaqlı wákilxana arqalı iskerlik alıp baratúǵınlar, isbilermenlik iskerligi menen shuǵıllanatuǵın fizikalıq shaxslar.

Byudjetten tusqarı fondlarǵa barlıq tólemler birden-bir social salıqqa birlestiriledi. Qazaqstanda social salıqtı jıynaw hám tólew tártibi Rossiyada birden-bir social salıqtı esaplaw hám tólew tártibine uqsaydı.

Qazaqstan Respublikası aymaǵında islep shıǵarılǵan import etiletuǵın tovarlar hám tovarlar akciz salıǵına tartıladı. Rossiya menen salıstırılǵanda, Qazaqstan Respublikasınıñ akciz tólenetuǵın tovarlar dizimi keñlew. Salıq stavkaları Qazaqstan Ministrler Kabineti tárepinen tastıyqlanadı. Qatañ hám payız stavkaları bar. Salıq qatnasıqları tómendegiler menen tártiplestiriledi: Konstituciya, salıq kodeksi, normativlik-huqıqıy hújjetler.

Qırǵızstan salıq sisteması da eki basqışlı bolıp, ulıwma mámleketlik hám jergilikli salıqlardan ibarat. Ulıwma mámleketlik salıqları: dāramat salıǵı, qosımsha qun salıǵı, payda salıǵı, akciz salıǵı, sawda salıǵı, jer astı qazılma baylıqlarınan paydalanǵanlıq ushın salıq.

Jergilikli salıqlar: mülk salıǵı, jer salıǵı.

Qırǵızstan byudjetiniñ dāramat bóleginiñ tiykarǵı úlesi

- QQS (41%),
- bajıxana tólemleri (15%),
- dāramat salıǵı (10%),

sonıñ menen birge sawda salıǵı (9%) ġa tuwrı keledi. Házirde tek Qırǵızstanda sawda salıǵı bar.

Armeniya salıq sisteması eki basqışlı bolıp, soǵan muwapıq barlıq esaplanǵan salıqlar mámleket hám municipalitet byudjetlerine tólenedi. Mámleket salıqları: payda salıǵı, dāramat salıǵı, akciz salıǵı, qosımsha qun salıǵı. Jergilikli salıqlar: mal-mülk salıǵı, jer salıǵı, mıymanxana salıǵı, avtomobil toqtaw ornı salıǵı.

Salıq qatnasıqları tómendegi hújjetler menen tártiplestiriledi:

- salıq nızamshılıǵı;
- húkimet qararları ;
- Armeniya salıq inspekciyası tárepinen qabıl etilgen hújjetler.

Armeniyada salıq tusimleri barlıq byudjet dāramatlariniñ 85 payızın quraydı.

Biz salıq tusimleri quramındaǵı eñ úlken úles qosımsha qun salıǵı menen bánt ekenligin kóremiz hám tómendegilerdi quraydı:

- QQS 29,5%;
- payda salıǵı 23,7%;
- dāramat salıǵı 16,7%;
- akciz salıǵı 15,1%.

Evroaziya ekonomikalıq shólkemi mámleketleriniñ ámeldegi salıq stavkaları

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

1-keste

№	Soliq turleri	EAESh mamleketlerinde soliq stavkalari				
		Rossiya	Belarussiya	Qazaqstan	Armeniya	Qirgizstan
1	Qosimsha qun soligi	0 %, 10 %, 18 %	0%, 10%, 20%; paseytirilgen stavka: 0,5%, 9,09%, 16,67%	0%, 12%	20%	0%, 12%
2	Payda soligi	20%	5%, 10%, 24%	10%, 15%, 30%	5%, 10%	0%, 5%, 10%
3	Fizikalik shaxslardan daromat soligi	9%, 13%, 15%, 30%, 35%	9%, 12%, 15%	5%, 10%	10%, 20%	10%
4	Akciz soligi	Akciz tolenetugin tovarlar turine qarap qatañ ham advalor stavkalar				
5	Karxanalardin mal-mulk soligi	2,2% dan oshmaydi	1%	0,5%, 1,5%	0,1% dan 0,8% gacha	0,35%, 0,5%, 0,8%
6	Sawda soligi	Amel qilmaydi				1,5%, 2,5%, 3,5%, 5%
8	Transport soligi	Qatañ stavka		mulk soligi menen almastirildi		

Rossiya, Belarussiya, Qazaqstan, Armeniya ham Qirgizstan soliq nizamshiligin talqlap, soliq sistemalariniñ ayirmashilqlari ham uqsashlqlari korinedi. Sonday etip, Belarus Respublikasi, Armeniya, Qazaqstan ham Qirgizstanda respublika ham jergilikli byudjet darejesin oz ishine algan eki basqishli soliq sisteması bar.

1-kesteden biz solıqlardıñ ayırım turleri boyınsha eñ joqarı stavkalar Rossiya Federaciyasında ekenligin kóremiz.

Basqa mámleketlerde soliq stavkalari azmaz parq etedi.

Rossiyada federal, aymaqliq ham jergilikli byudjet darejelerin oz ishine algan ush basqishli soliq sisteması bar. Byudjetti qaliplestiretugin tiykargi solıqlar: QQS, payda soligi, daromat soligi, akciz soligi. 1-kestede EAESh mámleketleriniñ tiykargi solıqlari stavkalari kórsetilgen.

Tek Qirgizstanda sawda soligi bar. Armeniyada transport soligi mulk soligina ózgartildi, EAESh basqa mámleketlerinde bolsa mulk soligi da, transport soligi da birdey kúshke iye. Qatnasıwshı mámleketlerdiñ ulıwma tariyxı soliq nizamshiligin saykeslestiriw salasındağı siyasatti ańsatlastıradı, sebebi soliq sistemaları júdá uqsas. Barlıq qatnasıwshı mámleketlerdiñ muwapıqlastırılğan soliq siyasatın ámelge asırıw integraciya processlerin rawajlandırıwdıñ tiykargi shártlerinen biri bolıp tabıladı.

Paydalanılğan ádebiyatlar

1. Договор о Евразийском экономическом союзе от 29 мая 2014 года. URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_163855/.
2. Договор о присоединении Республики Армения к Евразийскому экономическому союзу от 10 октября 2014 года. URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_169854/.
3. Договор о присоединении Кыргызской Республики к Договору о Евразийском экономическом союзе от 29 мая 2014 года URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_172976/
4. Закон Республики Армения о налогах от 14.04.1997 года. URL: <http://www.arlis.am/DocumentView.aspx?docid=68179>.
5. Ишханов А. В. Налоговая гармонизация как элемент управления мировой налоговой конкуренцией // Экономика: теория и практика, Краснодар: КубГУ, 2002. № 2–3. С. 4–9.

6. Кодекс Республики Казахстан от 10.12.2008 N 99-IV ЗРК
7. «О налогах и других обязательных платежах в бюджет (Налоговый кодекс)», (с изменениями на 01.01.2013 года). URL: http://www.keden.kz/ru/tax_code.php?print.
8. Линкевич Е. Ф. Формирование валютной зоны на территории снг: проблемы и перспективы // Финансовая аналитика: проблемы и решения. 2014. № 12. С. 22–27.
9. Мамбеталиев Н. Т., Мамбеталиева Ж. Н. О перспективах гармонизации национальных налоговых законодательств государств — участников Евразийского экономического сообщества // Налоговый вестник. 2001. N
10. Министерство Финансов Республики Беларусь. <http://www.minfin.gov.by/taxation>
11. Федеральная служба государственной статистики: URL: <http://www.gks.ru>.

УДК: 332.012.322

ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИГИ МЕХАНИЗМИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ САМАРАЛИ ЙЎЛЛАРИ ВА МАВЖУД ЧЕКЛОВЛАР

ЭФФЕКТИВНЫЕ ПУТИ РЕАЛИЗАЦИИ МЕХАНИЗМА ГОСУДАРСТВЕННО- ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА И СУЩЕСТВУЮЩИЕ ОГРАНИЧЕНИЯ

EFFECTIVE WAYS TO IMPLEMENT PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP MECHANISM AND EXISTING LIMITATIONS

Утемуратова Гулнарахан Хожаниязовна
Қорқалпоқ давлат университети профессори, и.ф.д.

Аннотация

Ушбу мақолада иқтисодиётнинг трансформациялашуви шароитида давлатнинг мақсадларини реализация қилиш учун хусусий секторни жалб қилишнинг ижобий томонлари, давлат-хусусий шериклиги асосида хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланишининг инвестицион усуллари ва воситалари, давлат-хусусий шериклиги (ДХШ) лойиҳалари самарадорлигини ошириш, ижтимоий аҳамиятга эга стратегик лойиҳаларни бошқариш ва молиялаштириш бўйича хусусий секторнинг иштирокини таъминлаш усуллари ҳамда давлат-хусусий шериклиги механизмини жорий этиш тартиби ҳамда ДХШ механизмини жорий қилишнинг самарали йўллари тадқиқ қилинган.

Калит сўзлар: хусусий сектор, давлат сектори, давлат-хусусий шериклиги, лойиҳа, инвестициялаш, инновацион технологиялар, стратегия, механизм, давлат рисклари.

В данной статье в условиях трансформации экономики рассмотрены положительные аспекты привлечения частного сектора для реализации целей государства, инвестиционные методы и инструменты развития сферы услуг на основе государственно-частного партнерства, повышение эффективности проектов государственно-частного партнерства (ГЧП), управление социально значимыми стратегическими проектами и методы обеспечения участия частного сектора в финансировании и порядок внедрения механизма государственно-частного партнерства и эффективные пути внедрения ГЧП механизм исследован.

Ключевые слова: частный сектор, государственный сектор, государственно-частное партнерство, проект, инвестиции, инновационные технологии, стратегия, механизм, государственные риски.

In this article, in the context of the transformation of the economy, the positive aspects of

attracting the private sector to realize the goals of the state, investment methods and tools for the development of the service sector based on public-private partnership, increasing the efficiency of public-private partnership (PPP) projects, managing socially important strategic projects and the methods of ensuring the participation of the private sector in financing and the procedure for introducing the public-private partnership mechanism and the effective ways of introducing the PPP mechanism have been researched.

Key words: private sector, public sector, public-private partnership, project, investment, innovative technology, strategy, mechanism, public risk.

Бугунги кунда дунёда ДХШга қизиқишнинг асосий сабабларидан бири шундан иборатки, бу ҳамкорлик ҳар доим лойиҳаларнинг шаклланиши ва амалга оширилишида давлат сектори хизматларига капитал сарфларни тақсимлаш имконини беради. Улар иқтисодий ресурслар чегараланган шароитида давлат бюджетидан кечиктирмасдан тўловларни амалга оширишни зарурат этади. Харажатлар ё истёъмолчилар (ДХШнинг концессион модели) томонидан қопланади ёки бюджет маблағлари ҳисобга молиялаштирилади. Бироқ ДХШ шартномасининг барча муддати учун ажратилади (хусусий молиялаштириш ташаббуснинг Британча модели (PFI)), ёхуд тўлов давлат корхоналари томонидан кўрсатилган хизматлар учун тўловлар ҳисобига амалга оширилади.

Агарда ДХШ лойиҳаларига дастлабки капитал қўйилмалар давлат бюджети маблағлари ҳисобга амалга оширилса, у ҳолда бошқа вазиятларда имконсиз бўлган инфратузилмавий инвестицияларни амалга ошириш имконияти сақланиб қолади. Реал ҳолатда қатъий бюджет чекловларини ҳисобга олган ҳолда у ёки бу инфратузилмавий лойиҳани тайёрлашда молиялаштириш чизмасини танлаш ДХШ ва соф жамоат хизматларининг давлат таъминоти ўртасида эмас, балки ДХШ ва бундай молиялаштиришнинг етишмаслиги натижасида лойиҳанинг ўзи орқали амалга оширилади. Яъни давлат ўзи мустақил молиялаштира олмайдиган баҳоси юқори бўлган мураккаб инфратузилмавий лойиҳаларни амалга ошириш тўғрисида масала бўлса, у ҳолда ДХШ механизмига муқобиллар мавжуд бўлмайди[1].

Бу вақтда таъкидлаш керакки, ДХШ лойиҳаларига капиталнинг қиймати одатда лойиҳа фақат давлат томонидан тақдим этилган ва давлат маблағлари ҳисобидан молиялаштириш амалга оширилганга кўра юқори бўлади. Хорижий давлатларнинг статистик маълумотларига кўра, ДХШда капитал қиймати давлат томонидан молиялаштиришга қараганда 2-3 % юқори бўлади. Бу шу ҳолат билан изоҳланадики, давлат томонидан молиялаштиришдаги рисклар хусусий сектордаги кредиторлар рискига нисбатан камроқ бўлади. Ҳозирги кунда ДХШ доирасида ҳукуматлар лойиҳанинг рискин хам қайта кўриб чиқмоқдалар. ДХШ давлат секторини лойиҳалар рискин аниқлаш ва уларни анъанавий давлат хизматларининг амалиётига нисбатан ишончли тарзда суғурталашга рағбатлантиради.

Бунга боғлиқ ҳолда, ДХШ бўйича томонлар аҳамиятли равишда инвестициялаш жараёнини тезлаштирадilar, кейин кўпинча олдин бир нечта алоҳида қисмларга бўлиниши керак бўлган лойиҳалар яхлит бир бутун ҳолда бажарилиши мумкин.

ДХШ лойиҳалари лойиҳанинг умумий қийматини аниқлашга ёндашув билан тавсифланади. Бу нафақат асосий воситаларни сотиб олиш билан боғлиқ харажатларни, балки лойиҳанинг бутун муддати мобайнида ушбу асосий воситаларни сақлашга йўналтирилган харажатларни ҳам ҳисобга олади. Шундай экан, инвесторлар объектни куриш, операцион бошқариш ва хизматлар кўрсатиш учун масъулиятни ўз зиммаларига оладилар. Улар ўзлари учун энг яхши тарзда ДХШ лойиҳасини ишлаб чиқишдан манфаатдор. Бунда хусусий инвесторлар дастлабки капитал харажатларни оширишга тайёр, агарда келажакда бу ДХШ шартномасини амал қилиш муддатида эксплуатацион харажатларни пасайтирса. Таъкидлаш керакки, одатдаги давлат лойиҳасида минимал миқдордаги бошланғич капитал харажатлари мавжуд бўлади[2].

Иқтисодиётнинг трансформациялашуви шароитида давлатнинг мақсадларини реализация қилиш учун хусусий секторни жалб қилишнинг ижобий томонларидан яна бири

сифатида хусусий фирмалар (компаниялар) йирик, мураккаб лойиҳаларни бошқариш соҳасида катта тажрибага эга бўладилар ҳамда берилган бюджет маблағлари доирасида ва аниқ муддатда бундай лойиҳаларни якунлаш қобилияти юқорироқ бўлади. Давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизими бўйича ҳолатга назар ташласак, хусусий секторга нисбатан инвестицион маблағларни ишлатиш самарадорлиги хусусий сектор субъектларига нисбатан пастроқ бўлади.

ДХШда содир бўладиган ҳамда шартномаларни танлов асосида тузиш давлат ва хусусий сектор тажрибалари бўйича имкониятлар комбинацияси давлат-хусусий шериклиги дорасида инфратузилма лойиҳаларини шакллантириш ва бошқаришга инновацион ёндашувларнинг юқори салоҳиятини аниқлайди.

ДХШ ҳудудларнинг инновацион ривожланишига фаол ижобий таъсир кўрсатади. Бизнинг фикримизча, ДХШ Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудларини ривожлантириш сиёсатида зарурий шарт-шароитлар сифатида қаралади. Ҳудудларда ДХШ лойиҳалари инвестицион жозибадорликни ошириш, ижтимоий соҳани ривожлантириш масалаларини ҳал қилиш учун капитални қўшимча жалб қилиш имкониятини намоён этади.

Таъкидлаш керакки, дунё амалиётида ДХШ дастурлари кўплаб йўналишлар, хусусан, хизмат кўрсатиш соҳасида давлат секторини кенг қўламда ислоҳ қилишнинг катализатори бўлиб хизмат қилади. ДХШ яхлит ҳолда давлат бошқаруви самарадорлигини оширишга кодирдир. ДХШ лойиҳаларнинг даромадлари ва харажатларини ҳисоблашда ва барча ҳисоботларда шаффофликни таъминлайди. Хусусан, ДХШ лойиҳаларида операцион сарфлар ва техник хизмат кўрсатиш харажатларини ўз ичига олувчи лойиҳанинг барча хизмат кўрсатиш муддат мобайнида компаниянинг зиммасида бўлган харажатларни тўлиқ ифодалайди. Бу давлатни аҳолига қандай хизмат турларини кўрсатиши ва уларни қандай нархларда амалга ошириши кераклигини диққат билан кузатишга мажбур қилади.

ДХШ давлат секторида хизматларни кўрсатиш ва режалаштириш жараёнини такомиллаштириш имконини беради. Бундан ташқари, давлат ДХШ битимини тузиш вақтида ҳамкорликда иштирок эта туриб, нафақат дастлабки капитал харажатлар суммасини назорат қилиши, балки умумий харажатлар таркибида операцион ва техник харажатларни аниқлаши, хизматлар кўрсатишнинг узоқ муддатли режаси ҳақида қайғуриши лозим. Бу давлат хизматчиларини стратегик режалаштириш билан шуғулланишларини рағбатлантиради. Давлат хизматчиларининг бизнес ҳамкорлар билан самарали муносабат ўрнатишлари жараёнида давлат хизматчиларининг эгаллаган кўникмалари давлат секторидаги бошқа соҳаларга ўтказилиши ва ундан кенгроқ мазмунда фойдаланилиши мумкин.

ДХШ лойиҳаларини кенг тарқалишига тўсиқ бўлувчи омиллар ушбу жараённинг мураккаблиги билан боғлиқдир. Лойиҳа қанча мураккаб ва қийин бажариладиган бўлса, ҳукукий ва молиявий масалалар бўйича маслаҳатчиларни жалб қилиш харажатлари шунчалик катта бўлади. Шунингдек, операцион бўлмаган харажатлар катта бўлиб, лойиҳанинг рентабеллиги пасаяди. Баъзида кичик лойиҳалар ҳам рентабелли бўлмаслиги мумкин. Кўпинча операцион бўлмаган харажатлар лойиҳа қўламига боғлиқ бўлмайди ва йирик лойиҳалар сингари мутлақ уларга яқин бўлади. Давлат сектори учун фавқулотда мураккаб вазифалар узоқ муддатли лойиҳалардан фойдаланиш масалаларининг барча йўналишларини аниқлаш имконини беради. Масалан, муайян ҳудудда аҳоли сонинг динамик ўзгариши ДХШ механизми асосида узоқ муддат мобайнида қуриладиган ижтимоий хизматлар кўрсатиш объектларини лойиҳанинг якуни бўйича ортиқчалиги ёки етишмаслигига олиб келиши мумкин. Амалдаги лойиҳага ўзгартиришларнинг киритилиши ёки лойиҳанинг ёпилиши ўзи билан бирга катта харажатларга олиб келади. Хулоса қилиш керакки, лойиҳанинг ўзгариш имконияти ва нарх-сифат нисбати бир-бири билан узвий боғлиқдир. Гарчи бу нисбатни молиявий баҳолаш мураккаб бўлса ҳам лойиҳанинг умумий қийматини аниқлашда уни ҳисобга олиш лозим. Бундан келиб чиқадики, узоқ муддатга режалаштирилаётган лойиҳалар аниқ бўлса ДХШ учун хосдир. Аксинча, узоқ муддатга мулжалланган лойиҳаларни аниқ ҳисоблаш имкони бўлмаса ёки технологиялари тез ўзгарадиган лойиҳаларни ДХШ доирасида реализация қилиш анча мураккабдир.

ДХШ лойиҳаларининг ҳамкорлик асоси куйидагилардан иборат:

– ДХШ механизми асосида кўп ҳолларда хусусий ва жамоат манфаатларига хизмат кўрсатиш ўртасида қарама-қаршиликлар ҳал қилинади, давлат ва ҳокимиятнинг ўзаро муносабатида юқори маданият шаклланади;

– ДХШнинг юқори ижтимоий аҳамияти шундан иборатки, ДХШ дастурларини тўлиқ реализация қилишдан пировардида истеъмолича энг кўп фойдани олади;

– иқтисодий беқарорлик ҳолатларида айнан ДХШ ҳам макродаражада, ҳам алоҳида субъектлар даражасида олдин бошланган муҳим ижтимоий лойиҳаларни давлат томонидан давом эттириш ва якунлаш имкониятини юзага келтиради. Кўпинча, давлат мустақил молиялаштириш мумкин бўлмаган иқтисодий беқарорлик шароитида инфратузилмавий лойиҳаларнинг мураккаб йўлини амалга ошириш ҳақида гап кетганда, бу ҳолатда ДХШ механизмнинг муқобили мавжуд бўлмайди;

– хусусий сектор давлатни бюджетдан тўғридан-тўғри қилинадиган тўловлардан озод қилган ҳолда, молиявий ресурслар билан таъминлайди. Бу ҳолат иқтисодий инқирозлар даврида муҳим аҳамиятга эга бўлади, мураккаб, йирик лойиҳаларни бошқаришда ўзининг касбий маҳорати ва билимларини намоён этади, самарали бошқарув технологиялари ДХШ лойиҳаси доирасида қабул қилинаётган қарорларда оперативлик ва эгилувчанлигини ошишига аҳамиятли даражада таъсир кўрсатади, бизнес жараёнларини оптималлаштиради, инновацион технологиялар жорий этилади, давлат прогнози учун энг мураккаб рискларни ўз зиммасига олади ва ҳ.к.

Бошқа томондан, хусусий тадбиркорликка давлат активларидан фойдаланиш, уларни узоқ муддат эгалик қилиш ва бошқариш ҳукуқи берилади. Бу хусусий сектор субъектларига узоқ истикболда барқарор фойда олиш имконини беради, инновацияларни жорий этиш ёки меҳнат унумдорлигини ошириш орқали бизнеснинг қиймати ва фойда ҳажмини ошириш имконини беради. Хусусий корхоналар эса давлат тузулмалари билан ишлаб катта тажриба орттирадилар ва бозорда хусусий корхона тўғрисида ижобий обрўга эга бўлади.

Юқорида келтирилган фикрларга таянсақ, бизнинг фикримизча, ушбу ДХШ доирасида томонларнинг асосий вазифаларини куйидагича ажратиб кўрсатишимиз мумкин:

– ДХШ қатнашчиларининг ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичларини яхшиланишига хизмат қилувчи сифатли шерикликни амалга ошириш;

– давлат мулкидан фойдаланиш самарадорлиги кўрсаткичларини ўсиши ва хизматлар сифатини ошиши;

– давлат корхоналари ва ташкилотлари фаолиятининг технологик жараёнларини такомиллаштириш ва инновацияларни жорий этиш;

– хизмат кўрсатиш соҳасини бошқаришнинг ташкилий тизимини оптималлаштириш. Умуман ДХШ лойиҳаларининг моҳияти курилиш, қайта таъмирлаш, модернизациялаш, хусусий сектор томонидан инфратузилма объектлари эксплуатация қилиш ва хизмат кўрсатиш ҳамда келишув асосида жамоат хизматларини тақдим қилиш бўйича давлат сектори функцияларини узатишдан иборат[3]. ДХШ самарали ва ижобий натижа бериши мумкин, қачонки куйидаги тамойилларга амал қилинса:

1. Иқтисодий тенглик ва масъулият. Унинг моҳияти шундан иборатки, ДХШнинг барча иштирокчилари масалаларни ҳал қилиш ва мақсадларга эришишнинг оптимал вариантларини аниқлашда тенг ҳуқуқга эга бўлади. Ҳар бир иштирокчи ўз мажбуриятлари бўйича жамият олдида тўлиқ масъул бўлиши керак.

2. Лойиҳанинг барча иштирокчилари манфаатларини ҳар томонлама ҳисобга олиш.

3. Селективлик. Барча ресурслар ва уларнинг манбалари давлат ва хусусий тадбиркорлик ўртасидаги шериклик асосида мамлакат иқтисодий ривожланишининг устувор йўналишларида жамланиши лозим. Ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг энг муҳим мезони синергик самарага эришиш ҳисобланади.

4. Стратегик мақсадни аниқлаш иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларини босқичма-босқич ҳамда изчиллик билан ривожлантиришга йўналтирилиш зарур.

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 10 майдаги ЎРҚ-537-сон «Давлат-хусусий шериклик тўғрисида»ги Қонунининг
2. Элмирзаев С.Э., Шавкатов Н.Ш. Давлат-хусусий шериклик муносабатларининг илғор хориж тажрибалари ва мамлакатимизда қўллаш истикболлари “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2019.
3. «Национальный Центр ГЧП», «Просто и честно об инвестициях в инфраструктуру и государственно-частном партнерстве в России» аналитический обзор, Москва, 2019, 96,101
4. О системе государственно-частного партнерства в Великобритании [Электронный ресурс] // Интернет-портал «Государственно-частное партнерство в России». 2009 году.
5. О системе государственно-частного партнерства в Великобритании [Электронный ресурс] // Интернет-портал «Государственно-частное партнерство в России». 2009 году.

UDK: 332.66

AHOLINI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARIGA BO‘LGAN ISTE’MOL TALABLARIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAVSIFI

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОТРЕБИТЕЛЬСКИЕ ПОТРЕБНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В ПРОДОВОЛЬСТВЕННЫХ ТОВАРАХ И ИХ ОПИСАНИЕ

FACTORS AFFECTING CONSUMER NEEDS OF THE POPULATION IN FOOD PRODUCTS AND THEIR DESCRIPTION

Sauxanov Janibek Kazievich

Qoraqalpoq davlat universiteti pfofessori

Daniyarov Saylawbay Saparbayevich

Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq etgan holda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi xavflarning hududiy oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri bilan bog‘liq hukumat agrar siyosati va ob‘yektlarda ijtimoiy-iqtisodiy so‘rovnomalar o‘tkazish orqali qishloq xo‘jaligidagi mavjud xavflar va ularni istiqbolda ta’sirini pasaytirish imkoniyatlari o‘rganilib, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan iste’mol talablariga ta’sir etuvchi omillarning tavsifini ishlab chiqish asosida mintaqada iste’mol talabiga omillarni sotuv kanallari bo‘yicha ta’siri ijtimoiy so‘rov asosida aniqlangan integral ko‘rsatkichlar yordamida miqdoriy baholangan;

Kalit so‘zlar: Oziq-ovqat mahsuloti, iste'mol talab, intgeral ko‘rsatkich, respondent, tomorqa, bozor, iste'molchi, ijtimoiy iqtisodiy, ta'sir etuvchi omillar, harid, mahsulot,

В статье исследуются существующие риски в сельском хозяйстве и возможности их смягчения в будущем посредством проведения социально-экономических опросов на объектах и государственной аграрной политики, связанных с влиянием рисков сельскохозяйственного производства на территориальную продовольственную безопасность, исследуются возможности развития сельского хозяйства, на основе разработки описания факторов, влияющих на потребительские потребности населения в продуктах питания, проводилась количественная оценка влияния факторов на потребительский спрос в регионе по каналам сбыта с использованием интегральных показателей, определяемых на основе социального опроса;

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

Ключевые слова: Продукт питания, потребительский спрос, интегральный показатель, респондент, приусадебный участок, рынок, потребитель, социально-экономические факторы, факторы влияния, закупки, товар.

The article investigates the existing risks in agriculture and the possibility of mitigating them in the future by conducting socio-economic surveys on the objects and state agrarian policy related to the impact of agricultural production risks on territorial food security, explores the possibilities of agricultural development, based on the development of a description of factors affecting the consumer needs of the population in food products, conducted a quantitative assessment of the impact of factors on the consumer demand for food products, conducted a quantitative assessment of the impact of factors on the consumer demand for food products.

Keywords: Food product, consumer demand, integral indicator, respondent, homestead, market, consumer, socio-economic factors, influencing factors, procurement, commodity.

Barchamizga ma'lumki keyingi yillarda oziq – ovqat tanqisligi muammosi o'zning eng yuqori cho'qqisiga chiqmoqda, buning asosiy sabablaridan biri aholi sonini oshishi bo'lsa, yana biri turli iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar sababli yerlarning melaorativ holatining o'zgarishi hisoblanadi. Shu sababdan yerlardan samarali foydalanish masalasi butun dunyodagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Xususan mamlakatimizda ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Mamlakatning keyingi besh yildagi taraqqiyotining asosini belgilovchi 2022 -2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 30-maqjadi qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish.ga bag'ishlangan bo'lib, bunda tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish muhim vazifalardan biri sifatida keltirib o'tiladi [1].

1-jadval

Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talablariniga ta'sir etuvchi omillarni makoni bo'yicha so'rovnoma natijalari

№	Berilgan savol mazmuni	Berilgan javob natijalari, %				
		Bo-zor	Mini-market	Super-market	Tomor-qa	Boshqa
1.	Oziq-ovqat mahsulotlarini qayerdan harid qilasiz?	49	14	8	23	6
2.	Qaysi joydan harid qilish sizga qulay?	55	23	17	0	5
3.	Qaysi joydagi oziq-ovqatni sifatliroq deb hisoblaysiz?	18	11	24	45	2
4.	Qaysi joydan oziq-ovqat harid qilish sizning ehtiyojigizni to'liq qondiradi?	53	8	19	12	8
5.	Qaysi joydan harid qilingan mahsulot tez buziladi?	16	37	11	22	14
6.	Qaysi joydan harid qilish sizga ko'proq zavqli?	38	7	42	9	4
7.	Oziq-ovqat mahsulotlarini harid qilish uchun qaysi joy sizga yaqin?	22	51	19	5	3
8.	Shoshilinch holatda qayerdan harid qilasiz?	19	59	11	6	5
9.	Oila a'zolaringiz ko'proq qayerdan harid qilishadi?	29	37	13	17	4

Manba: Tadqiqot bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma asosida muallif ishlanmasi

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik jihatdan tang hududda joylashgan bo‘lib, bugungi kunda ekologik muammolar hududning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotiga o‘zining salbiy ta‘sirini keltirib chiqarmoqda [2]. Natijada mazkur hududda yashovchi aholining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy turmush tarzida salbiy tashqi samaralar vujudga kelmoqda. Buning asosiy sababchisi dunyoda to‘rtinchi yirik sho‘r ko‘l hisoblangan Orol dengizining qurishi hisoblanadi, mazkur ko‘l o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga erishganda taxminan 40000 ish o‘rnini yaratgan va katta biologik xilma-xil ekotizimga ega bo‘lgani holda hududda katta miqdordagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni etishtirishga xizmat qilgan.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan iste‘mol talablariga [3] ta‘sir etuvchi omillar va ularning tavsifi yuzasidan 327 kishilik respondentlar orasida so‘rovnoma o‘tkazildi (1-jadval).

So‘rovnoma natijasida respondentlarga murojaat qilinganda, “Oziq-ovqat mahsulotlarini qayerdan harid qilasiz?” degan savolga 49% kishi “Bozor” javobini, 23% kishi “Tomorqa”da yetishtirishini, 14% kishi “Minimarket” javobini, 8% kishi “Supermarket” javobini, 6% kishi “Boshqa” javobini tanlagan. Bu respondentlar hamma vaqt ham aynan bir joydan mahsulot harid qilmasliklarini va hududiy mentalitetdan kelib chiqqan holda, ko‘proq bozordan mahsulot harid qilishlarini ko‘rsatdi. Tomorqada ham odatda mahsulot yetishtiriladi va odatda mahsulotning bir qismi tomorqada yetishtirilgan mahsulotlar hisobiga qoplanadi.

Respondentlar tomonidan “Qaysi joydan harid qilish sizga qulay?” degan savolga 55% kishi “Bozor” javobini, 23% kishi “Minimarket” javobini, 17% kishi “Supermarket” javobini, 5% kishi “Boshqa” javobini tanlagan. Yuqoridagi fikr bozor ular uchun qulayligini ko‘rsatmoqda [4].

“Qaysi joydagi oziq-ovqatni sifatliroq deb hisoblaysiz?” degan savolga 18% kishi “Bozor” javobini, 45% kishi “Tomorqa” da javobini, 11% kishi “Minimarket” javobini, 24% kishi “Supermarket” javobini, 2% kishi “Boshqa” javobini tanlagan. Bu ko‘proq respondentlar sifatliroq mahsulot o‘z tomorqasida bo‘lishiga ishonishini ko‘rsatdi. Odatda qishloq aholishi o‘z tomorqasida o‘z ehtiyoji uchun yetishtiradigan mahsulotlarga turli mineral o‘g‘itlar, kimyoviy unsurlardan foydalanmasdan mahsulot yetishtirishlari aniq.

Qatnashchilar “Qaysi joydan oziq-ovqat harid qilish sizning ehtiyojingizni to‘liq qondiradi?” degan savolga 53% kishi “Bozor” javobini, 12% kishi “Tomorqa” da javobini, 8% kishi “Minimarket” javobini, 19% kishi “Supermarket” javobini, 8% kishi “Boshqa” javobini tanlagan. Bu javob respondentlarning yil davomida haridlarida ko‘proq bozor ularning ehtiyojlarini qondirishini anglatmoqda.

Respondentlar “Qaysi joydan harid qilingan mahsulot tez buziladi?” degan savolga 16% kishi “Bozor” javobini, 22% kishi “Tomorqa”da javobini, 37% kishi “Minimarket” javobini, 11% kishi “Supermarket” javobini, 14% kishi “Boshqa” javobini tanlagan. Bu javob ko‘proq oziq-ovqat mahsulotlari minimarketda ko‘proq turib qolishi va hamma vaqt ham yetarli sharoitda saqlanmasligiga e‘tibor qaratishdi.

“Qaysi joydan harid qilish sizga ko‘proq zavqli?” degan savolga 38% kishi “Bozor” javobini, 9% kishi “Tomorqa”da javobini, 7% kishi “Minimarket” javobini, 42% kishi “Supermarket” javobini, 4% kishi “Boshqa” javobini tanlagan. Respondentlar tomonidan harid qilish jarayoni ularga ko‘proq tanlov bera oladigan va sifatliroq mahsulotlar taklif etadigan supermarketlar javobini berishgan.

“Oziq-ovqat mahsulotlarini harid qilish uchun qaysi joy sizga yaqin?” degan savolga 22% kishi “Bozor” javobini, 5% kishi “Tomorqa”da javobini, 51% kishi “Minimarket” javobini, 19% kishi “Supermarket” javobini, 3% kishi “Boshqa” javobini tanlagan. Bu savol javobi respondentlar harid uchun o‘zlariga minimarketlar yaqinligini tavsiflashgan. Hozir minimarketlar nafaqat shahar hududlarda, balki qishloq joylarda ham ko‘payib borayotganligini bildiradi.

Respondentlar “Shoshilinch holatda qayerdan harid qilasiz?” degan savolga 19% kishi “Bozor” javobini, 6% kishi “Tomorqa”da javobini, 59% kishi “Minimarket” javobini, 11% kishi “Supermarket” javobini, 5% kishi “Boshqa” javobini tanlagan.

Respondentlar agarda o‘zlari harid qilish imkoni bo‘lamagan vaqtlarida “Oila a‘zolaringiz ko‘proq qayerdan harid qilishadi?” degan savolga 29% kishi “Bozor” javobini, 17% kishi “Tomorqa”da javobini, 37% kishi “Minimarket” javobini, 13% kishi “Supermarket” javobini, 4%

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

kishi “Boshqa” javobini tanlagan. Bu javob yana bir bora, yaqin va qulay bo‘lgan minimarketlarga ustunlik bergan.

Ushbu maqolada asosiy 8 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari uchun olib borildi. Unga ko‘ra, 2022 yil uchun talab un va un mahsulotlari uchun kamida 331,2 ming tonnani, kartoshka – 136,4 ming tonnani, sabzavot va poliz ekinlari – 323,5 ming tonnani, turli mevalar – 155,9 ming tonnani, uzum – 155,9 ming tonnani, go‘sh t mahsulotlari – 136,4 ming tonnani, sut mahsulotlari – 730,7 ming tonnani, tuxum – 779,4 mln donani tashkil etgan. Nukus shahri uchun esa, talab un va un mahsulotlari uchun kamida 55,9 ming tonnani, kartoshka – 23,0 ming tonnani, sabzavot va poliz ekinlari – 54,6 ming tonnani, turli mevalar – 26,3 ming tonnani, uzum – 26,3 ming tonnani, go‘sh t mahsulotlari – 23,0 ming tonnani, sut mahsulotlari – 123,4 ming tonnani, tuxum – 131,6 mln donani tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda oziq – ovqat mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazib berishda eng maqbul va nobudgarchilik nisbatan past bo‘lgan sotuv kanalini qarab chiqamiz. Buning uchun respondentlar tomonidan 9 ta savolga berilgan javoblar natijalariga e'tibor qaratamiz. Savollarni turli mazmunda ekanligini hisobga olgan holda ularni umumiy ko‘rsatkichga o‘tkazib shakllantirilgan integral ko‘rsatkichdan foydalanishni maqsadga muvofiq deb topdik. Ya'ni, har bir savol bo‘yicha sotuv kanalining rangi aniqlanildi va eng yuqori ulushga ega bo‘lganidan pastga qarab tartiblanildi. Faqat beshinchi savolning mazmuni boshqa savollar mazmuni bilan teskari bo‘lganligi sababli bu yerda tartiblash teskari holatda berildi. Amalga oshirilgan hisob kitoblar natijasida quyidagi jadval shakllantirildi.

Жоқарыдағылардан көринип турыпты, Қарақалпақстан Республикасын раўажландырыў стратегиясын әмелге асырыўдың ең тийкаргы механизми бул инвестицияларды тартыўдан ибарат. Буның ушын бар бәсеки абзаллықларын, жәхән итибарында болған Арал теңизи апатшылығы әқыбетлерин халық-аралық шөлкемлер, шет ел инвесторлары ортасында үгит нәсият етиў үлкен аҳмийетке ийе. Бул жөнелисдеги иләжларға тәбийғый-экономикалық потенциалға, халық-аралық аҳмийетке ийе болған туризм хэм спорт ойынларына бағышланған ири иләжлар, конференциялар, симпозиумлер хэм көргизбелерди шөлкемлестириўди көрсетиў мүмкин. Қарақалпақстан Республикасын раўажландырыў стратегиясын әмелге асырыўда өз алдына механизм сыпатында экономиканың, бәрше тараўларында инновациялық белсендиликти асырыў хэм илим-техниканың ең алдыңғы жетискенликлеринен өнимли пайдаланыўда киреди.

Келешекте экономиканың тийкаргы өсиў ноқатларынан болған Нөкис хэм Қоңырат қалаларын комплексли раўажландырыўға итибарды қаратыў бул да стратегияны әмелге асырыў механизми болып хызмет етеди.

Жаңа инновациялық системаны қәлиплестириўде төмендегилерге үлкен итибар қараталыўы лазым:

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

- Куяш ҳам самал потенциалынан үнемли пайдаланган ҳалда энергия ислеп шығарыўды әмелге асырыў (куяш станциялары, самал ескишлер ҳам басқалар);

- Суўдан тежеп пайдаланыўға қаратылған технологияларды алып келиў (тамшылап суўғарыў ҳам басқалар);

- Ауыл хожалығында жергиликли тәбийғый шараятқа масласатуғын туқым ҳам өсимликлердиң жаңа сортларын жаратыў;

Өндиристе ҳам басқарыўда ең алдыңғы информациялық-технологиялардан пайдаланыўды жолға қойыў (компьютерлер, арнаўлы бағдарламалар, жойбарлаў ҳам басқарыўдың автоматластырылған усыллары ҳам басқалар).

Раўажланыў стратегиясын әмелге асырыўға қаратылған ызамлы-хуқуқый хўжетлерди таярлаўда Қарақалпақстан Республикасы Жоқары Кеңеси белсендилик көрсетиўи, биринши нәўбетте Қарақалпақстан Республикасы Министрлер Кеңеси искерлиги шеңберинде керекли қарарлар қабыл етиўди шөлкемлестириў керек.

Қарақалпақстан Республикасында әмелге асырылыўы керек болған шөлкемлескенлик механизмлер бойынша төмендегилерди усыныс етиў мүмкин:

- Түрли тәбийғый, экономикалық, социаллық ҳам экологиялық қәўип-қәтерлерди алдыннан анықлаў, олардың унамсыз ақыбетлерин жумсартыў ҳам алдын алыў бойынша Қарақалпақстан Республикасы Министрлер Кеңесинде мониторинг орайын шөлкемлестириў;

- Климат ҳам экологияның өзгериўи, суў ҳам суўғарылатуғын жерлердиң шекленгенлигин итибарға алған ҳалда халықты ҳам ислеп шығарыўды нәтийжели жайластырыў бойынша Қарақалпақстан Республикасы Экономика министрлигинде өз алдына анализ жүритиўши топарды шөлкемлестириў;

- Аймақта қолай исбилерменлик орталығын жаратыў, туўрыдан-туўры шет ел инвестицияларын тартыў мақсетинде жеке инвестиция компаниялары, банк-финанс институтлары, базар инфрадузилмелери (консалтинг, қамсызландырыў, лизинг) объектлерин дузиў ҳам искерлигин қоллап-куўатлаў;

- Қарақалпақстан Республикасы хўкиметиниң аймақта түрли дереклер арқалы әмелге асырылып атырған ҳам асырылыўы мөлшерленип атырған бәрше инвестицион ҳам басқа жойбарларды муўапықластырыўды шөлкемлестириў.

Улыўма усыныс етилип атырған раўажланыў стратегиясын әмелге асырыўдың бағдарлары ҳам механизмлери тәбийғый потенциалдан нәтийжели пайдаланыўға ҳамде келешекте күтилип атырған қәўип-қәтерлердиң алдын алыўда, аймақта турақлы экономикалық өсиўди ҳам халық пәраўанлығын тәмийинлеўге алып келеди.

Paydalanılğan ádebiyatlar

1. «Өзбекстан-2030» Стратегиясы ҳаққында. ПП-158-сан Өзбекстан Республикасы Президентиниң Пәрманы, 2023 жыл 11-сентябрь// <https://lex.uz/docs/6600413>
2. Ш. Мирзиёев. «Өзбекстан Республикасының раўажланыў стратегиясы ҳаққында» Өзбекстан Республикасы Президентиниң Пәрманы.
3. Ш.М.Мирзиёев. «Арал бойы аймағы халқының турмыс тәризин жақсылаў бойынша 2017-2021 жылларда Аралбойы аймағын раўажландырыўдың Мәмлекетлик бағдарламасы ҳаққында»ғы Өзбекстан Республикасы Президентиниң Қарары.
4. Қалмуратов Б. С. Инновацион бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмни ривожлантириш стратегияси (Қарақалпоғистон Республикаси мисолида) Монография// Нукус «ҚҚДУ» 2019.- 112 б. 7 б/т
5. Қалмуратов Б. С. Минтақада саноатни инновацион ривожлантиришни бошқариш механизми самарадорлигини ошириш стратегияси (Монография)// Тошкент.: Innovatsiya-Ziyo”, 2022. 256 б. (ISBN 978-9943-8311-9-3)
6. Калмуратов Б. С. Бекимбетов Д. Р. Повышение эффективности стратегического управления в развитии региона// *Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice* <https://www.bulletennauki.ru> Т. №7 2023 304-309 стр.

STATISTIKA ISHLARINI TASHKIL QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: MINTAQAVIY ASPEKT

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОРГАНИЗАЦИИ СТАТИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: РЕГИОНАЛЬНЫЙ АСПЕКТ

DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF STATISTICAL ACTIVITIES: REGIONAL ASPECT

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
dotsenti **Jiemuratov Temirbay**

2-bosqich “Ekonometrika” ta’lim yo’nalishi talabasi **Muratbayev B.**

Annotatsiya

Maqolada h’ozirgi sharoitda statistik axborot tizimlarining mintaqaviy bo’g’inini rivojlantirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo’llash zaruriyati keltirilgan. Bunday raqamli texnologiyalar bir qator xalq xo’jaligi muammolarni h’al qilishda qo’llaniladi, ammo h’ozirgacha ularga tuman darajasini yaxshilash vositasi sifatida etarlicha etibor berilmagan. Statistik axborot tizimining quyi tizimi sifatida tuman miqyosida faoliyatni tashkil etish tizimli yondashuv tamoyillari asoslab berilgan. Statistik axborot tizimining tuman bo’g’ini uning unsurlarining birligi asosida ishlaydi: yagona statistik ko’rsatkichlar va o’larni h’isoblash usullari, birlamchi statistik h’isobotning yagona shakllari, statistik malumotlarni qayta ishlashning yagona usullari va boshqalar.

Kalit so’zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, statistik axborot tizimlari, qaror qabul qilish, h’ududiy statistika, statistik malumotlarni qayta ishlash, mintaqaviy bo’g’in, axborot tiziminin’ quyi bo’g’ini.

В статье представлена необходимость использования современных цифровых технологий при развитии регионального звена статистических информационных систем в современных условиях. Подобные цифровые технологии используются для решения ряда народнохозяйственных задач, но до сих пор им не уделяется достаточного внимания как средству совершенствования районного уровня. В качестве подсистемы статистической информационной системы обоснованы принципы системного подхода к организации деятельности на районном уровне. Районное звено статистической информационной системы работает на основе единства ее элементов: единых статистических показателей и методов расчета, единых форм первичной статистической отчетности, единых методов статистической обработки данных и т. д.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые технологии, статистические информационные системы, принятие решений, региональная статистика, статистическая обработка данных, региональное звено, нижнее звено информационной системы.

The article presents the need to use modern digital technologies in the development of the regional link of statistical information systems in modern conditions. Such digital technologies are used to solve a number of national economic problems, but so far they have not received enough attention as a means of improving the district level. As a subsystem of the statistical information system, the principles of a systematic approach to organizing activities at the district level are substantiated. The regional link of the statistical information system operates on the basis of the unity of its elements: common statistical indicators and calculation methods, common forms of primary statistical reporting, common methods of statistical data processing, etc.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

Keywords: digital economy, digital technologies, statistical information systems, decision making, regional statistics, statistical data processing, regional link, lower link of the information system.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi davlat statistikasini isloh qilish jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning «O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi 2020 yil 3 avgust PQ-4796- son qarori asosida 2020-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasi doirasida davom etmoqda, uning maqsadi foydalanuvchilarni yagona idoralararo statistik axborot tizimini shakllantirish orqali xalqaro standartlarga javob beradigan ichonchli malumotlar bilan taminlash h‘isoblanadi.

Malumotlarni yig‘ish jarayoni taqsimlangan, ommaviy va uzluksiz bo‘lib, to‘plangan malumotlarning tarkibi, ularni h‘isoblash metodologiyasi va respondentlar doirasi davlat va jamiyat eh‘tiyolariga muvofiq dinamik ravishda o‘zgarib turadi. Ushbu jarayonni h‘ududiy darajada tashkil etish va boshqarish murakkab iqtisodiy vazifa h‘isoblanib, uni muvaffaqiyatli h‘al qilish h‘ududiy darajada olingan umumiy statistik malumotlarning ishonchliligiga va byudjet moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanishga h‘am bog‘liq.

Shu munosabat bilan davlat statistikasini isloh qilish bosqichida birlamchi statistik malumotlarni to‘plash va saqlash tizimini kompleks o‘rganish h‘amda h‘ududiy miqyosda statistik axborot tizimi faoliyati samaradorligini oshirish uslublari va vositalarini ishlab chiqish uchun zarurat bor.

Ilmiy tadqiqot jarayonida statistika faoliyatida statistik axborot tizimlaridan samarali foydalanish metodologiyasini takomillashtirishga bag‘ishlangan bir qator adabiy manbalar o‘rganildi. Bular Andryushkevich O.A., Denisov I.M., Balatskiy E.V., Ekimov N.A., Begalov B.A., Vasileva E.K., Lyalin V.S., Gorbashko E.A., Grey K.F., Larson E.U., Jukovskaya I.E., Doljenko A.I., Shpolyanskaya I.Yu., Glushenko S.A., Lapidus L.V., Polyakova V.V. va boshqalar.

Iqtisodiyotni sifatli boshqarish ko‘p jih‘atdan ilmiy tashkil etilgan davlat statistikasiga bog‘liq h‘isoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida samarali boshqaruv qorolarini qabul qilinishini taminlaydigan ichonchli va zamonaviy statistik malumotlar olohi‘da ah‘amiyatga ega.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan bog‘liq h‘olda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy h‘ayotidagi tub o‘zgarishlar statistik malumotlarga qo‘yiladigan yangi talablarning paydo bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratdi, bu esa, o‘z navbatida, statistik axborot tizimini (SAT) isloh qilish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Shu nuqtay nazardan, statistik axborot tizimining tuman darajasini isloh qilish vazifasi dolzarbdir. Bu, birinchi navbatda, o‘z maqomiga ko‘ra - tizimning quyi darajasi - tuman darajasi bilan taqqoslaganda, statistik malumotlar manbalari va istemolchilari - tuman va shah‘arlarning korxona va tashkilotlari bilan eng yaqin va bevosita bog‘liqligi. Qolaversa, yangi iqtisodiy sharoitda tuman bo‘g‘inlari faoliyatini takomillashtirmasdan turib, butun tizimni takomillashtirish mumkin emas.

Shu bilan birga, statistik axborot tizimlarining tuman darajasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishni taminlash uchun quyidagi omillarni h‘isobga olish kerak: moddiy resurslarning cheklanganligi va texnik jih‘ozlanishida, dasturiy va texnologiya vositalaridan foydalanishda, h‘ududiy statistika tashkilotlari xodimlarining malaka darajasining bir xil emasligi.

Hozirgi sharoitda statistik axborot tizimlarining mintaqaviy bo‘g‘inini rivojlantirishning eng samarali va ilmiy asoslangan variantlarini tanlash uchun optimallashtirilgan iqtisodiy va matematik modellardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday modellar bir qator xalq xo‘jaligi muammolarni h‘al qilishda qo‘llaniladi, ammo h‘ozirgacha ularga tuman darajasini yaxshilash vositasi sifatida etarlicha etibor berilmagan.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida statistik axborot tizimlarining mintaqaviy darajasini rivojlantirish uchun optimallashtirish modellarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb. Iqtisodiyotni boshqarishni tashkil etishda statistik axborot tizimlarining h‘ududiy darajasi

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

muh'im rol uynashini h'isobga olgan h'olda, uning h'ozirgi zamon talablari darajasiga muvofiqligini aniqlash uchun uning h'ozirgi h'olatini tavsiflash zarur.

Statistik axborot tizimining quyi tizimi sifatida tuman miqyosida faoliyatni tashkil etish tizimli yondashuv tamoyillari asosida quriladi. Avvalo, u murakkab axborot quyi tizimlariga qo'yiladigan talablarga javob beradi. Statistik axborot tizimining tuman bo'g'ini uning unsurlarining birligi asosida ishlaydi: yagona statistik ko'rsatkichlar va o'larni h'isoblash usullari, birlamchi statistik h'isobotning yagona shakllari, statistik malumotlarni qayta ishlashning yagona usullari va boshqalar.

Bundan tashqari, statistik axborot tizimining tuman darajasi murakkab quyi tizim sifatida katta h'ajimga ega bo'lib, murakkab xatti-h'arakatlar bilan tavsiflanadi, chunki u yig'ish, qayta ishlash, saqlash va statistik malumotlarni taqdim etish kabi ko'plab funktsiyalarni bajaradi.

Uning murakkabligi va ko'p qirraliligi inson-mashina xarakteriga ega ekanligi bilan yanada kuchayadi. Nih'oyat, statistik axborot tizimining tuman darajasidagi faoliyati foydalanuvchilarning yuqori sifatli va o'z vaqtida statistik malumotlarga bo'lgan eh'tiyojlarini qondirish maqsadida uning barcha unsurlarining optimal o'z-aro tasiriga erishishga qaratilgan.

Bundan tashqari, barcha davlat statistika organlari, shu jumladan, tuman miqyosidagi boshqarmalar statistikaning yagona metodologiyasi va yagona rejasi asosida ishlaydi. Ushbu rejaga kiritilgan h'ar bir statistik ish, statistik ko'zatish obekti, ko'rsatkichlar tarkibi, h'isobot shakllari, shuningdek malumotlarni olish, qayta ichlash va istemolchilarga taqdim etish usullari va davriyligi bilan tavsiflanadi.

1-jadval

Xududlar kesimida Internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni

						Ming birlik
№	Xududlar	2018y	2019y	2020y	2021y	2022y
	O'zbekiston Respublikasi	13 321,7	16 386,2	19 981,0	22 987,2	26 723,6
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	767,9	922,3	1 071,9	1 234,2	1 346,6
2	Andijon	991,3	1 236,5	1 484,2	1 790,6	2 019,8
3	Buxoro	694,0	855,2	1 011,2	1 204,5	1 383,0
4	Jizzax	468,2	569,1	667,2	794,1	895,9
5	Qashqadaryo	877,8	1 162,4	1 440,9	1 696,2	1 905,5
6	Navoiy	442,5	553,8	647,1	761,8	876,4
7	Namangan	961,5	1 198,3	1 379,5	1 637,0	1 863,9
8	Samarqand	1 225,7	1 505,9	1 795,4	2 132,5	2 407,4
9	Surxondaryo	721,4	958,6	1 151,5	1 323,5	1 538,2
10	Sirdaryo	349,1	441,4	505,7	595,4	673,0
11	Toshkent	506,7	1 007,7	1 255,2	1 483,8	1 688,8
12	Farg'ona	1 245,5	1 552,3	1 937,4	2 872,3	3 411,7
13	Xorazm	710,2	872,1	1 012,9	1 185,9	1 328,4
14	Toshkent sh.	3 359,9	3 550,6	4 620,9	4 275,4	5 385,0

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezident h'uzuridagi statistika agentligi va O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi malumotlari asosida tuzildi

Statistik axborot tizimining tuman darajasidagi statistik ko'zatish obektlari bo'lib h'isobot beruvchi korxona va tashkilotlar, shuningdek, tumanlar va shah'arlar ah'olisi h'isoblanadi. Har bir tuman va uning h'ududida joylashgan h'ar bir korxona uchun ularni olish usullari va davriyligini ko'rsatadigan ko'rsatkichlar to'plami bilan birlamchi statistik h'isobot shakllarining ro'yxati ularning iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan h'olda belgilanadi va Statistika agentligi tomonidan tasdiqlanadi .

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

Barqaror iqtisodiy rivojlanishga o‘tish ko‘p jih‘atdan AKT ning jamiyatda kengayotgan integratsiyasi va axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishga bog‘liq.

Hozirgi vaqtda telekommunikatsiya xizmatlari va axborot texnologiyalari ulishini oshirish tendentsiyasi barqaror kuzatilmoqda. 1-jadvalda O‘zbekiston Respublikasining ushbu yo‘nalish bo‘yicha eng yuqori h‘ududiy ko‘rsatkichga ega bo‘lgan h‘ududlari ko‘rsatilgan.

Ayni paytda tuman va shah‘arlardagi korxonalar faoliyatining statistik monitoringi, ularning aksariyatining to‘liq xarajatlar h‘isobiga o‘tganligi olo‘h‘ida dolzarb ah‘amiyat kasb etadi, chunki bu mamlakatda bozor o‘zgarishlarining borishini ko‘zatish imkonini beradi.

Tuman bo‘g‘ini faoliyati, butun statistik axborot tizimi faoliyati singari funktsional jih‘atdan h‘am ko‘rib chiqilishi kerak. Tuman miqyosida funktsional quyi tizimlar mavjud bo‘lib, ularning h‘ar biri umumiy statistik kuzatish obekti bilan birlashtirilgan va ushbu obektning h‘olati va rivojlanishini h‘ar tomonlama tavsiflovchi o‘z-aro bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi bilan ifodalangan statistik ishlar to‘plami h‘isoblanadi.

Tuman miqyosidagi eng muh‘im funktsional quyi tizimlar: sanoat statistikasi, kapital qurilish statistikasi, agrosanoat majmuasi statistikasi, molliya statistikasi, meh‘nat statistikasi, uy-joy kommunal xo‘jaligi statistikasi, transport statistikasi, savdo statistikasi, logistika statistikasi, ijtimoiy statistika.

O‘z-aro bog‘langan ko‘rsatkichlar guruh‘i uchun bajariladigan tuman statistik axborot tizimi statistik ishlar kompleksi statistik vazifalar majmualari deyiladi.

Tuman miqyosidagi statistik vazifalar majmuasi orasidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatamiz: «tovar mah‘suloti ichlab chiqarish», «tovar mah‘sulotlarini sotish», «kapital qurilishning asosiy ko‘rsatkichlari», «istemol bozori», «qishloq xo‘jaligi», «chorvachilik», «h‘osil», «korxona moliyasi», «meh‘nat resurslari», «kommunal xo‘jaligi», «transportning mavjudligi va ishlashi», «savdo aylanmasi», «moddiy resurslardan foydalanish», «ah‘olini ish bilan taminlash», «ah‘oli xayot darajasi», «ah‘oliga pullik xizmatlar». Ushbu va boshqa statistik vazifalar to‘plami olo‘h‘ida vazifalarga bo‘linadi.

Tuman miqyosida h‘al qilinadigan statistik vazifalar reglament va so‘rov (reglamentnie i zaprosnie) vazifalariga, ular esa, o‘z navbatida, iqtisodiy tah‘lil va axborot xizmati vazifalariga bo‘linadi. Tuman bo‘g‘inidagi h‘al qilinadigan barcha vazifalardan eng ommaviy vazifa reglament vazifa h‘isoblanadi. Ular birlamchi va yig‘ma h‘isobotlarning oldindan tartibga solingan tuzilmasi, qabul qilish, qayta ishlash va foydalanuvchilarga taqdim etish usuli va davriyligi bilan statistik h‘isobot malumotlarini qayta ishlash vazifalari sifatida tushuniladi. Har bir reglament vazifasi, odatda, statistik h‘isobotning aniq shakliga yoki mazmuni bo‘yicha bog‘liq bir nechta shakllarga mos keladi. Statistikaning bir tormog‘i bo‘yicha reglamentli vazifalar to‘liq h‘al etiladi, masalan, agrosanoat kompleksi statistikasi bo‘yicha, boshqa tormoqlar bo‘yicha - qisman, masalan, ah‘oli statistikasi bo‘yicha. Malumotlarni guruh‘lash, nazorat qilish va tuzatishni o‘z ichiga oladigan dastlabki qayta ishlashdan tuman statistika axborot tizimlari darajasiga kelib tushadigan barcha malumotlar reglament vazifasidan o‘tkaziladi. To‘liq yoki qisman h‘al etilgan reglament vazifalarning natijalari tuman darajasidagi tizimga kelip tushadi.

Reglament vazifalaridan tashqari, tuman bo‘g‘ining funktsional kichik tizimlari doirasida foydalanuvchilarning so‘rovlari bo‘yicha statistik malumotlarni zarur shaklda nazarda tutuvchi so‘rovchi statistik vazifalar h‘al etilmoqda. Iqtisodiy tah‘lilning vazifalari iqtisodiy obektlar faoliyatini va alo‘h‘ida statistik ko‘rsatkichlarni tah‘lil qilish h‘amda o‘larning rivojlanishini bashh‘orat qilish imkonini beradi. Bunday masalalarni echish uchun dinamik qatorlar, matematik statistika usullari va boshqa iqtisodiy-matematik usullardan foydalaniladi. Axborot xizmatlarining vazifalari mazmuni bo‘yicha reglementsiz h‘isobotlar, malumotnomalar, tah‘liliy eslatmalar tayorlash uchun foydalanuvchilarga tezkor malumotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Bu vazifalar asosan boshqaruv organlari uchun taqdim qilinadi, ammo ular turli korxonalar, tashkilotlar va jismoniy shaxslarga h‘am mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Yagona axborot-statistik bazaning shakllantirilishi h‘isobot berishni soddalashtiradi, xo‘jalik yurituvchi subektlari faoliyati to‘g‘risidagi malumotlarni yashirish h‘ajmini keskin qisqartiradi, o‘zaro tah‘lillar o‘tkazish imkoniyati esa iqtisodiyotning yashirin sektoriga qarshi kurashishga yordam beradi.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

Raqamli iqtisodiyotning asosiy o‘ziga xos xususiyati axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlari, davlat soh’asi va davlat boshqaruviga keng kirib borishidir. Mutaxassislar raqamli iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish vazifasi, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha kordinator rolini bajaruvchi davlatga tegishliligin takidlaydilar. Hududiy darajadagi statistik axborot tizimida birlamchi statistik malumotlarni to‘plash va saqlash jarayonlari bo‘yicha tadqiqotining asosiy xulosalari quyidagilardan iborat:

Rasmiy statistika demokratik jamiyatning axborot tizimining ajiralmas elementi h‘isoblanadi. Jamiyatning statistik malumotlarning h‘ajmi, sifati, samaradorligi va dolzarbligiga bo‘lgan talablari doimo ortib bormoqda. Shunday qilib, samaradorlikni oshirish masalasi milliy statistik axborot tizimini rivojlantirishning strategik masalasi h‘isoblanadi;

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va axborot resurslarini shakillantirishning zamonaviy usullarini keng miqiyosida joriy etish, barcha asosiy statistik tartib va jarayonlarni modernizatsiya qilishni, ularni ommaviylik tamoyillari asosida tashkil etishni taminlash milliy statistik axborot tizimini samaradorligini oshirishning asosiy vositasi h‘isoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning «O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida» gi 2020 yil 3 avgust PQ-4796- son qarori.
2. André Loranger, Amanda Sinclair, James Tebrake Measuring. The Economy in an Increasingly Digitalized World: Are Statistics Up To The Task? Statistics Canada; 2018 [Internet] Available from: <https://www.cigionline.org/articles/measuring-economy-increasingly-digitalized-o‘orld>
3. Kuznetsov Yu. A., Markova S. E. Некоторы́е аспекты количественной отсенки уровня тсифрового неравенства регионов Российской Федерации // Методы анализа. — 2014. — №32(383). — С. 2–12.
4. Bykov, I. A. & Hall, T. E. (2011). Тсифровое неравенство и политические предпочтения Интернет-ползователей в России [Digital Divide and the Internet-users political preferences in Russia]. Polis, 5, 151–163. (In Russ.).
5. Rasulov, Z. A. (2013). Информатсионное неравенство регионов Российской Федерации и информатсионная политика (как фаторы́ формирования информатсионного общества) [Information Inequality of the Regions of the Russian Federation and Information Policy (as Factors of Information Society formation)]. Известия высшйкх учебны́кх заведений. Поволзхский регион. Общественне науки [University proceedings. Volga region. Social sciences], 2(26), 42–49. (In Russ.).
6. Begalov B.A. How many of us? Will determine the census. Narodnoye slovo = People’s word. April 24, 2020. [Internet]. Available from: <http://xs.uz/ru/site/newspaper>.
7. Gulyamov S.S. Тсифровая экономика: десять новых технологий // Сборник научны́х статей Республиканской научно-практической конференссии 2 декабря 2019 года на тему: «Тсифровая экономика: моделирование тендентсий экономического развития и перспектив использования современны́х информатсионно-коммуникатсионны́х технологий». Ташкент: ТГЕУ. 2019. С. 169–175.
8. Xodiev B.Yu. Uzbekistan: построение «тсифровой экономики» // Российский внешнеэкономический вестник. 2017. № 12. С. 3–12.
9. Shodiev T.Sh. Мультипликативный эффект тсифровой экономики [Электрон. ресурс]. Режим доступа: <https://review.uz/ru/j2n>. (Data obrasheniya: 17.03.2020)
10. Жуковская Ё.Э. Основны́е направления совээршэенствования мэтодологии примэенэния пээрэедовы́х информатсионно-коммуникатсионны́х технологий в статистической деятельности Республики Узбекистан в условиях формирования тсифровой экономики. Статистика и Экономика. 2020; 17(5):68-80. <https://doi.org/10.21686/2500-3925-2020-5-68-80>.

KICHIK BIZNES FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH VA KREDITLASH ORQALI RAG‘BATLANTIRISH

СТИМУЛИРОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА ПОСРЕДСТВОМ ФИНАНСИРОВАНИЯ И КРЕДИТОВАНИЯ

STIMULATING SMALL BUSINESS ACTIVITIES THROUGH FINANCING AND LENDING

Daniyarov Quatbay Dauirxanovich

Berdaq atındağı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti docenti,

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik biznes sub'ektlarini zarur mablag'lar bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan kafolat fondining ahamiyati haqida so'z boradi. Kichik biznes sub'ektlarining kafolat fondlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish sxemasi berilgan. Kafolat jamg'armasidan olinadigan mablag'lar kichik biznes sub'yektlarining faoliyat yo'nalishiga qarab tabaqalanishi lozimligi qayd etilgan. Mablag'lar va kafolat fondini ta'minlash barqarorligini ta'minlash bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilmoqda.

Kalit so'zlar: kafallik fondi, koeffitsientlar, kredit, ehtiyoj, iqtisodiy chegara, imtiyozlar, rag'batlantirish, moliyaviy-kredit qo'llab-quvvatlash, xarajatlar, daromadlar, foyda.

В данной статье говорится о значении гарантийного фонда, который призван обеспечить субъектов малого предпринимательства необходимыми средствами. Предложена схема обеспечения потребности субъектов малого предпринимательства в гарантийных фондах. Отмечается, что средства, полученные из гарантийного фонда, следует разделить по направлениям деятельности субъектов малого предпринимательства. Разрабатываются конкретные предложения по обеспечению стабильности финансирования и гарантийного фонда.

Ключевые слова: гарантийный фонд, коэффициенты, кредит, потребность, экономический лимит, льготы, стимулирование, финансово-кредитное обеспечение, расходы, доходы, прибыль.

This article talks about the importance of the guarantee fund, which is designed to provide small business entities with the necessary funds. A scheme for meeting the needs of small business entities for guarantee funds is provided. It is noted that the funds received from the guarantee fund should be divided according to the direction of activity of small business entities. Specific proposals are being developed to ensure the stability of funding and the guarantee fund.

Key words: guarantee fund, coefficient, credit, need, economic limit, lgoty, stimulation, financial-credit guarantee, expense, income, benefit.

Hozirgi vaqtda tadbirkorlik subyektlari faoliyati yanada faollashdi, ularning raqobatbardoshlik darajasi o'zining yuqori chegarasiga yetdi. Bunga ularning faoliyatini rag'batlantirish va kreditlash, qo'llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmining elementlari yordam berdi.

Moliyaviy va kredit qo'llab-quvvatlashning muhim vositasi bu garovsiz kreditlash texnologiyasi yoki kichik biznes uchun kafolat fondlari. Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda xuddi shunday qo'llab-quvvatlash tizimi bu yo'nalishda samaraliroq ishlaydi. O'zbekistonda bu borada ancha faol ishlar olib borilmoqda. Kichik biznesni kreditlashda kafolatlash ularning moliyaviy resurslarga kirishini soddalashtirish uchun foydalaniladigan innovatsion vositalardan biri hisoblanadi. Kafolat shartlari, agar kichik biznes kreditni to'lay olmasa va kreditor uchinchi

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

shaxsdan qarz talab qilsa, kreditorni qoplashni ta'minlaydi[4].

Shaffof kafolat sxemalari dunyoning ko'plab mamlakatlarida azaldan mavjud. Ularning Evropa iqtisodiyotidagi ahamiyati shundan dalolat beradiki, Evropa o'zaro kafolatlar assotsiatsiyasi (Association Europeene du Cautionnement Mutuel, AECM) 2012 yil holatiga ko'ra 25 milliard evrodan oshadi. O'rtacha, turli sxemalarda taqdim etilgan kafolat miqdori hali ham 25000 dan 200000 evrogacha o'zgarib turadi.

1-jadval

Ba'zi AECM a'zolari haqida statistika (01.01.2012, million evro)[5]

Bir mamlakat	Kafolat tashkilotlari	Kafolat doirasi	2011 yilda kafolat doirasi	Umumiy soni kichik korxonalar (ming)	Richag effekti
Frantsiya	Socama, Siagi, Oseo	16385,1	6011,5	347,4	34,6
Germaniya	VDB	5911	1150	41,2	n/d
Italiya	Assoconfidi, SGFA-ISMEA	34163,7	12600,9	1652,2	41,2
Gollandiya	Agentchap	2567,8	908,8	17,2	n/d
Portugaliya	SOGM/SCM	3240,1	728,5	55,9	4,4
Ispaniya	SGR/CESGAR	6200,3	1282,6	110,3	9,1
Turkiya	Kredi Garanti Fonu	2878,1	2381,3	739,4	3,5
Barcha AECM a'zolari uchun jami		78783,5	28407,2	3126,5	8,4

Kafolat sxemalaridan kichik korxonalarning 1/10 qismi foydalanadi. Ushbu turdagi xizmat talabdan ko'ra ko'proq. Kafolat sxemalaridan foydalanish, shuningdek, moliyaviy resurslardan foydalanish faoliyatida asosiy to'siq bo'lgan kichik korxonalar orasida keng tarqalgan. Shu bois kafillik jamg'armalari xizmatiga murojaat etayotgan kichik biznes sub'ektlari soni yil sayin ortib bormoqda.

Masalan, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sub'yektlarining investitsiya loyihalarini moliyaviy ta'minlashning hozirgi holatidan kelib chiqib, Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar tajribasidan foydalanish va Kafolat jamg'armasini quyidagi shaklda tashkil etish mumkin ko'rinadi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishni kafolatlash jamg'armasi – kichik biznes sub'yektlari, Savdo-sanoat palatasi, tijorat banklari tomonidan, ba'zan Iqtisodiyot va Moliya vazirligi va unga bo'ysunuvchi jamg'armalar bilan hamkorlikda tuziladigan jamg'arma. Kafolat jamg'armasi asosan o'z a'zolariga berilgan kreditlar bo'yicha jamoaviy kafolatlar berishga mo'ljallangan, ular o'z navbatida kapitalni shakllantirish va sub'ektni boshqarishda ishtirok etishni xohlaydi. Faoliyat mas'uliyatni o'zaro taqsimlashga, teng huquqli a'zolar tomonidan qaror qabul qilishga asoslanadi[4].

Biz ko'rib chiqayotgan fond bir vaqtning o'zida davom etayotgan operatsiyalarga texnik va shaxsiy baho berish qobiliyatiga ega, chunki u o'z a'zolari haqida to'liqroq tasavvurga ega va shuning uchun tavakkal qila oladi.

Eng muhimi, Kafolat jamg'armasi imtiyozli moliyaviy shartlarda bank kreditlari berish bo'yicha muzokaralar olib borish huquqiga ega, shuningdek, o'z mijozlariga turli moliyalashtirish manbalaridan moliyaviy resurslarni jalb qilish bo'yicha professional xizmatlar ko'rsatishi mumkin.

Kafolatlar portfeli asosan diversifikatsiyalangan, jumladan, iqtisodiyotning turli sohalaridagi mijozlar va turli investitsiya loyihalarini.

Jamg'armaning faoliyati kafolatlar berish bilan cheklanmaydi. Shuningdek, ushbu tashkilot o'z mijozlariga biznesni qo'llab-quvvatlash, konsalting xizmatlari, korxona rivojlanishini

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

monitoring qilish kabi xizmatlarni taqdim etadi.

Rivojlanayotgan xavfning oldini olish uchun kafolat sxemalariga bir nechta cheklovlar qo‘yiladi, ular orasida:

- kafolat sxemasi bo‘yicha majburiyatlarning maksimal umumiy miqdori;
- portfelning diversifikatsiyasini ta‘minlaydigan bitta mijozga berilishi mumkin bo‘lgan kafolatlarning maksimal miqdori;
- majburiyatning maksimal muddati (kafolatlarning muddati kredit berilgan davrga mos kelishi kerak).

Ko‘yidagi formulaga itibaringizni qaratamiz[4]:

$$MRPP_{ok} = \frac{\sum OSVK_r}{\sum MRPP_{ok}}$$

Bu yerda:

$OSVK_r$ - ajratilgan kreditning umumiy miqdori;

$MRPP_{ok}$ - foiz sifatida taqdim etilgan sug‘urta qoplamasining maksimal miqdori;

Qoplashning maksimal miqdoriga kelsak, eng to‘g‘ri variant - kafolat butun kredit summasini qoplamaydi va bank riskni taqsimlashda ishtirok etadi.

Bizningcha, kafillik ssudasini taqdim etishda nafaqat kichik tadbirkorlik sub‘ektining kafillikka bo‘lgan ehtiyojini hisobga olish, balki jamg‘armaning kafolat ehtiyojlari uchun mablag‘ ajrata olishi yoki yo‘qligini ham hisobga olish kerak. Buning uchun kichik biznes sub‘ektlari faoliyat yo‘nalishlarini hisobga olgan holda, qamrab olish imkoniyati koeffitsientlari doirasida farqlash zarur. Shu bilan birga, kredit iste‘molchisida nima borligiga alohida e‘tibor qaratish lozim, bu sub‘ektning o‘z mablag‘lari ko‘paytaptimi, innovatsion mahsulotlar (tovar, xizmatlar) ishlab chiqarishni maqsad qilganmi? Shundan keyingina jamg‘arma mablag‘larining kafolatlar bo‘yicha iqtisodiy chegaralarini belgilash mumkin bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, innovatsion kichik biznes sub‘ektlari uchun kafillik kreditiga bo‘lgan ehtiyoj 100% (ya‘ni, koeffitsient 1 ga teng bo‘lishi kerak) qoplanishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, kichik biznes yo‘nalishining muhimligini hisobga olgan holda, kafolat koeffitsientlarining mumkin bo‘lgan sxemasini belgilash zarur. Bu kafolat fondi iste‘molchilari uchun muhim. Agar kreditorlar tavakkalchilikdan butunlay xoli bo‘lsa, kredit arizasini ko‘rib chiqishda qat‘iylik darajasini pasaytirish va shu bilan qarz berish to‘g‘risida qaror qabul qilish jarayonida ularning javobgarlik darajasini pasaytirish xavfi mavjud yo‘qotishlar. Shuning uchun mumkin bo‘lgan zararlar kreditor va kafil o‘rtasida taqsimlanishi kerak.

Kafolat faqat moliyaviy ehtiyoji yirik korxonalarnikidek katta bo‘lmagan va kredit olishda qiynalmagan kichik korxonalarga berilishi kerak. Masalan, garov ta‘minotining etarli emasligi, kredit tarixining yo‘qligi yoki faoliyatning etishmasligi. Binobarin, kafillik sxemalari banklarning kichik biznes sub‘ektlariga berilgan kreditlar bo‘yicha risklarini kamaytirish orqali, aynan kreditorlar kichik biznes sub‘ektlarini zarur moliyalashtirishni ta‘minlay olmagan hollarda kreditlash jarayoniga turtki berishi mumkin. Aynan kafolat tufayli kreditlar uzoqroq muddatga yoki qulayroq shartlarda berilishi mumkin. Kafolat jamg‘armasi notijorat tashkilot bo‘lib, uning asosiy maqsadi foyda olish emas. Biroq, u oladigan xizmatlar uchun to‘lov - kafolat mukofoti - ma‘muriy xarajatlar bilan bir qatorda risklarni qoplashi kerak. Uning narxi qamrov hajmining yillik 1% dan va maksimal 3-4% gacha belgilanishi mumkin.

Shuningdek, u turli omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin - kafolat muddati, xavf omillarining tahlili, kafolat bilan qoplanadigan kredit ulushi, shu bilan birga tashkilotning rentabelligi va uning xizmatlaridan kichik biznes uchun mavjudligi o‘rtasidagi muvozanat muhim ahamiyatga ega. Kafolat jamg‘armasi kichik biznes sub‘ektlarining faqat professional menejerlar tomonidan boshqariladigan real biznes-rejalar bilan qo‘llab-quvvatlangan asoslangan investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Qarorlarni qabul qilish jarayonida investitsiya loyihalarini iqtisodiy maqsadga muvofiqligi uchun sinovdan o‘tkazilishi kerak. Ushbu ko‘rib chiqishdan maqsad kafolatlar faqat iqtisodiy jihatdan foydali va foydali loyihalar uchun taqdim etilishini ta‘minlashdan iborat. Kafolat uchun arizaga batafsil moliyaviy asoslash, moliyaviy hisobot, biznes-reja va mijoz haqida batafsil

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

ma'lumot ilova qilinadi.

2-jadval

Rivojlanish va barqarorligini tavsiflovchi Kafolat fondi ko'rsatkichlari[3]


No	Ko'rsatkichlar	Jamg'arma faoliyati natijalarini tavsiflovchi moliyaviy ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarning ma'nosi va mazmuni
1	Taqdim etilgan kafolatlar hajmining ishlash koeffitsienti	$K_{\text{of}} N_{\text{atija}} = \frac{\sum \text{Kafolatning umumiy miqdori}}{\sum O'z kapitali}$	Samaradorlik koeffitsientining o'sishi fondning o'z kapitalidan qanchalik barqaror foydalanilishini tavsiflaydi
2	Xarajat-daromad nisbati	$K_{\text{of}} Sh_{\text{iqim}} = \frac{\sum \text{Xarajatlar}}{\sum \text{Kafolatning umumiy miqdori}}$	Bu daromadning o'sishi va xarajatlarni kamaytirish qanchalik muhimligini anglatadi, bu xarajatlar va xavflarni minimallashtirish choralari qo'llash imkonini beradi.
3	Hosildorlik nisbati	$K_{\text{of}} D_{\text{aromad}} = \frac{\sum \text{Daromad}}{\sum \text{Kafolatning umumiy miqdori}}$	Daromadlar o'sishining barqarorligini yoki kafolat fondi daromadlarining beqarorligini anglatadi. Birinchisi, fondning moliya institutlari o'rtasidagi raqobatbardoshligini, mijozlarning ko'payishini tavsiflaydi
4	Xavf nisbati	$K_{\text{of}} R_{\text{isk}} = \frac{\sum \text{Kafolatning umumiy miqdori}}{\sum \text{Daromad}}$	Koeffitsientning pasayishi jamg'arma mablag'laridan samarali foydalanish va uning mablag'larini iste'molchilar o'rtasida samarali taqsimlashni anglatadi.
5	Kafolat nisbati	$K_{\text{of}} K_{\text{afolat}} = \frac{\sum \text{Kafolat asosida mablag}}{\sum \text{Kreditga bo'lgan talab}}$	Davlat mijozning ehtiyojlari uchun qancha pul ta'minlayotganligini anglatadi

Shu sababli, mumkin bo'lgan yo'qotishlarni minimallashtirish asosli qaror qabul qilishning zaruriy sharti bo'lib, Kafolat jamg'armasi yordamida arizaning moliyaviy tahlili va har bir loyiha bo'yicha tavakkalchilikni baholash hisobga olingan holda bank tomonidan baholanadi. Dasturli ko'rsatkichlar: qarz hajmi, aylanma mablag'lar, likvidlik, loyiha qabul qilishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi. Bundan tashqari, tadbirkorning loyihani amalga oshirish qobiliyati uning malakasi va professionalligi kabi sifat omillarini hisobga olgan holda baholanadi.

Jamg'arma faoliyati natijalarini tavsiflovchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarning maqbul qiymatlari kuzatilgan taqdirda barqaror bo'lishi mumkin (2-jadvalga qarang).

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

Shu sababli, Kafolat jamg‘armasining muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar fond mablag‘larining iqtisodiy jihatdan asoslangan yoki foydali loyihalarni ta‘minlash darajasi bo‘lishi mumkin.



Kichik biznes mijozlarining ehtiyojlari Kafolat ostida qoplangan mablag‘lar modeli[2]

Jamg‘arma, shubhasiz, kichik biznes sub‘yektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini va ulardan foydalanish samaradorligini yanada kengaytirish orqali ularga qulay shart-sharoitlar yaratishi mumkin.

Bugungi kunda, Kafolat jamg‘armasi tomonidan kichik tadbirkorlik sub‘ektlariga ishonch xati qaytarish va qoplash asosida tijorat banklari tomonidan kredit beriladigan muddatga taqdim etiladi. Buning uchun Kafolat jamg‘armasi, kredit beruvchi bank va qarz oluvchi o‘rtasida kafallik shartnomasi tuziladi, u qarz oluvchining kredit shartnomasi (lizing shartnomasi) bo‘yicha majburiyatlarining ta‘minoti bo‘ladi. Biroq ta‘minot kredit summasi umumiy miqdorining 50 foizidan va ekvivalenti 100000,0 ming AQSh dollariga teng summadan oshmaydi. Ya‘ni har qanday holatda ham bankka kreditni qaytarish ta‘minotining boshqa turlarini taqdim etish kerak.

Kafolat jamg‘armasi moliyaviy barqarorligini ta‘minlash uchun cheklov ham joriy qilindi - Kafolat jamg‘armasi tomonidan taqdim etiladigan ta‘minotning maksimal umumiy miqdori - uning mablag‘larining 5 karra miqdoridan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

Kafolat jamg‘armasining boshlang‘ich ustav fondi 100 mlrd so‘mni tashkil qiladi. Davlat raqobat qo‘mitasi 50% aksiyalar bilan uning asosiy aksiyadori bo‘ldi. TIF Milliy banki (20%), O‘zbekiston Banklar uyushmasi (5%), Savdo-sanoat palatasi (2%) uning boshqa yirik aksiyadorlari bo‘lishdi. Shuningdek, aksiyadorlar tarkibiga 15 ta tijorat banki va 3 sug‘urta kompaniyasi kirdi[1].

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kichik biznes sub‘ektlari faoliyatini rag‘batlantirishning hal qiluvchi omili uni turli fondlar va imtiyozli kreditlar hisobidan moliyalashtirishni kengaytirishdir. Kichik biznesni moliyaviy-kredit qo‘llab-quvvatlashni

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

yanada yaxshilash uchun innovatsion va investitsiya maqsadlarida uzoq muddatli kreditlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish zarur. Talab qilinadigan chegaralarda boshlang‘ich kapitalni shakllantirish, imtiyozli mikrokreditlashni kengaytirish ham byudjet, ham byudjetdan tashqari jamg‘armalar hisobidan zamonaviy moliyalashtirish vositalaridan foydalanishni taqozo etadi. Zamonaviy moliyalashtirish vositalari nafaqat innovatsion mahsulotlar (tovar, xizmatlar) va texnologik jihozlarni yaratish, balki kichik biznesni moliyalashtirishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish uchun ham zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-306-son Qarori, 14.09.2023.
2. Банковское дело: учебник / О.И. Лаврушин, И.Д. Мамонова, Н.И. Валенсева и др.; Под редакцией засл. деят. науки РФ, проф. О.И. Лаврушина.- 3-е изд., перераб. и доп.- М.: КНОРУС, 2005.- 768 с.
3. Банковское дело. Учебное издание. / Г.С. Сейткасимова.- Астана, 2007.
4. Daniyarov Q.D. Tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini tartibga solishda moliyaviy asoslarni takomillashtirish. Monografiya. T.: «LESSON PRESS», 2021.-123 b.
5. Donnes statistiques members AESM. Association Europeene du Cautionnement Mutual. www.aesm.be/stat_AECM_2011Final.xls.

УДК: 338.436

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА

INCREASING THE EFFICIENCY OF AGRICULTURAL PRODUCTION

Шамуратов Атамурат Шамунович

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети мустақил тадқиқотчиси

Исмаилов Куатбай Сарсенбаевич

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети профессор в.б.

Аннотация

Ушбу мақолада Қорақалпоғистон Республикасида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан самарадорлигини оширишнинг назарий ва амалий жиҳатлари кенг очиб берилган бўлиб, ишлаб чиқариш ҳолатлари ва бозор талаблари ҳисоб-китоб қилинган. Айрим қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари турларини ишлаб чиқаришда талабнинг қониқтирилмаслигининг омиллари аниқланган. Шунингдек, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан самарадорлигини янада ошириш бўйича айрим таклиф ва тавсиялар келтирилган.

Калит сўзлар: қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари, талаб, озиқ-овқат хафсизлиги, қишлоқ хўжалигини модернизациялаш, қишлоқ хўжалигини диверсификациялаш, экологик муаммолари, атроф-муҳитнинг экологик жиҳатдан бузилиши, аҳоли истеъмолини тўлиқ қондириш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини иссиқхоналарда етиштириш.

В данной статье широко раскрыты теоретические и практические аспекты повышения

социально - экономической эффективности производства сельскохозяйственной продукции в Республике Каракалпакстан, а также рассчитаны условия производства и требования рынка. Более того выявлены факторы неудовлетворенного спроса при производстве отдельных видов сельскохозяйственной продукции. Кроме того представлены некоторые предложения и рекомендации по дальнейшему повышению социально-экономической эффективности производства сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова: сельскохозяйственная продукция, спрос, продовольственная безопасность, модернизация сельского хозяйства, диверсификация сельского хозяйства, экологические проблемы, экологическая деградация окружающей среды, полное удовлетворение потребления населения, переработка сельскохозяйственной продукции, выращивание сельскохозяйственной продукции в теплицах.

This article widely covers the theoretical and practical aspects of increasing the socio-economic efficiency of agricultural production in the Republic of Karakalpakstan, and also calculates production conditions and market requirements. Moreover, factors of unmet demand in the production of certain types of agricultural products have been identified. In addition, some proposals and recommendations for further improving the socio-economic efficiency of agricultural production are presented.

Key words: agricultural products, demand, food security, modernization of agriculture, diversification of agriculture, environmental problems, environmental degradation of the environment, full satisfaction of population consumption, processing of agricultural products, growing agricultural products in greenhouses.

Қишлоқ хўжалиги иқтисодиётнинг реал секторининг бир тармоғи сифатида одамларнинг озиқ-овқатга бўлган эҳтиёжларини қондириш учун катта аҳамият касб этади.

Қишлоқ хўжалиги иқтисодиётнинг ўзига хос хусусиятлари шундан иборатки у кўп жиҳатдан объектив иқтисодий, табиий ва иқлимга алоқадор шарт-шароитлар, ишлаб чиқаришни ташкил этиш, ютуқлардан фойдаланиш, қишлоқ хўжалиги фанлари ва технологияси, самардорли ишга лаёқатлилиқ, одам, вақт ва об-ҳаво шароити ва бошқа омилларга кўпроқ боғлиқ.

Баршамизга малумки, бугунги кунда жаҳонда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига талабнинг тобора ошиб бориши озиқ-овқат ҳафсизлигини таъминлаш, катта захира таъминотини яратиш асосий муаммолардан ҳисобланади.

Республикамызда сўнги йилларда мазкур талаб ва муҳтожликларни ўз вақтида бартараф қилиш, мамлакатимизнинг бозор ва дўконларида тўқинлик ва фаровонлик, мўл озиқ-овқат захирасини таъминлаш мақсадида Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев томонидан қишлоқ хўжалиги ва саноатда модернизация ҳамда диверсификация ишларини олиб бориш, янги замонавий жиҳозлар билан таъминланган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишловчи саноат корхоналарининг ишлаб чиқариш тизимин такомиллаштириш, илғор технологияларни қўллаш орқали рақобатбардош, экспорт ва ҳосилдорликни қўпайтириш учун мўлжалланган тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январда бутун халқимизга ва Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномасида мазкур мавзу юзасидан “...қишлоқ хўжалигида фермер ва деҳқонларнинг манфаатдорлигини ошириш борасидаги ўрганиш ва изланишларимиз давом этмоқда. Соҳага илғор технологиялар ва кластер тизими жорий этилмоқда...” дея таъкидлаганди [1].

Кенг кўламли ислохотлар самараси улароқ, чиндан ҳам кейинги беш йилда мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги ва саноат йўналишлари жадал суръатларда ривожланиб, Ўзбекистоннинг иқтисодий қудрати ва салоҳияти тобора юксалиб бораётган замонавий давлат сифатида эътироф этилмоқда. Ушбу муваффақиятларда тадбиркорлар ва фермер хўжаликларида берилаётган имтиёзлар ва субсидиялар ҳисобидан қишлоқ хўжалиги ва

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

саноат йўналишларида юқори технологияларга асосланган тармоқлар энг муҳим аҳамият касб этади.

Қорақалпоғистонда айни пайтда ғоятда оғир экологик муаммо ҳукм сурмоқда. Атроф-муҳитнинг экологик жиҳатдан бузилиши ҳамон давом этиб, иқлим ўзгаришларининг олдиндан айтиб бўлмайдиган оқибатлари, тез-тез такрорланаётган қурғоқчилик ва сув ресурслари тақчиллиги, жумладан, суғориш учун сувларнинг тугаб бораётгани, ирригация, мелиорация ва ерларнинг ҳосилдорлик унумдорлигини қайта тиклашга йўналтириладиган инвестицияларнинг етарли эмаслиги мазкур муаммони янада кескинлаштирмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан Оролбўйидаги экологик вазиятни юмшатиш бўйича, жумладан Орол денгизининг суви қуриган тубида ўрмонзорлар барпо этиш ва ҳудудда энг долзарб муаммо - сув танқислиги шароитида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш вазифаларига диққат қаратилмоқда.

1-жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики ҳисобот йилида ўткан йилга нисбатан кўпчилик маҳсулот турлари бўйича ишлаб чиқариш ҳамжми кўпайган, лекин балиқ маҳсулотларини ишлаб чиқариш 12,7 фойзга камайган. Бунинг асосий сабабларидан бири кейинги йиллари республикада сув ресурсларининг камайиши сабаб бўлмоқда.

Ҳақиқатдан ҳам юқорида қайд этилган экологик муаммоларга қарамасдан 2022 йил Қорақалпоғистон Республикасида ҳар йили деҳқончиликда 91 минг тонна картошка, 315 минг тонна сабзавот, 173 минг тонна полиз, 65 минг тонна мева, 12 минг тонна узум, 16 минг тонна дуккакли экинлар етиштириладиган бўлса, чорвачилик маҳсулотларидан 121 минг тонна гўшт, 434 минг тонна сут, 11 минг тонна балиқ маҳсулотлари етиштирилди.

1-жадвал

2021 - 2022 йиллар учун Қорақалпоғистон Республикаси бўйича ишлаб чиқарилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари таҳлили (минг тонна) [2]

№	Маҳсулотлар тури	2021 йил	2022 йил	Ўзгариш, % да
1	картошка	89,4	91	101,8
2	сабзавот	301,5	315	104,5
3	полиз	164,7	173	105,0
4	мева	62,0	65	104,8
5	узум	11,1	12	108,1
6	дуккакли экинлар	14,8	16	108,1
7	гўшт	116,4	121	104,0
8	сут	418,8	434	103,6
9	балиқ маҳсулотлари	12,6	11	87,3


2021-2022 йилларда Қорақалпоғистон Республикаси бўйича ишлаб чиқарилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг графикдаги кўриниши.

Бу Қорақалпоғистонда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш, бу борада йилнинг тўрт мавсумида аҳоли истеъмолини тўлиқ қондириш имкони мавжуд дегани эмас. Маълумки, тиббий нуқтай назардан олиб қаралганда инсонда йил давомида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига зарурат тўғилади.

Табиийки, бугунги кунда Қорақалпоғистон аҳолисининг тез суръатда ўсиб бораётгани ҳисобга олинса, соҳа ходимлари олдида озиқ-овқат маҳсулотларини янада кўп етиштириш, айниқса, саноат усулида қайта ишлашни кучайтириш вазифаси юкланмоқда. Ҳеч шубҳасиз, нафақат ҳудудимиз, балки дунёда озиқ-овқат тақчиллиги ортиб, минтақамизда сув танқислиги жараёни кучайиб бораётган бир даврда соҳа олимлари ва қишлоқ хўжалиги ходимлари олдида ҳам долзарб вазифалар қўймоқда.

Ушбу ўринда Қорақалпоғистонда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш кўрсаткичлари тўғрисида статистик маълумотларни келтириб ўтиш жоиздир.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”



1-диаграмма. 2021-2022 йиллар учун Қорақалпоғистон Республикаси бўйича ишлаб чиқарилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари таҳлили (минг тонна) [3]

2-жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, 2022 йил қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига талаб сабзавот, полиз, дуккакли экинлар, гўшт, сут маҳсулотлари бўйича қониқтирилган, лекин картошка, мева, узум, балиқ маҳсулотлари бўйича талаб қониқтирилмаган.

2-жадвал

2022 йил учун Қорақалпоғистон Республикаси бўйича ишлаб чиқарилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига талаб (минг тонна) [3]

№	Маҳсулот тури	Ишлаб чиқарилган маҳсулот, минг тонна	Маҳсулотга бўлган талаб, минг тонна	Талабнинг қониқ-тирилиши, %да
1	картошка	91	103,2	88,2
2	сабзавот	315	233,9	134,7
3	полиз	173	33,8	511,8
4	мева	65	143,5	45,3
5	узум	12	34,3	35,0
6	дуккакли экинлар	16	1,1	1454,5
7	гўшт	121	84	144,0
8	сут	434	227,2	191,0
9	балиқ маҳсулот-лари	11	13,9	79,1

2022 йил учун Қорақалпоғистон Республикаси бўйича ишлаб чиқарилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига талабнинг графикадаги кўриниши.

Маълумки, полиз экинларидан - картошка, сабзи, қовоқ, ошқовоқ, лаблаг, қовун, тарбуз, турп, карам, пиёз, саримсоқ пиёз в.х. ҳамда мева-сабзобатлардан – олма, нок, ўрик, олча, узум, беҳи, болгар қалампери, помидор, редиска ва ҳоказаларга аҳолида доимий талаб тўғилади. Лекин улар *биринчидан*, аҳолини арзон ва сифатли маҳсулотлар билан таъминлаш стандартларига жавоб бермайди.

Яъни, асосан қиш ва эрта баҳор даврида бу маҳсулотларнинг мавсумдаги нархига нисбатан 3-4 ва ундан юқори нархда харид қилиш мумкин, *иккинчидан*, маҳсулотларнинг табиий қуёш нурида, зарурли минерал озиқалар билан озиқланиб, инсонлар саломатлиги

B.C.Maksyutov maishiy xizmatlar bozori tushunchasiga quyidagi ta'rifni bergan: «maishiy xizmatlar bozori – maishiy xarakterdagi xizmatlar aylanish sohasi bo‘lib, iste‘molchilarga (mijozlarga) maishiy xarakterdagi xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish maqsadida ijtimoiy zaruriy mehnat sarflarini aniqlash va baholash, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishning shakli sifatida xizmat ko‘rsatuvchilar iste‘molchi talabiga individual yondashgan holda xizmatlar ko‘rsatishga tayyorgarlik ko‘rishi (talab va uning imkoniyatlarini hisobga olgan holda zarur resurslarni, texnologiyani tayyorlash) bo‘yicha qaror qabul qiladilar [2]. Maishiy xizmatlar bozorining o‘ziga xos xususiyati uning ijtimoiy ahamiyati bilan belgilanadi, ya'ni bo‘sh vaqt paydo bo‘lishi natijasida aholining maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalariga murojaat qilishi o‘sib boradi.

Maishiy xizmatlarning mohiyatini yoritish va rivojlanish tendentsiyalarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarimiz sohaning muhim jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Shunday qilib, maishiy xizmatlar, shu qatorda aholiga maishiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida xizmatlarning almashtirib bo‘lmazligi, maishiy xizmatlarning insonlarga, narsa yoki buyumlarga, jamoaga, korxona va tashkilotlarga yo‘naltirilganligi, maishiy tavsifdagi xizmatlar muayyan iste‘molchiga uning individual hohish-istaklari va talablari asosida ko‘rsatilishi bilan o‘ziga xos jihatlarga ega.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarga tayansak, maishiy xizmatlar ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarining eng murakkab tarmoqlaridan biri sifatida olib qaralishini yana bir bor asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Артикова Ш.И. Маиший хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланишининг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. // дисс. PhD. – Т.: СамИСИ. 2023. 22-б.
2. Максютов В.С. Бытовые услуги: реалии и тенденции развития: Монография. - Уфа: РИО РУНМЦ МО РБ, 2007.
3. Свириденко Ю.П.. Сфера услуг: Проблемы и перспективы развития. -М.: Изд «Кандир», 2001. - с. 5.
4. Turdimuratovna, U. S. (2020). Methods of external quality control of audits. European Journal of Molecular and Clinical Medicine, 7(7), 733-739.

UDK: 338.48

HUDUDLARNING IJTIMOIIY IQTISODIY RIVOJLANISH SALOHIIYATINI BAHOLASHNING XORIJIY MEZONLARI

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНОВ ЗАРУБЕЖНЫЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ПОТЕНЦИАЛА

SOCIAL ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS FOREIGN CRITERIA FOR ASSESSING THE POTENTIAL

Embergenov Alisher Jumamuratovich

QQDU Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada hudud iqtisodiy salohiyatini baholashning xorijiy mezonlari va hudud iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishni aniqlashda tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Shu bilan birga davlatimiz tomanidan qabul qilingan normativ-huquqqiy hujjatlarning amaliyotga tadbiiq qilinishi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy salohiyat, iqtisodiy salohiyat indeksi, iqtisodiy salohiyatni baholash usullari, baholash omillari.

В данной статье представлены зарубежные критерии оценки экономического потенциала территории и результаты исследований по определению эффективного использования экономического потенциала территории. Вместе с тем, приведено практическое применение нормативных правовых актов, принятых нашим государством.

Ключевые слова: экономический потенциал, индекс экономического потенциала, методы оценки экономического потенциала, факторы оценки.

This article presents foreign criteria for assessing the economic potential of the territory and the results of research to determine the effective use of the economic potential of the territory. At the same time, the practical application of regulatory legal acts adopted by our state is given.

Keywords: economic potential, economic potential index, methods of assessing economic potential, evaluation factors.

Jahon hamjamiyatining barqaror rivojlanishni taminlash muammolarini hal qilish talablari XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida va XXI asr boshlarida sezilarli darajada oshdi. Nafaqat rivojlangan mamlakatlar, balki rivojlanayotgan davlatlar ham mintaqa iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga erishish maqsadiga intilmoqda. Shunga binoan ko‘pgina mamlakatlarda hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish bo‘yicha milliy dasturlar qabul qilinmoqda. O‘zbekiston ham rivojlanayotgan mamlakat sifatida Markaziy Osiyodagi geografik joylashuvi, aholisi va boshqa tabiiy-iqtisodiy resurslarning salohiyatni hisobga olgan holda mamlakatda barqaror rivojlanishni taminlash muammosini hal qilish alohida ahamiyatga ega.

Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda mavjud barcha omillaridan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati tom ma‘noda ushbu omillarning o‘zagini tashkil etadi. Shu bois iqtisodiy o‘shish darajasi va imkoniyatlari ko‘p jihatdan iqtisodiy salohiyatning milliy iqtisodiyotning barcha daraja (mikro, mezo va makro daraja) laridagi holatiga bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishishga qaratilgan strategik dastur va rejalar bevosita mamlakat iqtisodiy salohiyati, uning xususiyatlari, hozirgi holati, kelajak imkoniyatlariga asoslanib ishlab chiqiladi. Mintaqa iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatidan samarali foydalanish, barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadlarini belgilashda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi «2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 83-sonli qarori qabul qilindi [4]. «Mamlakatning barqaror innovatsion rivojlanishi uning iqtisodiy subektlari–hududiy byudjetga investitsiyalar oqimini taminlaydigan mintaqalar va yirik shaharlarning samarali ishlashi bilan belgilanadi, bunda yuqori bandlik, ijtimoiy barqarorlik, munosib hayot sifatini taminlaydi. Davlat siyosatining innovatsion yo‘nalishi uzoq muddatli hududiy rejalar va strategiyalarni ishlab chiqish jarayonini uslubiy qo‘llab-quvvatlashni, ushbu yo‘nalishda hududiy boshqaruvni taminlaydigan hujjatlarning strategik qoidalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Amaldagi hududlarni strategik boshqarish usullarining mukammallik darajasi umuman milliy iqtisodiyotda samarali o‘zgarishlarga erishishga bog‘liq» [5]. Shunga ko‘ra, mamlakatimizning rivojlanish darajasi uning ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik taraqqiyoti, shuningdek undagi ishlab chiqilgan hududiy barqaror rivojlanish strategiyalarining qay darajada mos bo‘lganligi bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi [1] PF-60-sonli farmonida viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali va optimal foydalanish masalalari iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilab qo‘yilgan. Mintaqa imkoniyatlari, resurslar va ulardan samarali foydalanish darajasini aniqlash, strategik vazifalarga erishish yo‘nalishlarini o‘zida mujassamlashtirgan hududiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqishda mavjud va kelajakdagi salohiyatni hisobga olish va uni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shuning uchun hududlar salohiyatini baholash dolzarb masalalardan biridir.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

Amalga oshirilgan ilmiy adabiyot tahlili shuni ko‘rsatdiki, mintaqa iqtisodiy salohiyatini baholash bo‘yicha boy xorijiy tajriba to‘plangan bo‘lib, baholash metodologiyasi bo‘yicha turlicha qarashlar shakllangan. Jumladan, S. Chernitskiy mintaqa iqtisodiy salohiyatini baholashda 12 ta ko‘rsatkichni taklif qilgan (aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot, asosiy kapitalga investitsiyalar, tashqi va chakana savdo aylanmasi, moliyaviy ta‘minlanganlik darajasi, kichik tadbirkorlikda bandlik darajasi, ishsizlik darajasi, aholi daromadlari, qashshoqlik darajasi, asosiy fondlar amortizatsiyasi, avtomobil yo‘llarining zichligi, ijtimoiy infratuzilma darajasi) [2]. E. Andrianova va G. Konovalova hududiy dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish maqsadida olib borgan tadqiqotlarida iqtisodiy salohiyatni baholashning integral usulidan foydalanishgan hamda moliyaviy, ijtimoiy-demografik salohiyatni baholashga alohida e‘tibor qaratishgan. Bundan tashqari qator xorijlik olimlar, shu jumladan Ye. Joglina, S. Kazantsev, L. Simkiv va boshqalar ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borishgan[4]. Ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilganligiga qaramay, ushbu yo‘nalishda ilmiy jihatdan hal bo‘lishi lozim qator muammolar mavjud. Jumladan hududlar iqtisodiy salohiyatini baholash bo‘yicha mavjud turli yondashuvlar, xorij tajribasi va amaliyotni ilmiy tadqiq qilish – sohadagi mavjud muammolarni xal qilishga amaliy hissa qo‘shishi aniq. Bunda mavjud turli baholash usullarini qiyosiy taqqoslagan xolda, ularning eng maqbullarini O‘zbekiston sharoitiga moslagan xolda foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi. Iqtisodiy salohiyatning ko‘p tomonlamaligi sababli uni baholashda ham ko‘plab metodlar mavjud. Iqtisodiy salohiyatni baholovchi ko‘rsatkichlar quyidagi metodlarga asoslanib hisoblanadi:

- empirik tadqiqotlar usuli (masalan mintaqa raqobatbardoshligini aniqlashga xizmat qiluvchi tadqiqot);
- amaliy statistik usul (masalan mintaqa iqtisodiy salohiyatini taqqoslama va normallashtirilgan qiymatlarda hisoblash);
- klaster tahlili (tarmoq xususiyatidan kelib chiqib ko‘rsatkichlarni klaster guruhlariga ajratib hisoblash).

Iqtisodiy salohiyatni baholash va shu orqali hududlar indeksini shakllantirish bo‘yicha ham qator tadqiqotlar o‘tkazilgan. Jumladan, AQSh shtatlari iqtisodiy salohiyatini baholash maqsadida «Shtatlar rivojlanish kartasi» (The Development Report Card for the States (DRC), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan qo‘llaniladigan «Hududiy kapital kontseptsiyasi», Yevropa Ittifoqi hududlari iqtisodiy salohiyat indeksi (Economic Potential Index of European Regions) kabi salohiyatni aniqlashga xizmat qiluvchi yondashuvlar mavjud. Iqtisodiy salohiyatni baholash nazariya va amaliyot bo‘yicha to‘plangan xorij tajribada keng turdagi umummetodologik yondashuv va alohida xususiyat, mintaqa rivojlanish darajasi, foydalanish samaradorligi va omillar ta’siri bo‘yicha xususiy metodologik yondashuvlar ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga barcha mamlakatlar va hududlar uchun umumqabul qilingan yagona metodologik yondashuv mavjud emas. Aksincha iqtisodiy salohiyatni baholashda qo‘llaniladigan ayrim metodlar birbiridan keskin farq qiladi. Shu bois iqtisodiy salohiyatni baholash bo‘yicha turli metodlarni qo‘llashda turli natijalar olish bilan bog‘liq muammolar mavjud. Xorij tajribasiga asosan iqtisodiy salohiyatni baholashning quyidagi keng qo‘llaniladigan metodlarini keltirish mumkin:

- resurs bo‘yicha kompleks baholash;
- reyting usuli;
- integral usuli.

Evropa mamlakatlarida iqtisodiy salohiyatni baholashda «Iqtisodiy salohiyat indeksi» ko‘rsatkichidan foydalaniladi.

Mazkur ko‘rsatkich uch o‘lcham orqali aniqlanadi: 1) natija indeksi o‘lchami; 2) jozibadorlik indeksi o‘lchami 3) raqobatbardoshlik indeksi o‘lchami. Iqtisodiy salohiyatni baholashning mazkur metodida yuqorida keltirilgan uch indeks va barcha subindekslar bir xil usulda normaga keltiriladi. Normaga keltirilish quyidagicha amalga oshiriladi. Dastlab barcha o‘zgaruvchilar bo‘yicha indeks miqdorlari aniqlanadi va uning o‘rtachasi hisoblanadi. Bu o‘rta qiymat 100ga teng deb olinadi. Keyingi bosqichda tegishli indekslar qatori uchun o‘rtacha chetlashish miqdori hisoblab chiqiladi. Chetlashishning normalashgan qiymati esa 10ga teng deb olinadi. Iqtisodiy salohiyatni baholashning xorij tajribasiga tahlilli xulosa sifatida ularni

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

quyidagicha tasniflash imkonini berdi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, iqtisodiy salohiyatni baholashning eng samarali va sifatli metodlaridan biri bu barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga xizmat qiluvchi omil modeli metodidir. Unga ko‘ra mintaqaning iqtisodiy salohiyati ko‘plab omillardan tashkil topgan tizimning mavjud va zaxiradagi resurslardan iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda foydalanish xususiyatini anglatadi.

1-jadval

Iqtisodiy salohiyatni baholash bo‘yicha guruhlanishi va tasnifi [5]

Guruhlash belgisi	Salohiyatni baholash tasnifi
Baholash modeliga ko‘ra	– Resurs-zaxira modeli – Tadbirkorlik-ishlab chiqarish modeli
Baholash mohiyatiga ko‘ra	– Mutlaq baholash – Tarkibiy baholash
Baholash usuliga ko‘ra	– Miqdoriy baholash – Sifat-ekspert baholash
Baholash metodiga ko‘ra	– Integral baholash – Vaznli baholash – Kompleks baholash
Baholash ko‘rsatkichlariga ko‘ra	– Moddiy kattalikda baholash – Qiymat kattalikda baholash
Baholash yo‘nalishiga ko‘ra	– Ichki baholash – Tashqi baholash
Baholash maqsadiga ko‘ra	– Raqobatbardoshlik darajasini aniqlash – Muammoli nuqtalarni aniqlash
Baholash natijalarini qo‘llash bo‘yicha	– Kredit jozibadorligi nuqtai nazardan – Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash loyiqligi nuqtai nazardan – Rivojlanishni boshqarishga yondashuv nuqtai nazardan

Iqtisodiy salohiyatni omilli metod bo‘yicha hisoblashda keltirilgan omillardan foydalanish taklif etiladi. Ushbu metod bo‘yicha mintaq iqtisodiy salohiyati investitsion, moliyaviy, xo‘jalik, mehnat, bozor va innovatsion omillar yig‘indisi sifatida qaraladi. Har bir omil guruhi xususiy ko‘rsatkichlardan tashkil topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktyabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/4013356>
2. Гущина Е.Г. Стратегическое планирование устойчивого территориального развития // Научное обозрение. Реферативный журнал. – 2016. – № 4. – С. 130-154; URL: <https://abstract.science-review.ru/ru/article/view?id=1802> (дата обращения: 02.10.2022)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni <https://lex.uz/docs/5841063>
4. Черницкий С.В. Комплексная методика оценки экономического потенциала регионов. Журнал «Историческая и социально-образовательная мысль». 2014, № 5(27). С. 208-2013.
5. Черницкий С.В. Комплексная методика оценки экономического потенциала регионов. Журнал «Историческая и социальнообразовательная мысль». 2014, № 5(27). С. 208-2013.
6. Чаленко А.Ю. Методика определения экономического потенциала // Экономика Украины. –2013.– №. 8.

QORAQALPOG‘ISTONDA INVESTITSIYA MUHITIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ СРЕДУ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

ANALYSIS OF FACTORS INFLUENCING INVESTMENT ENVIRONMENT IN KARAKALPAKSTAN

Sitmuratov Tengel

Qoraqalpoq davlat universiteti

«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası dotsenti, i.f.n

Matekeev Abil Amaniýazovich

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Otepova Aygul Maqsetovna

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida investitsiya faolligiga ta’sir etuvchi omillar, investitsiya faolligining hozirgi holati, tanlangan omillar ta’sirining ko‘rsatkichlari va tanlangan omillarning samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri miqdoriy tahlili, shuningdek, olingan natijalar umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: investitsiyalar, investitsiya muhiti, investitsiya loyihalari, investitsiya muhitining jozibadorligi, yalpi hududiy mahsulot.

В данной статье проведен анализ факторов, влияющих на инвестиционную деятельность в Республике Каракалпакстан, текущего состояния инвестиционной деятельности, показателей влияния выделенных факторов и количественный анализ влияния выделенных факторов на показатели эффективности, а также обобщены полученные результаты.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная среда, инвестиционные проекты, привлекательности инвестиционной среды, валовой региональный продукт.

The article considers the analysis of factors affecting investment activity in the Republic of Karakalpakstan, the current state of investment activity, indicators of influence of the selected factors and the logical analysis of influence of the selected factors on the performance indicators, and the results are summarized.

Keywords: investment, investment environment, investment projects, attractive investment environment, gross regional product.

Bugungi iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi davrida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda faol investitsiya faoliyatini ta’minlash, bu borada investitsiya muhitini yaxshilash muhim vazifalardandir. Ta’kidlash lozimki, mamlakatning iqtisodiy tarmoqlariga to’g’ridan to’g’ri investitsiyalarni jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini tashkil etish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini qo’llab quvvatlash, iqtisodiy hududlar infratuzilmasini yaratish borasida keng ko’lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to’g’risida” 2018-yil 2-avgustdagi PF-5495-

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

son Farmonida ham investitsion muhitni yaxshilash borasidagi vazifalar belgilab qo‘yilgan. Hozirgi kunda respublikamizda investitsion muhitni yaxshilash borasida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1]. Xususan, O‘zbekistonda iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va uning jozibadorligini ta‘minlash borasida qator soliq imtiyozlari joriy etilganini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz.

Bugungi iqtisodiy munosabatlarning globallasuvi davrida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda faol investitsiya faoliyatini ta‘minlash, bu borada investitsiya muhitini yaxshilash muhim vazifalardandir. Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o‘shidagi tendensiyalarini kuzatadigan bo‘lsak ham iqtisodiy o‘shishning asosiy omili sifatida investitsiya muhitini asosiy omillaridan biri ekanligini ko‘ramiz.

Ta‘kidlash lozimki, mamlakatning iqtisodiy tarmoqlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini tashkil etish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab quvvatlash, iqtisodiy hududlar infratuzilmasini yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 2-avgustdagi PF-5495-son Farmonida ham investitsion muhitni yaxshilash borasidagi vazifalar belgilab qo‘yilgan. Hozirgi kunda respublikamizda investitsion muhitni yaxshilash borasida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekistonda iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va uning jozibadorligini ta‘minlash borasida qator soliq imtiyozlari joriy etilganini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan professor G.P. Podshivalenkoning ta‘kidlashicha, “Investitsion muhit - bu mamlakat, mintaq, iqtisodiy hudud, sanoatdagi investitsiya muhitining asosiy xarakteristikasi. Faqatgina investitsiya muhitining reyting bahosini hisobga olgan holda, investorga ma‘lum bir ob‘ekt yoki investitsiya loyihasining investitsion jozibadorligini baholashga kirishishi tavsiya etiladi.” [2].

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlaridan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiev, N.Muminovlar investitsiya muhiti to‘g‘risida quyidagilarni ta‘kidlab o‘tadilar: “Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo‘yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, iuridik va ijtimoiy omillar yig‘indisidir.”[3].

D.G‘ozibekov va T.Qoralievlar tomonidan esa quyidagi fikrlar bildirilgan: “Investitsiya iqlimi juda keng ma‘noda ishlatiladigan tushuncha bo‘lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma‘lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o‘z kapitalini kiritmoqchi bo‘lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi”[4].

Sh.I.Musatafakulovning tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, Investitsion muhit jozibadorligini aniqlashning muhim shartlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: mintaqalarning tabiiy sharoiti, shakllangan ishbilarmonlik muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘muriy-boshqaruv tamoyillari, aholining tadbirkorlik subyektlarini boshqarishga tayyorligi, tavakkalchilikni anglash va mehnat resurslarining malakasi va turli institutsional tizimlarning mavjudligi hamda ularning rivojlanishi. [5] Fikrimizcha investitsion muhit mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, siyosiy, ekologik shart-sharoitlari bilan ta‘minlangan iqtisodiy hududga jalb etiladigan investitsiyalarning samaradorligini ta‘minlovchi omillar majmuasi. Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, investitsion muhit yaxshi rivojlanishida investitsion jozibadorlik va investitsion faollikning uyg‘unlashuvi hisoblanadi.

Investitsiya muhiti ob‘ektiv kategoriya bo‘lib, har bir alohida olingan vaqt doirasida investorlar uchun haqiqatda mavjud bo‘lgan shart-sharoitlar majmuasini aks ettiradi. Davlat hokimiyatining ta‘sirchanligi investitsiya muhitini aniqlovchi omillardan biridir. SHundan kelib chiqib, har bir kapital jalb qiluvchi mamlakat ma‘lum bir investitsiya tizimiga egaligini ta‘kidlash mumkin. Bu tizim huquqiy me‘yorlar va muassasalardan iborat xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi va investitsiya muhitini o‘z ichiga oladi.

Xorijiy kapitalni qabul qilish tizimi investitsiya muhitining komponenti bo‘lib xizmat qiladi

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

va unga nisbatan mustaqil ravishda tashkil etiladi. Chunki u investitsiya muhitini o‘zgartirishga qodirdir. Xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi qabul qiluvchi tomonni xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga qulay ravishda kirib kelishini namoyon etsa, investitsiya muhiti kirib kelgan kapitalni mamlakat ichida optimal ravishda o‘tib borish vaziyatiga baho beradi. Investitsiya muhiti iqtisodiyotda yangi tushuncha emas, ammo mustaqil O‘zbekiston sharoitiga nisbatan ishlab chiqilmagan. Bu sharoitni yaratishga urinishlar bo‘lmoqda, xolos.

Biron mamlakatning investitsion muhiti tahlil qilinganda, amaldor nuqtai nazari emas, balki o‘z mablag‘ini daromad keltiruvchi loyihaga joylashtirmoqchi bo‘lgan xorijiy investorlarning fikrlari ahamiyatlidir. Investorlarning fikricha investitsiya muhiti bir qator zaruriy omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning mavjudligi investitsiya muhitining eng qulay bo‘lishini ta‘minlaydi.

Qoraqalpog‘iston respublikasining investitsiya muhiti borasidagi ko‘rsatkichlar tahlili doiraisda mazkur tadqiqot ob‘ekti bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va tendentsiyalari quyidagi jadvalda ko‘rib chiqilgan (1-jadval).

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, 2017 yilda Qoraqalpog‘istonga jami moliyalashtirish manbalari hsiobidan 2822,0 mlrd. so‘m miqdorida asosiy kapitalga investitsiya kiritilgan bo‘lsa, 2021 yilda ushbu ko‘rsatkich 8110,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan. 2022 yilning 9 oyi davomida esa 7059,0 mlrd. so‘mlik investitsiyalar asosiy kapitalga kiritilgan.

Mazkur ko‘rsatkich 2017 yilga nisbatan 2021-2022 yillarda 280 foizdan yoki salkam 3 barobarga ortiqqa o‘sganligini ko‘ramiz. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmida yuqori ulush respublikaning eng rivojlangan hududi, poytaxt – Nukus shahri hissasiga to‘g‘ri kelgan, albatta.

Nukus shahrida 2017 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1087,7 mlrd. so‘mdan iborat bo‘lgan. Amalga oshirilgan islohotlarning ijobiy samarsi natijasida shaharning investitsiya muhiti yanada yaxshilangan. Natijada, 2021 yilda umumiy qiymati 1681,8 mlrd. so‘mlik, 2022 yilning 9 oyi davomida 1629,9 mlrd. so‘mlik investitsiyalar jalb etilgan. Hududlar kesimida, shuningdek Qorao‘zak tumanining ulushi 2022 yilda 15 foizdan ortiq bo‘lgan.

1-jadval

**Qoraqalpog‘iston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m
[6]**

Hududlar nomi	2017	2018	2019	2020	2021	2022 (9 oy)	2022 yilda ulushi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2822,0	6757,8	8750,6	7089,8	8110,7	7059,0	100
Nukus sh.	1087,7	1401,7	1620,7	1248,5	1681,8	1629,9	23,1
Tumanlar							
Amudaryo	90,3	134,5	210,8	317,1	449,2	413,6	5,9
Beruniy	93,0	281,2	249,2	383,6	425,4	382,0	5,4
Bo‘zatov	-	-	29,9	103,6	99,5	86,2	1,2
Qorao‘zak	55,9	278,0	208,0	198,4	308,8	1063,1	15,1
Kegeyli	48,9	100,5	111,4	82,4	139,4	130,7	1,9
Qo‘ng‘irot	530,6	812,7	839,2	948,6	1 071,1	869,8	12,3
Qonliko‘l	46,9	73,8	358,4	68,4	158,5	160,4	2,3
Mo‘ynoq	382,4	703,8	1567,2	1329,3	1 449,5	737,1	10,4
Nukus	56,3	117,5	193,9	130,7	182,0	171,9	2,4
Taxiatosh	30,8	2144,6	1517,1	565,4	312,7	164,7	2,3
Taxtakopir	19,9	86,4	44,2	108,1	87,9	72,7	1,0
To‘rtko‘l	66,9	153,4	701,9	771,9	774,1	428,2	6,1
Xo‘jayli	75,5	124,1	278,0	125,7	238,2	161,9	2,3
Chimboy	33,3	108,0	167,3	167,0	207,4	202,4	2,9
Shumanay	48,9	64,6	229,3	131,4	90,8	102,2	1,4
Ellikqal‘a	142,0	158,2	407,5	409,7	434,4	282,2	4,0
Bo‘linmaydigan hajm	12,7	14,8	16,6	-	-	-	5,9

Ushbu tuman iqtisodiyoti bo‘yicha asosiy kapitalga 2017 yilda jami 55 mlrd so‘mdan ortiq

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

investitsiyalar kiritilgan bo‘lsa, 2021 yilda 308,8 mlrd. so‘m, 2022 yilning 9 oyi davomida 1063,1 mlrd. so‘mlik investitsiyalar kiritilgan. Bundan tashqari, investitsion faol hududlar – Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot tumanlari ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida sezilarli ulushga ega.

Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, kiritilgan investitsiyalar hajmi qanchalik yuqori bo‘lmasin, aholi sonidagi farqlar ko‘rsatkichlarda muhimdir (2-jadval).

2-jadval

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, ming so‘m[6]

	2017	2018	2019	2020	2021	2022 yil yanvar- sentabr
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1528,8	3641,1	4644,4	3710,0	4189,2	3602,5
Nukus sh.	3438,7	4478,2	5107,8	3880,9	5152,6	4919,6
Tumanlar						
Amudaryo	475,0	695,4	1068,7	1583,1	2211,6	2006,8
Beruniy	510,2	1513,6	1314,4	1988,8	2170,2	1921,6
Bo‘zatov	-	-	1392,1	4797,8	4584,6	3934,2
Qorao‘zak	1081,9	5325,1	3954,7	3742,6	5783,1	19760,3
Kegeyli	552,7	1128,4	1543,5	1132,5	1898,4	1771,2
Qo‘ng‘irot	4210,8	6369,1	6500,2	7252,4	8102,0	6520,6
Qonliko‘l	949,7	1475,9	7082,9	1332,1	3043,1	3050,0
Mo‘ynoq	12455,8	22631,6	49752,8	41410,8	44326,4	22200,8
Nukus	1180,4	2418,1	3900,6	2578,8	3533,3	3292,6
Taxiatosh	431,3	29621,2	20696,7	7609,5	4164,4	2172,9
Taxtakopir	503,4	2172,1	1105,4	2682,9	2171,2	1785,5
To‘rtko‘l	326,8	736,5	3306,4	3573,7	3530,0	1925,1
Xo‘jayli	634,4	1030,6	2280,5	1017,6	1906,9	1283,0
Chimboy	293,5	943,1	1496,2	1480,6	1824,1	1769,6
Shumanay	891,0	1165,7	4101,6	2329,0	1599,3	1786,9
Ellikqal‘a	938,7	1024,7	2585,7	2552,8	2660,1	1703,4

Aholi jon boshiga hisoblanganda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 2017 yilda 1528,8 ming so‘m, 2018 yilda 3641,1 ming so‘m, 2019 yilda 4644,4 ming so‘m, 2020 yilda 3710,0 ming so‘m, 2021 yilda 4189,2 ming so‘m, 2022 yilda 3602,5 ming so‘mni tashkil etgan.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi bo‘yicha ma‘lumotlar quyidagi jadvaldan o‘rin olgan (3-jadval).

3-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi [6]

Yillar	Moliyalashtirish manbalari, %				
	Korxonalar va aholining o‘z vositalari	Qabul qilingan mablag‘lar	ulardan:		
			davlat byudjeti	banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	CHet el investitsiyalari va kreditlari
2017	62,8	37,2	8,4	15,2	13,6
2018	37,9	62,1	13,9	19,5	28,7
2019	34,3	65,7	19,3	9,5	36,9
2020	39,1	60,9	14,3	7,7	38,9
2021	39,9	60,1	16,1	6,2	37,8
2022	42,0	58,0	15,9	6,8	35,3

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

3-jadvalga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tarkibida Korxonalar va aholining o‘z vositalari etakchi ulushga ega. Ya‘ni 2017 yilda asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning moliyalashtirish tarkibida 62,8 foizi korxonalar va aholining o‘z vositalarini tashkil qilgan. Qolgan 37,2 foizi “qabul qilingan mablag‘lar”ni tashkil etib, ulardan davlat byudjeti mablag‘lari 8,4 foizni, banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari 15,2 foizni, chet el investitsiyalari va kreditlari 13,6 foizni tashkil etgan. Shuningdek, 2022 yilda esa qabul qilingan mablag‘lar 58 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ulardan 15,9 foizi markazlashgan investitsiyalar hisobiga, ya‘ni davlat byudjetidan ajratilgan moliyaviy resurslarni tashkil etgan. Qolaversa, ushbu yilda banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari 6,8 foizni, chet el investitsiyalari va kreditlari 35,3 foizni tashkil etgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tarkibining tahlidan ma‘lum bo‘ladiki, hududga markazlashgan investitsiyalarning ulushi yilga-yilga tobora ortib bormoqda. Shu bilan bir qatarga 2017 yilga nisbatan 201-2022 yillarda investitsiya muhitining bir qadar yaxshilanib boraishi natijasida chet el investitsiyalari va kreditlarining ham kirib kelishi jadallashmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 01.08.2018 йилдаги ПФ-5495-сон
2. Подшиваленко Г.П. (2010) Инвестиционный климат и инвестиционная привлекательность // Финансовая аналитика: проблемы и решения. № 15. С. 7.
3. Вахобов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. (2010) Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. Т.: Молия, 180-бет.
4. Ғоziбеков Д.Ғ., Қоралийев Т.М. (1993) Инвестиция фаолиятини ташкил этиш ва давлат томонидан тартибга солиш. Тошкент: “Иқтисод-молия”. 232-б.
5. Мустафакулов Ш.Э. Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибadorлигини оширишнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. -Т.: Ўз.Р.Банк молия академияси. 2017 йил.-52 б.
6. Қорақалпоғистон Республикаси статистика бошқамаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисоб-китоб қилинган:
<http://www.qrstat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>
7. Turdimuratovna, U. S. (2020). Methods of external quality control of audits. European Journal of Molecular and Clinical Medicine, 7(7), 733-739.
8. Utegenova, S. T. (2021). Audit quality control in Uzbekistan and all over the world. ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (103), 328-332.

AGROBIZNESTE INNOVACIYALIQ SIYASAT HÁM INVESTICIYALIQ PROCESLERDÍŇ ÓZGESHELIKLERI

ОСОБЕННОСТИ ИННОВАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ И ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В АГРОБИЗНЕСЕ

FEATURES OF INNOVATION POLICY AND INVESTMENT PROCESSES IN AGRIBUSINESS

e.i.k. doc. **M.S. Abishov**, ass. **V.A. Jumanova**, stajyor-oqitwshı **I.P. Muratbaev**, magistrant **I.B. Nuranov** – Berdaq atındağı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti, Ekonomika fakulteti

Annotaciya

Ekonomikanıń túrli dárejeleri hám hár bir tarawındağı tiykargı nızamshılıq, islep shıǵarıw múnásibetleriniń xarakteri hám islep shıǵarıw kúshleriniń rawajlanıwı olardıń óz-ara shártlesiwı hám óz-ara tásirinen ibarat esaplanadı. Islep shıǵarıw kúshleriniń ósiwı islep shıǵarıw múnásibetleriniń rawajlanıwına jańasha talaplar qoyadı. Islep shıǵarıw qatnasıqlarınıń jańa formaları, islep shıǵarıw kúshleriniń aldınǵı dárejesinde qalıp ketiwı nátiyjesinde rawajlanbay qalıwı múmkin. Awıl xojalıǵı ónimlerin islep shıǵarıw procesiniń rawajlanıwı, házirgi kúnde, tek ǵana ilimiy izertlewler alıp barıw, xojalıq iskerligine zamanagóy basqarıw elementlerin engiziw hámde islep shıǵarıwdı jańa puxta texnika-texnologiyalar tiykarında shólkemlestiriwge baylanıslı bolıp qalmaqta.

Tayansh sózler: agrosanaat kompleksi, innovaciya iskerligi, innovaciyalıq xızmet, innovaciyalıq process, agrobiznes subyektleri, innovaciyalıq islenbeler, awıl xojalıǵında innovaciyalıq texnologiyalar.

Основное законодательство, характер производственных отношений и развитие производительных сил на разных уровнях экономики и в каждой отрасли являются их взаимной обусловленностью и взаимодействием. Рост производительных сил предъявляет новые требования к развитию производственных отношений. Новые формы производственных отношений могут не развиваться, поскольку производительные силы остаются на развитом уровне. Развитие процесса производства сельскохозяйственной продукции сегодня связано лишь с проведением научных исследований, внедрением современных элементов управления в хозяйственную деятельность, организацией производства на основе новой экономически эффективной техники и технологий.

Ключевые слова: агропромышленный комплекс, инновационная деятельность, инновационная услуга, инновационный процесс, субъекты АПК, инновационные разработки, инновационные технологии в сельском хозяйстве.

The main legislation, the character of production relations and the development of production forces in different levels of the economy and in each sector are their mutual conditioning and interaction. The growth of production forces imposes new demands on the development of production relations. New forms of production relations may fail to develop due to the fact that productive forces remain at a lower level. The development of the production process of agricultural products today is related only to conducting scientific research, introducing modern management elements into household activities, and organizing production on the basis of new cost-effective techniques and technologies.

Keywords: agro-industrial complex, investment activity, innovative service, innovative process, agribusiness subjects, innovative developments, innovative technologies in agriculture.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

Jer júzinde xalıq sanı barǵan sayın artıp baratırǵan búgingi kúnde, awıl xojalıǵı ónimleri, atap aytqanda, azıq-awqat ónimlerine bolǵan talap ta barǵan sayın asıp barmaqta. Atap ótiw kerek, búgingi kúnde qarıydarlardıń mıtajlıkların qandırıw maqsetinde, awıl xojalıǵı islep shıǵarıw kólemin asırıw jolında awıl xojalıǵı óndiriwshileri tárepinen jasalma, tez hám arzan shiyki ónimler (emulgator, stabilizator, glyutamat natriya, jasalma dám beretuǵın zatlar, konservatorlar) járdeminde tayın ónim jetistiriw dástúrge aylanıp barmaqta.

Islep shıǵarıw sapasın asırıwda hár qanday awıl xojalıǵı kárxanası aldında turǵan tiykarǵı wazıypalardan biri - bul házirgi kún talaplarına juwap bere alatuǵın ilimiy izertlewlerdi shólkemlestiriw hámde innovaciyalıq xızmetti jedellestiriw bolıp tabıladı.

Bul orında, awıl xojalıq ónimlerin óndiriwshi birinshiden ilimiy basqarıw nátiyjesinde islep shıǵarıw sapası tutınıwdıń qaysı dárejede qandırılǵanın bahalawshı kriteriya retinde júzege shıǵadı. Bul jerde sapalıq-social tutınıw qunınıń muǵdarlıq xarakteristikasını, miynettiń paydalılıǵı dárejesin sáwlelendiredi. Atap ótiw kerek, pán-texnika rawajlanıwı nátiyjesinde ónimler sapasına qoyılıp atırǵan talap dárejesi keskin asıp barmaqta. Joqarı sapalı ónimdi tutınıwdan qanaatlanıw dárejesin jáne onıń paydalılıǵınıń artiwi menen xarakterlenedi.

Innovaciya iskerligi bolsa awıl xojalıǵı ónimleriniń jaramlılıǵı, resurs sarıp dárejesi, ekologiyalıq qawipsizligi, tasıw hám saqlawǵa qolaylıǵı, tayyar ónim islep shıǵarıw dárejesi, shıdamlıǵı sıyaqlı bir qatar sapa kórsetkishlerin asırıwǵa óz unamalı tásin kórsetiwi anıq.

Ekinshiden, ishki hám sırtqı bazarlarda payda bolıp atırǵan keskin bási eki ortalıǵı sharayatında kóplegen uqıplı basqarıwshılar tárepinen “jasap qalıw” ushın ónim islep shıǵarıw principleri kóleminde xızmet alıp barılıwı, ónim sapasın kóteriwi eń zárúr shártlerden birine aylanbaqta. Ózbekistan Respublikası awıl xojalıǵı hám azıq-awqat ónimleri bazasında ózimizde islep shıǵarılǵan ónimler menen birge sırttan import etilgen ónimler de satıladı. Bul bolsa, óz gezeginde bási kige shıdamlılıq dárejesine óz tásin kórsetedi. Sol sebepli de milliy fermer xojalıqlarında isbilermenlik iskerligin ilimiy izertlewler tiykarında alıp barıw innovaciyalıq xızmetti shólkemlestiriw zárúrli máseleler qatarınan orın alıp turıptı.

Atap ótiw kerek, agrobizneste innovaciyalıq xızmetti tolıq hám nátiyjeli ámelge asırıwdı támiyinleytuǵın faktorlardan biri - usı tarawdı jaqsı biletuǵın, tusine alatuǵın, zamanagóy texnika-texnologiyalardı nátiyjeli islete alatuǵın, túrli hadıyseler, jaǵdaylardı úyrenip analiz ete alatuǵın joqarı maman qanıgelerdi tayarlawdan ibarat bolıp esaplanadı.

Úshinshiden, keyingi dáwirde awıl xojalıǵı tarawındaǵı isbilermenlerdiń sırtqı ekonomikalıq iskerligi aktivlesip barmaqta hám ónimdi sırtqı bazarlarǵa eksport qılıw ápiwayı jaǵdayǵa aylanıp atır. Bul orında aytıp ótiw kerek, ilimiy izertlewler, eń dáslep, ishki bazardı ónimge toltırǵannan keyin sırtqı bazarlarǵa shıǵıw jobaların islep shıǵıwına qaratılıwı maqsetke muwapıqlıǵın kórsetip atır. Sebebi hukimetimizdiń tiykarǵı ekonomikalıq siyasatı áyne, respublikamız xalqınıń social qorǵanıwına qaratılǵan bolıp, ishki bazar tutınıw ónimleri menen toyıntırılǵanda ǵana sırtqı bazarlarǵa shıǵıwdı rejelestiriwdi talap etedi.

Tórtinshiden, innovaciyalıq xızmet tiykarında ónim sapasın asırıw kárxanalardıń ónim birliǵin óndiriske sarplaytuǵın resurslar sarıp nátiyjeliligin asırıwǵa múmkinshilik jaratadı.

Innovaciyalıq xızmetti dúnya mámleketleri eń tiykarǵı ústin turatuǵın jónelis retinde tán alǵan. Yaǵnıy, jámiyet rawajlanıwın jedellestiriw jáne social-ekonomikalıq rawajlandırıwdıń eń zárúrli faktorlarınan biri bul nátiyjeli innovaciyalıq siyasatı ámelge asırıw, ilimiy-texnika rawajlanıwı jetiskenliklerine tiykarlanǵan jańa, aldınǵı texnologiyalar, miynetti shólkemlestiriw hám basqarıwdıń jańa formaları hámde iri oylap tabılmalardı nátiyjelerin engiziw ekenligi áyne haqıyqat.

Demek, innovaciya hám innovaciyalıq xızmet túsiniqlerine tómendegishe túsindirme bereyik. “Innovaciya” - “jańalıqtıń engiziliwi” menen sinonim emes, al jańa bilimler, jantasıwlar kórinisindegi jańalıqlardıń engiziliw procesi menen baylanıslı qubılıs bolıp tabıladı. Usı túsindirmeden kelip shıǵıp, “innovaciya iskerligi” – bul xızmet túri de, tarawı da bolmay, al onıń klassifikaciyası bolıp tabıladı. Innovaciya tarawı bar boladı, qashan hár qanday xızmet hám hár qanday tarawdıń, eger oǵan joqarı talap penen ajralıp turıwshı nátiyjege (misalı, social, bazar, qorǵaw sıyaqlı) erisiw ushın jańalıqlar (misalı, bilimler, texnologiyalar, qollanbalar, jantasıwlar

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

siyaqlilar) engizilse, innovatsiyali bolıwı mımkin. Demek, innovatsiya – jańa ideyalar (texnologiyalar, turmıs tarızınıń jańa formaları, talim, basqarıw, miynet, xızmet kórsetiw, pán, informaciya) bolıp esaplanadı.

Ózbekstan Respublikasında innovatsiyalıq ortalıqtı rawajlandırıw, islep shıǵarıw kárxanalarında bazar ózgerislerin esapqa alǵan halda bul xızmetti shólkemlestiriw máselelerine qaratılǵan reformalardı ámelge asırıwǵa bólek itibar qaratılıp atır. Sebebi házirgi globalasıw procesinde mámlekette ámeldegi iri islep shıǵarıw kárxanaları xızmetiniń tıǵız baylanıslılıǵın támiyinlew, olarda innovatsiyalıq xızmetti rawajlandırıw hám shet el óndiriwshiler menen básikeyge shıdamlılıǵın támiyinlew talap etiledi.

Buǵan baylanıslı Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2018 jıl 5-maydaǵı “Aktiv isbilermenlik hám innovatsiyalıq xızmetti rawajlandırıw ushın shárt-shárayatlardı jaratıw boyınsha qosımsha ilajlar haqqında” ǵı PQ-3697 sanlı qararı ayqın mısıl bola aladı. Qararda mámlekette aymaqlardıń sociallıq-ekonomikalıq potencialın asırıw hámde xalıq turmıs dárejesi hám párawanlıǵınıń turaqlı ósiwine mımkinshilik jaratıwshı aktiv isbilermenlikti hár tárepleme qollap-quwatlaw hám xoshametlewge, innovatsiyalıq ideya hám texnologiyalardı engiziwge, pán hám innovatsiyalıq xızmet jedel rawajlanıwı ushın zárúr shárt-shárayatlardı jaratıwǵa itibar qaratılǵan.

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2018 -jıl 24-noyabrdaǵı “Isbilermenlik hám innovatsiyalar tarawındaǵı joybarlardı finanslıq támiyinlew mexanizmlerin jetilistiriw boyınsha qosımsha ilajlar haqqında” ǵı 5583-sanlı pármanı házirgi kúndegi hár bir tarawdaǵı innovatsiyalıq xızmetti rawajlandırıw maqsetindegi siyasat bolıp, bul agrar tarawda da óz nátiyjesin kórsetedi.

Innovatsiyalıq ortalıqtı qalıplestiriw turaqlı túrde ónimdi jańalaw, islep shıǵarıw fondların jańa texnika tiykarında jańalaw, mámlekettiń sociallıq-ekonomikalıq rawajlandırıw mımkinshiligin jaratadı hám zárúrli faktor esaplanadı.

Innovatsiyalıq processtı isbilermenlik tarawındaǵı ortalıqqa muwapıqlastırıw, onıń nátiyjesin asırıw ámeldegi sociallıq-ekonomikalıq mımkinshiliklerden tolıq paydalanıwdı talap etedi. Tiykargı itibar bazar básikey sharayatında aqlıǵa say variantlardı tańlaw, paydahlıq dárejesin támiyinlew hám isbilermenlik iskerligin jedellestiriwge qaratıw kerek boladı.

Isbilermenlik hám innovatsiya iskerligine úlken úles qosqan Avstraliyalıq ekonomist alım I. Shumpeter “Isbilermenlik - islep shıǵarıw faktorlarınan paydalanıwdıń jańa kombinatsiyaların ámelge asıratuǵın hám usınıń menen ekonomikalıq rawajlanıwdı támiyinleytuǵın xızmet” - dep tariypleydi [7].

P. Druker “Isbilermenlik innovatsiyanı basqarıw procesi bolıp, isbilermen bolsa hár bir mımkinshilikten maksimal paydalanıwshı shaxs”-dep túsindiredi. Ol innovatsiyalardıń áyne ekonomikalıq tiykarın ayıp, “Isbilermenler innovatsiya járdeminde jańa xızmetler yamasa biznes túrin ámelge asıradı ” - degen ideyanı ilgeri súredi. [8]

Agrosanaat kompleksi sistemasında barlıq xojalıq júrgiziwshı subyektlardıń isbilermenlik iskerligine tiykarlanǵan basqarıwı agrobiznestiń jeke formaları rawajlanıwın támiyinleydi. Agrobiznes awıl xojalıǵı ónimlerin islep shıǵarıw, qayta islew, saqlaw, tasıw hám juwmaqlawshı qarıydarǵa jetkiziwdi rawajlandırıwdı aldınan belgileydi. Agrobiznes agrosanaat kompleksiniń tiykargı dúziwshı faktori bolıp, bazarda ekonomikalıq múnásibetlerdiń joqarı dárejedegi básikeyge shıdamlılıǵın saqlaydı. Agrobiznestiń rawajlanıwı mámlekettiń azıq-awqat qawipsizligi hám puqaralarına social párawanlıǵın támiyinlew máplerine tásir etedi.

Agrobiznestegi innovatsiyalıq xızmet - novatsiya yaǵnıy jańalıq jaratılıwın hám olar tiykarında ámeliy nátiyje, agrar tarawdaǵı isbilermenlerdiń innovatsiyalardı qolǵa kirgiziwdi támiyinleytuǵın xızmet esaplanadı.

Agrobiznes subyektleriniń innovatsiyalıq xızmeti bárinen burın ámeliyatqa jańa, jetiliske islep shıǵarıwdı engiziw, ekinshiden, ónim islep shıǵarıw qárejetlerin barlıq túrlerin kemeytiw, úshinshiden, islep shıǵarılǵan ónimler bahaların tómendetiwdi olardıń tutınıw hám sapa kórsetkishlerin turaqlı túrde asırıp barıwdı názerde tutadı.

Agrobiznes subyektleriniń innovatsiyalıq xızmetin rawajlandırıw kóp tárepten onıń basqarıw sisteması natijeliligine baylanıslı. Agrobizneste innovatsiyalıq xızmetti rawajlandırıwdan maqset pútkil islep shıǵarıw sistemasın jańalaw esabına islep shıǵarıw natijeliligin asırıw, ilimiy-

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

texnikaliq, intellektual hám ekonomikalıq potencialdan natıyjeli paydalanıw tiykarında awıl xojalıq tarawdıń básekige shıdamlılıǵın asırıwdan ibarat.

Joqarıdaǵılardan kelip shıqqan halda, atap kórsetiwimiz kerek, agrobiznes subyektleriniń innovaciyalıq xızmetin rawajlandırıw hám olardıń iskerligine basqarıwdıń innovaciyalıq texnologiyaların engiziw tómendegi faktorlar esabına zárúrli esaplanadı:

Birinshiden, agrobiznes subyektleriniń kishi hám ıqshamlıǵı, bazar konyukturası ózgerisleri hám qarıydarlar mútajliklerine salıstırǵanda tez iykemlese alıw ayırıqshalıǵına iye ekenligi innovaciyalıq texnologiyalardı engiziwde iri kárxanalardı salıstırǵanda táwekelshilik dárejesiniń tóménligi tárepinen jaqsı nátiyje beredi;

Ekinshiden, agrobiznes subyektleri iskerligine innovaciyalıq texnologiyalardıń engiziliwi olardı joqarı tranzakcion qárejetlerin kemeytirip, rentabellik kórsetkishlerin asıradı;

Úshinshiden, bunday subyektlardıń jańalıqlardı operativlik penen ózlestire alıw potencialı olardı innovaciyalardı kommerciyalastırıwdan joqarı dáramat alıw múmkinshiligin beredi;

Tórtinshiden, agrobiznes iskerligine basqarıwdıń innovaciyalıq texnologiyaların engiziliwi olar tárepinen islep shıǵarılıp atırǵan awıl xojalıq ónimlerdiń ózine túser bahasın kemeytiw, tavar hám xızmetler nomenklaturasın asırıw, jańa ónim túrlerin satıw perspektivalı bazarların ózlestiriw esabına olardıń potencialı hám básekige shıdamlılıǵın asıradı.

Hár qanday isbilermenlik iskerligi joqarı sapalı hám kem qárejet talap etetuǵın jańa túrdegi ónimlerdi islep shıǵarıw imkaniyatın beretuǵın jańa texnologiyalardı ózlestiriwge qaratılmasa, ol jaǵdayda qanshelli rawajlanbasın, belgili waqıttan keyin básekige shıdamlılıǵı paseyiwi, bazardaǵı ornınıń kúshsizleniw hám alatuǵın paydasınıń kólemi azayıwı anıq bolıp tabıladı.

Awıl xojalıǵında innovaciyalıq texnologiyalardı keń kólemde qollaw xojalıqtıń innovaciyalıq xızmetin rawajlandırıw, ónim islep shıǵarıw pátin tezlestiriwge, fond muǵdarı hám kapital sarp-qárejetler natıyjeliligini asırıwǵa, islep shıǵarıwdı racional shólkemlestiriw hám miynet ónimdarlıǵın asırıwǵa tikkeley baylanıslı.

Agrar industrial jámiyette innovaciya procesleri rawajlangan mámleketler ekonomikasınıń tarmaq quramında túpkilikli ózgerisler júz beriw menen birge awıl xojalıǵın innovaciyalaw iskerliginde, pán-texnika kóz aldımızda kúnnen-künge rawajlanıp baratırǵan, ekonomikalıq hám barlıq social qatnasıqlar sistemasında tereń sapa ózgerisleri bolıp turǵan házirgi quramalı ótiw dáwirinde ekonomikada salmaqlı strukturalıq ózgerisler júz berip atır.

Barlıq awıl xojalıǵındaǵı kárxanalarda strukturalıq ózgerislerdi úyreniw, innovaciya iskerligin ámelge asırıwdıń ústin turatuǵın jolı hám usılların islep shıǵıw búgingi kúnniń zárúrli wazıypalarınan esaplanıp innovaciyalıq aktivlikti asırıwǵa itibardı qaratadı. Awıl xojalıǵında alıp barılıp atırǵan reformalardıń maqseti islep shıǵarıw procesinde ekonomikanıń turaqlı rawajlanıwın, pán hám texnikanıń sońǵı jetiskenliklerinen paydalanǵan halda islep shıǵarıw innovaciyalıq xızmetti jetilistiriw, xalıq social qorǵalıwın hám párawanlıǵın asırıwda innovaciyalıq aktivliktiń tutqan ornı joqarı ónimdarlıqqa hám natıyjelilikke erisiwden ibarat boladı.

Usı siyasat tiykarın mámleketniń iri tábiy resursları, ishki potencialınan nátiyjeli paydalanıw, agrar tarawda hám sanaatda ilimiy tiykarlangan halda ekonomikanıń tiykarǵı tarmaqların rawajlandırıw hám olardıń mámlekettegi ishki ekonomikalıq mashqalalardı sheshiwde investiciyanı jóneltiriw, xalıq bantlıǵın támiyinlew hám basqalardı quraydı.

Búgingi kúnde Ózbekstanda innovaciyalıq proceslerdi tereńlestiriwge hám innovaciya bazasın bekkemlew ushın barlıq zárúr sociallıq-ekonomikalıq tiykarlar bar. Biraq agrar tarawdı innovaciyalıq rawajlanıw jolına ótkeriw, yamasa basqasha aytqanda, innovaciyalıq joybarlardı bir, hátte bir neshe fermer xojalıqları kóleminde ámelge asırıwda tiykarǵı wazıypa esaplanadı, sebebi:

- birinshiden, fermer xojalıqları hám awıl xojalıǵı ónimlerin qayta isleytuǵın subyektlar házirgi waqıtta ilimiy izertlew jumıslarına buyırtpa beriw hámde izertlewlerdi finanslıq támiyinlewde qatnasıwınıń kemligi;

- ekinshiden, aldınǵı innovaciyalıq texnologiyalardı islep shıǵıwda izertlew ótkeriw hám ilimiy-izertlewlerdi finanslıq támiyinlewde de xojalıq subyekti ózi ámelge asıra almaydı;

- úshinshiden, jańa texnologiya, jańa túrlerden paydalanıw ushın awıl xojalıǵı ónim óndiriwshiler hám qayta islewshilerdiń jetkilikli dárejede bilimlerde iye emesligi, olar ilimpazlar

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

hám qánigeler xızmetinen paydalanıwları zárúr, sonıń menen birge, ónimdi qayta islew hám satıwda da fermerler belgili dárejedegi qıyınshılıqlarǵa dus kelmekte;

- túrtinshiden, joqarı tálim hám ilimiy izertlew mekemeleri ilimpazları tárepinen tayarlanǵan innovaciyalıq islenbelerge óndiriwshilerdiń talabı jetkilikli dárejede emesligi, olar ortasında tıǵız baylanıslıq joq ekenligi;

- besinshiden, ayırım awıl xojalıǵı ónim óndiriwshileriniń juwapkershiliksizligi.

Usınıń menen birge, ótkerilgen analiz nátiyjeleri mámlekette aktiv isbilermenlik hám innovaciyalıq xızmetti rawajlandırıw ushın shárt-shárayatlardı jáne de jaqsılawǵa tosqınlıq etiwshi, atap aytqanda, tómendegi qatar sistemalı máseleler bar ekenliginen derek beredi:

- birinshiden, aymaqlardıń ámeldegi resurs bazası hám potencialın esapqa alǵan halda aldınıǵı hám zamanagóy innovaciyalıq islenbeler, texnologiyalıq joybarlar-startaplar hám innovaciya bazarın sistemalı analiz qılıw jolǵa qoyılmaǵan;

- ekinshiden, innovaciyalıq joybarlar-startaplarǵa investitsiyalardı qosıw, islep shıǵarıw hám xızmetler kórsetiw tarawına innovaciyalardı aktiv engiziwshi intalı uqıplı basqarıwshılar iskerligine kómeklesiw hám muwapıqlastırıw jumısları kerek dárejede ámelge asırılmaı atır;

- úshinshiden, innovaciyalıq rawajlanıw tarawında, ásirese, orınlarda isbilermenlik ortalıǵı tómendegide, sonıń menen birge, innovaciyalıq hám tabıslı texnologiyalıq joybarlar-startaplar islep shıǵıw hám ilgeri jılıtıw boyınsha zárúr kónlikpelerge iye isbilermenlerdiń jetispewshiligi saqlanıw qalmaqta;

- túrtinshiden, innovaciyalıq ideyalar, islenbeler hám texnologiyalardıń maǵlıwmatlar bazası joq, jańa resursların jaratıw hám tájiriybeni biznes-strukturalarǵa ótkeriw ámeliyatı rawajlanbastan qalmaqta;

- besinshiden, innovaciyalıq islenbeler bazarın qollap-quwatlaw mexanizmleri tómendegide islep shıǵılǵan, innovaciyalıq ideyalardan nátiyjeli paydalanıwdı muwapıqlastırıw jolǵa qoyılmaǵan, innovaciyalıq islenbelerdiń sapası bolsa bazar talaplarına juwap bermeydi;

- altınshıdan, innovaciyalıq islenbeler, texnologiyalıq joybarlar-startaplar tarawına texnika joqarı tálim mekemeleri pitkeriwshileri hám intalı jaslardı qosıwǵa, sonıń menen birge, biznes-inkubatorlardıń jaratılıwına kerek dárejede itibar qaratılmaı atır;

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасидаги ташкилоти - ФАО нинг маълумотларига кўра, 2050 йилга келиб, аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш мураккаблашади ва бу вақтда “ақлли қишлоқ хўжалиги”ни ташкил қилиш ва маркетинг тадқиқотларини олиб бориш талаб қилинади. [1]

Маълумки, мамлакатимизда глобал хавф-хатарлар шароитида, жумладан COVID-19 хуружига қарши курашиш, аҳолимизни самарали ижтимоий қўллаб-қувватлаш, асосий турдаги озиқ-овқат ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари билан узлуксиз ва барқарор нархларда таъминлаш, даромадларни кескин пасайиб кетишининг олдини олиш мақсадида аниқ манзилли ва истиқболли тадбирлар амалга оширилмоқда.

Бугунги кунда республикамизда етиштирилаётган 80 турдан ортиқ қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари дунёнинг 66 та мамлакатига экспорт қилинмоқда. Бунда, мева-сабзавотлар ва дуккакли маҳсулотларнинг экспорт ҳажми 2016 йилдан 2021 йилга қадар қарийб 2 баробарга ошган [2].

Қишлоқ хўжалигида амалга оширилаётган ислохот жараёнлари таҳлил қилинганида қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқишда қўшимча қиймат занжирини ривожлантириш учун ички ва ташқи бозорлардаги (жаҳон, минтақавий ва бошқалар) талаб ва таклиф асосида етиштиришни илмий асосда йўлга қўйиш, деҳқонларимизни рақобатбардош, сифатли ва мавсумий (эртачи) озиқ-овқат маҳсулотларини етиштиришга бўлган иқтисодий манфаатдорликларини ошириш учун манзилли иқтисодий қўллаб-қувватлаш, экспорт-импорт жараёнларини соддалаштириш талаб этмоқда.

Ҳозирги кунда мамлакатимиз қишлоқ хўжалигида янги замонавий тузилмалар, жумладан ихтисослашган агрокластерлар, ишлаб чиқариш кооперациялари, кўп тармоқли фермер хўжаликлари, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларини барқарор ҳамда самарали фаолият кўрсатишини таъминлаш, анъанавий озиқ-овқат маҳсулотлари билан биргаликда ноанъанавий маҳсулотлар (деҳқончилик ва чорвачилик соҳаларида) етиштирилишини қўллаб – қувватлаш мақсадида иқтисодий механизмлар қўлланилмоқда.

Туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа эгалари кенгашлари ҳузуридаги Фермер хўжаликларида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини юритиш марказлари ташкил қилиниб, бепул консалтинг хизматлари кўрсатиш йўлга қўйилди.

Ушбу марказлар туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашлари аъзоси ҳисобланган, пахта хомашёси ва бошоқли дон етиштирувчи фермер хўжаликларида бепул консалтинг хизматлари кўрсатади, шунингдек, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштирувчи бошқа хўжалик юритувчи субъектларга қонунчилик ҳужжатларида

белгиланган тартибда пуллик консалтинг хизматлари кўрсатади [3].

Республикамизда қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотларини экспорт қилинишини кўллаб-қувватлаш, субсидиялар ажратиш, транспорт таъминоти ва божхона тузилмаларида расмийлаштиришда махсус “яшил йўлаклар” ташкил қилинмоқда ва бошқа имтиёзлар босқичма-босқич жорий қилинмоқда.

Мазкур тадбирларда ички ва ташқи истеъмолчиларнинг талабини ҳисобга олган ҳолда:

қишлоқ хўжалиги экинларини бозор тамойилларига мос ҳолда жойлаштириш ва маҳсулот етиштириш;

кластерлар ва кооперацияларни қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экспорт қилувчи корхоналар билан ҳамкорлик қилиши;

ички ва ташқи бозорларда маркетинг тадқиқотларини ўтказиш;

кластерлар ва кооперацияларда маҳсулотларни етиштириш, сақлаш, ташиш, тайёрлаш, қайта ишлаш соҳасида маркетинг бўйича илмий тадқиқотларини олиб боришни ташкил этиш;

махаллий органик маҳсулотларни салоҳиятли экспорт бозорларида сотиш учун маркетинг тадқиқотларини ўтказиш ва ички бозорларни ривожлантириш ва бошқа шу каби долзарб тадбирларни амалга ошириш белгиланди.

Сўнгги йилларда ушбу тадбирларга қарамасдан мамлакатимизда айрим турдаги маҳсулотларни пишиқчилик даврларида етишмовчилиги, бунинг натижасида эса нархлар барқарор бўлмасдан кескин кўтарилиш ҳолатлари юз бермоқда.

Масалан, сўнгги уч йил ичида гўшт, тухум (қиш фаслида), ўсимлик мойи, сабзи, саримсоқпиез каби маҳсулотлар нархларини кескин ошиши (йил давомида), пиез, қарам ва кизил қалампир маҳсулотларини пишиб етилган вақтларда эса нархларини кескин пасайиб кетиш ҳолатлари учрамоқда.

Натижада, бу бизда одатга кирган, жорий йилда нархи баланд бўлган маҳсулотни деҳқонлар келгуси йилда катта майдонларда экадилад ва айнан ушбу турдаги маҳсулотларнинг нархлари кескин тушиб кетиш ҳоллари юз беради ва аксинча ҳам бўлиши мумкин.

Бозордаги нарх-наво ва маҳсулотларнинг миқдори тўғрисида ахборотларга эга бўлмаган деҳқонлар, фермерлар пировард натижада катта зарар кўрмоқдалар. Ички бозорда эса, аксинча, айрим турдаги бошқа маҳсулотларни етишмовчилиги натижасида уларнинг нархларини ошиши кузатилади.

Бугунги кунда, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги тизимида ёки қишлоқ хўжалиги соҳасига алоқадор вазирликлар, идоралар, маҳаллий хокимликлар, тижорат маслаҳат фирмалари ва нодавлат ташкилотларда ўзаро ҳамкорликда уйғунлашган ҳолда маркетинг тадқиқотларини доимий олиб бориш, яъни озиқ – овқат маҳсулотларини ҳудудлар кесимида “ишлаб чиқариш – тайёрлаш – қайта ишлаш – сотиш” занжирини доимо кузатиб бориш, юзага келадиган таҳликали вазиятларни олдиндан баҳолаш ва тегишли механизмларни ишга солиш йўлга қўйилиши долзарб масала ҳисобланмоқда.

Бизнинг фикримизча, қишлоқ хўжалигида маркетинг тадқиқотлари ҳар йили, доимий равишда амалга ошириладиган алоҳида йирик масала сифатида ажратиб олиниши мақсадга мувофиқ.

Демак, биринчидан, ички истеъмол бозорида маҳсулотлар таъминоти ва уларнинг нархларини барқарор ушлаб туриш учун кучли маркетинг тадқиқотлари олиб борилиши талаб қилинади;

иккинчидан, ушбу маркетинг тадқиқотлари доирасида олинган маълумотларни қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотлари бозори иштирокчиларига ўз вақтида етказиш зарурияти вужудга келади;

учинчидан, қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотларини барқарор етиштириш учун рақамли маркетинг платформаси орқали ҳамкор субъектларни маълумотлар билан доимий таъминлаш зарур ҳисобланади.

Бу йирик тадқиқот ишида нафақат Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ва Қишлоқ хўжалигида

билим ва инновациялар миллий марказига қарашли илмий-тадқиқот институтларининг олимлари, шунингдек тегишли вазирлик ва идораларнинг туман даражасидаги малакали ва тажрибали вакиллари жалб қилинади ҳамда ҳамкорликда иш олиб борилиши талаб қилинади.

Мазкур вазифа қўйидаги янги, замонавий рақамли технологияларга асосланган тадбирларни амалга оширилишини талаб қилади.

Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ва унинг ҳудудий бошқармалари веб-сайтида ҳудудлар кесимида, қишлоқ хўжалиги экинлари турлари бўйича доимий статистика ҳисоботини (махсус дастур) юритиш бўйича платформа яратилади, яъни республика ҳудудлар кесимида жорий йилда етиштириладиган қишлоқ хўжалиги экинларининг (махсулотлари) майдони, кутилаётган ҳосил миқдори, ўриб-йиғиш муддатлари, истеъмолчиларга сотиш миқдори ва бошқа саволларга тааллуқли статистика маълумотлари киритиб борилади;

товар маҳсулоти етиштирувчилар (фермер хўжаликлари, ихтисослашган агрокластерлар ва бошқалар), тайёрлаш, сақлаш, қайта ишлаш, савдо шохобчалари, инфратузилма субъектлари, логистика марказлари, агореклама корхоналари ва қишлоқ хўжалиги бўйича илмий-тадқиқот институтлари тўғрисидаги мавжуд маълумотлар базаси электрон шаклда умумлаштирилган ҳолда хўжалик субъектларига тақдим қилинади, уларни тўғридан-тўғри учрашувлар ўтказиши, ёзишмалар ва бошқа усулларда ҳамкорлик ўрнатишлари учун алоқа тизими яратилади;

қишлоқ хўжалиги субъектлари учун агроэнциклопедия ишлаб чиқилади. Унда ҳар бир экин турини етиштириш бўйича агротехнологик карта, экинларни экиш муддатлари, усуллари, парваришлаш ва етиштирилган ҳосилни ўриб-йиғиб олиш тартиблари ҳамда бошқа шу каби маълумотлар базаси киритилади;

қишлоқ хўжалиги товар маҳсулотини етиштириш, харид қилиш, сақлаш, қайта ишлаш ва бошқа йўналишдаги хўжалик субъектларини бозордаги мавқеи таҳлил қилиниб, рейтинг даражаси белгиланади;

мамлакатимизда озиқ-овқат хавфсизлигини олдини олиш, ички истеъмол бозорини асосий турдаги озиқ-овқат маҳсулотлари билан тўлдириш мақсадида манзилли ва муддатли чора - тадбирлар ишлаб чиқилади;

барча тадбирлар умумлашган ҳолда, қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган Стратегиясида кўзда тутилган, шунингдек миллий иқтисодиётни рақамлаштириш бўйича қўйилган вазифалар ечимини таъминлашга хизмат қилади.

Рақамли маркетинг платформасини барқарор ва самарали фаолият кўрсатишидан соҳавий вазирлик ва идоралар манфаатдор ҳисобланади.

Мазкур вазирлик ва идораларнинг ҳамкорликдаги фаолияти натижалари асосида платформа доимо шаффоф ва очиқ маълумотлар билан таъминланиб борилиши талаб қилинади.

Адабиётлар рўйхати

1. «Умные» инструменты сельского хозяйства. <https://review.uz/post/umniye-instrumentiy-selskogo-hozyaystva>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. Мева-сабзавотчилик ва узумчиликда оилавий тадбиркорликни ривожлантириш, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида деҳқон хўжаликларининг улушини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. Тошкент шаҳри, 2021 йил 23 ноябрь. №20.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. Туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашлари ҳузуридаги фермер хўжаликларида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини юритиш марказлари томонидан бепул консалтинг хизматлари кўрсатиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида. 2019 йил 15 февраль, 131-сон.

AVTOMOBIL TRANSPORTÍ SALASÍN BASQARÍWDÍ SHÓLKEMLESTIRIW ÓZGESHELIKLERI

AVTOMOBIL TRANSPORTI SOHASIDA BOSHQARUVNI TASHKIL QILISH XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В АВТОТРАНСПОРТНОЙ СФЕРЕ

CHARACTERISTICS OF ORGANIZING MANAGEMENT IN THE FIELD OF AUTOMOBILE TRANSPORT

Pirniyazova Gulzira Jamalovna, Qoraqalpoq davlat universiteti,
Menejment va iqtisodiyot asoslari kafedrası o‘qituvchisi,

Annotatsiya

Usı maqalada avtomobil transportı salasın basqarıwdı shólkemlestiriw ózgeshelikleri haqqında pikirler bayan etilgen. Transport sistemasınıń ekonomikalıq bekkemligi strukturalıq qayta qurıwın ámelge asırıw ilajlarına jáne onı qanday ámelge asırıwǵa baylanıslı. Tiykargı ilimiy máselelerdiń biri tarmaq ushin xoshametlew sistemasın islep shıǵıw, atap aytqanda, bahalar transport hám texnikalıq xızmet kórsetiw túrlerine sáykes keliwi kerek; salıq hám jıymırlar haqiyqatında kriteriyalarǵa tiykarlanıwı hámde bazarda básekelese alatuǵın ortalıq jaratiwi kerek ekenligi keltirilgen.

Tayanış sózler: avtoransport xızmetleri, transport qurallari, avtomobil, temir jol, nátiye, tasiw sipati, baha, salıq.

Ushbu maqolada avtomobil transportı sohasida boshqarishni tashkil qilish xususiyatlari haqida fikrlar bayon qilingan. Transport tiziminiń iqtisodiy mustahkamligi tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish chora-tadbirlarına hamda uni qanday amalga oshirishga bog‘liq. Asosiy ilmiy masalalarning biri saho uchun rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish, jumladan, narxlar transport va texnik xızmat ko‘rsatish turlarına mos kelishi; soliq va yig‘imlar haqiyqatında mezonlarga asoslanishi hamda bozorda raqobatlasha oladigan muhit yaratishi kerakli keltirilgan.

Kalit so‘zlar: avtoransport xızmatlari, transport vositasi, avtomobil, temir yól, samaradorlik ko‘rsatkichi, tashish sifati, narx, soliq.

В данной статье описаны особенности организации управления в сфере автомобильного транспорта. Экономическая стабильность транспортной системы зависит от мер структурной перестройки и способа ее реализации. Одним из главных научных вопросов является разработка системы стимулирования отрасли, в том числе соответствие цен видам транспортно-технических услуг; налоги и сборы должны основываться на критериях и создавать конкурентную среду на рынке.

Ключевые слова: автотранспортные услуги, транспортные средства, автомобиль, железная дорога, индекс эффективности, качество транспорта, цена, налог.

This article describes the features of the organization of management in the field of road transport. The economic stability of the transport system depends on the measures of structural restructuring and how to implement it. One of the main scientific issues is the development of an incentive system for the sector, including the matching of prices to the types of transport and technical services; taxes and fees should be based on criteria and create a competitive environment in the market.

Keywords: auto transport services, means of transport, car, railway, efficiency index, transport quality, price, tax

Ózbekstan bazar ekonomikasi sharayatında óndiristi nátiyjeli shólkemlestiriw hám islep shıǵarılǵan ónimdi klientler ortasında bólistiriw aktual mashqala bolıp tabıladı. Ózbekstanda bul járdemshi infrastruktura eki sektordan ibarat: transport hám kommunikatsiya.

Ózbekstan mámleket geografiyasına jaqsı maslasqan, salıstırǵanda rawajlanǵan transport sistemasına iye. Biraq, transport sektori aldında eń qiyin mashqalalar turıptı. Aldı menen, ol, tiykarǵı fondlardı almasırw hám qayta qurıwdı talap etedi. Odan tisqari transport xızmetine talap olarǵa texnikalıq xızmet kórsetiw keskin ózgerdi. Ekonomikanıń basqa tarawlarında bolǵanı sıyaqlı transportda da bahalar sisteması haqıyqat emesligi, miynet mápdarlıǵınıń talap dárejesine tuwrı kelmewi, transport tarawların shólkemlestiriwdegi kemshilikler transport jumisiniń natiyjeliligini keskin tómenditip jiberedi. Sonliqtanda, usı sektor aldında sonday mashqalalardı sheshiw wazıypası turıptı. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2019-jıl 6-mart, PQ-4230-sanlı “Júk hám jolawshı tasıw sistemasın túpten jetilistiriw ilajları haqqında”ǵı qararına muwapıq transport xızmeti kórsetiwde shólkemlestiriw sistemasın jánede jetilistiriw, menshikti barlıq formalarındaǵı tasıwshılar ushın báseki ortalıǵın hámde qolaylı sharayatlar jaratıw hám respublikanıń transport-tranzit potencialın arttırıw boyınsha maqset hám wazıypalar belgilengen. Usı qarar tiykarında “Jolawshı hám júk tasıwdı jánede rawajlandırıw” boyınsha “Jol kartası” tastıyıqlandı hám sol tiykarda tarawdı rawajlandırıw boyınsha nátiyjeli jumıslar alıp barılmaqta [1].

Transport tarawı boyınsha juwapkershilik kóplegen shólkemler moyınına túsedı. Mámleket korporatsiyası dárejesinde taraw ushın 5 mámleket organı juwap beredi: Avtomobil hám dárya transport agentligi; "Ózbekistan temir jolları" Mámleketlik akciyanerlik temirjol kompaniyası;

"Ózbekstan hawa jolları" milliy aviakompaniyası; Tashkent jolawshılar transportı kárxanaları assotsiatsiyası. Bul organlar jumısın Ózbekstan Respublikası Ministrler Kabineti qasındaǵı qurılıs, baylanis hám transport bólimi basqaradı. Házirgi rawajlanıw dárejesinde Ózbekstan avtomobil, temirjol hám hawa transportı ushın jetkilikli material bazasına iye esaplanadı.

Tiykarǵı avtomobil jolları uzınlıǵı Ózbekstanda 183685 km átirapında, jergilikli jollar (qala, awıl hám kárxanalarǵa xızmet kórsetiwshi) - 90 mın km den artıǵın quraydı. Avtomobil jolları tarawı mámleketimizdiń derlik barlıq aymaqqa jetip barǵan. Avtomobil jollarınıń ortasha tıǵızlıǵı 0,3 km² di quraydı, bul Shıǵıs Evropa kórsetkishiniń yarımın quraydı hám 1000 xalıqǵa 6 km, bul Shıǵıs Evropa menen birdey.

Temirjol sisteması mámlekettiń tiykarǵı kóliklerinen biri bolıp tabıladı. Onıń ulıwma uzınlıǵı 4258, 4 km (sonnan 727, 4 km elektrlastırılǵan). Taraw parki 746 magistral lakomotivini quraydı. Turkmenistannıń Orta Aziya temirjol sistemasınan shıǵıp ketiwi menen Shıǵıstı Batıs penen baylanistiriwshi hám Ózbekstandı Qara teńiz menen baylanistiriwshi tiykar temirjol liniyasi Qazaqstan hám Rossiyadan ótedi, bul liniya bólimlerin turkmen hám ózbek temirjol agentligi qadaǵalaydı. Hawa transportı sisteması 13 tiykarǵı puqaralıq aeroportına iye, solardıń (7) jetewinde "Boing 747" samolyotları xızmet etedi. Transport strukturasınıń jeterli dárejesine qaramay, tiykarǵı fondlardıń kópisi tozǵanlıǵı, salıstırǵanda nátiyjesizligi búgingi kunge kelip tiykarǵı mashqala bolıp turıptı. Sonday-aq, mın km temirjoldı remontlaw kerek; 40 lokomotiv hám 13 júk avtomobil parki óz xızmet múddetin ótep bolǵan. 50-60 jıllardan berli texnologiyalıq sxema jańalanbaydı. [1]

Ózbekstan ekonomikasi hám taǵı basqa mámleketlerdegi sıyaqlı, transporttıń rawajlanıw dárejesine baylanisli. Temirjol transportında tasıw koleminiń tiykarǵı kısmi tashıladı. 2016 jıl temirjolda 62 mln. tonna júk tashıldı, júk oborotı bolsa 22845,6 mln.di quradı.

Jaqın jıllar ishinde transport xızmetine talap ózgeredi. Transport xızmetine bahalar tómendewi kutilmekte. Strukturalıq reforma nátiyjesinde transport shólkemleri operativligi hám maslasıwshańlıǵı asırıladı. Nátiyjede regionlar aralıq avtomobillerde tasıw hám konteynerlerden paydalanıw úlesi asadı. Kerisinshe temirjolda tasıw azayıwı, xawa transportında tasıw ózgermeytuǵınlıǵı kútilip atır. Respublikada dárya transportı az, tek ǵana Surxandarya, Qaraqalpagıstan, Xarezmi hám Sirdarya aymaqlarında bar. Teńiz transportı bolsa joq. Ózbekstan transport sistemasında tiykarǵı mashqala mámlekette teńizge shıǵıwdıń ilajı joq ekenligi bolıp

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

tabiladi. Potencial eksport- import bazarlar araligi ulken (musalı, Qara teńizge shekem 3 mıń km, Moskvaga shekem 3,5 mıń km, Xitaydıń tiykargı portlarına shekem 5 mıń km). Sol sebepli transport gárezetleri satılatuǵın onimniń qunin adewir kóterip jiberedi. Transport magistrali bir neshe mámleket aymaǵınan ótiwin itibarǵa alsaq, Ózbekstan ekonomikası siyasiy turaqlılıq hám sol mámleketlerde transporttıń turaqlı islep turıwına baylanıslı. Odan tisqari belgili bir magistrallar mudami ámeldegi transport kuwati menen bánt musalı, Qazaqistan hám Xitay shegarasında teńizge shıǵıw faktori Ózbekstan ushın ulken áhmiyetke iye, sebebi burıńǵı awqam dáwirinde óndiris kólemine qaraǵanda sirtqi sawda joqarı dárejede bolıp tiykargı másele retinde mámlekette bir qansha básikelese alatuǵın transport quralların tán alardı (temirjol, avtomobil hám aralas). Milliy avialiniya aviasayahat boyınsha Xitay, Ullı Britaniya, Misr, Germaniya, Xindiston, Izrail, Pakistan hám Turkiya mámleketlikler arasinda shartnamaǵa qol qoydı. Búgingi kunge kelip ámeldegi temirjol sisteması (bir qansha jaǵdaylarda avtomobil jolları) MDX, mámleketleri hám Xitayda xalıq aralıq tasıwdı qanatlandırarlı dárejedeǵı bahalarda ámelge asırılmaqta. Bul jaǵday (kórinisi) uzaq dawam etpewi múmkin. [2]

Usınıń sebebinen iri kapital qarjıların jumsaw biraz ertelew bolıp tabıladi. Biraq jaqın keleshek haqqında da oylawımız kerek. Aldi menen, har qıylı variantlar ushın payda hám gárezetlerdi salıstırıp, ekonomikalıq izertlew ótkeriw zárúr, musalı, Pakistan avtomobil jolı qurılısın, Iranǵa temir jolı qurılısın hám t.b Bul izertlewler eki tárep baylanısları ushın ob’ektiv bazanı hám uzaq keleshekke háreketi júzege keltiredi.

Ekonomikada klientler talabın qanatlandırıw ushın turli turdegi transportlar xızmet kórsetiwı zárúr. Har bir xızmet túrine bahalar túrlishe bolıwı kerek. Onnan tisqari ekonomikalıq ózgerislerdi basınan keshirip atırǵan mámleketler ushında, Ózbekstandaǵı sıyaqlı, ózgerisler tez hám óz waqtında kiritiliwı kerek. [2] Gárezetlerge, ózgerisler kiritilse tiykargı fondlardan paydalanıw dárejesi páseyedi, qarjılar hám transport túrleri ortasında resurslardıń bolıstırılıwine ózgerisler kútileti. Basshılar bahalar asıwın tártipke salıwshı nátiyjeli mexanizmdı islep shıǵıw hám ol haqqıy ózine túser bahasına tıykarlanıwı kerek.

Jol infrastrukturası rawajlanǵan mámleketlerde, joldan paydalanıwshılar (júk avtokárxanalari, avtobus kárxanalari hám jeke avtomobil iyeleri) kórilgen ziyanlarǵa juwapker esaplanadi. (Jol jaǵdayınıń talapqa juwap bermewi, jol-transport háreketiniń qıynlasıwı hám qorshaǵan ortalıqtıń zıyan kóriwi) bir qatar mámleketlerde bunday tólew tártibi ámel háreket etip, transport quralına jıllıq salıq, eń tiykargısı jol tarmaǵınnan paydalanıw koefficiyenti menen baylanıslı túrde dizel janılg’ı hám benzin ushın alınatuǵın salıq esaplanadi. [3]

Transport sistemasınıń ekonomikalıq bekkemligi strukturalıq qayta qurıwın ámelge asırıw ilajlarına jáne onı qanday ámelge asırıwǵa baylanıslı. Tiykargı ilimiy máselelerdiń biri tarmaq ushın xoshametlew sistemasın islep shıǵıw, atap aytqanda, bahalar transport hám texnikalıq xızmet kórsetiw túrlerine sáykes keliwı kerek; salıq hám jıymılar haqqıyatında kriteriyalarǵa tıykarlanıwı hámde bazarda básikelese alatuǵın ortalıq jaratiwı kerek. Xoshametlew sistemasındaǵı ózgerisler instruktsiya, sheshim qabıl etiwı hámde basqalar menende sáykes keliwı kerek.

Tek ǵana nátiyjeli xoshametlew sistemasın hám shólkemlestirilgen strukturasın júzege kelgennen keyin mámleket, finanslıq támiynlewdiń tuwrı jolin tapqan dep esaplasa boladı.

Xoshametlew sistemasın rawajlandırıw onim bahası, básike ortalıǵı, joldan paydalanıwshılarǵa salıq dárejesi, menshiklilestiriw tiykarında ámelge asırıladi.

Ózbekstan Respublikası ámeldegi barlıq transport xızmetine bahalardı qatań qadaǵalaw etedi. Ámelde bahalar máselesinde belgili bir ózgeriwshelik (mayısqaqlıq) bolsa da bahalaw sistemasında bir qansha mashqalalar bar bolıp, basshılar nátiyjeli sheshiw jolların qıdırıp atır.

Házirgi waqıtta kóplegen mámleketlerde (musalı, Batis Evropada) talap hám usınıs erkin háreketlana alatuǵın básike bazarı bar. Bunday tájiriye sonı kórsetedi, bul maslasıwshanlıq hám resurslardan nátiyjeli paydalanıw dárejesin asırıwǵa alıp keledi.

Mámleket avtomobil transportı salasında tap sonday bazarlardıń jaratılıwma háreket etiwı kerek. Bir neshe erkin turdegi hám abraylı transport kárxanalari ámelde háreket etpekte, biraq olar mámleket mülki bolıp tabıladi. Jańa jeke menshik transport kárxanaların elede kóbeytiw kerek.

Mámleket qaramaǵındaǵı kárxanalar ortasındaǵı munasábetlerdi rawajlandırıwǵa itibardı

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

kúsheytiw kerek. Kommerciyalıq hám óz-ózin qaplawshi principe isleytuǵın barlıq kárxanalar ayırıqsha (toliq huqıqlı) bolıwları kerek. Kóbisi mámleket múlki bolsada, jeke menshik kárxana statusin alıwları kerek.

Uliwmalastırıp aytqanda, transport kárxanasınıń xızmetler bazarındaǵı báseki dárejesi hám ámeldegi kórsetilip atırǵan xızmetler básekige shıdamlılıǵı, transport infrastrukturasınıń innovciyalıq rawajlanıw dárejesi hám texnikalıq xızmet kórsetiw, awisiq bólekler, janar may-maylaw materialları hám basqa energoresurslardı óndiriwshi yamasa jetkerip beretuǵın sub'ektler ortasındaǵı báseki, transport xızmetine bolǵan qarıydarlar talabınıń turaqlılıǵın, jańa transport túrlerinen paydalanıw hámde zamanagóy texnologiyalardı engize alıw múmkinshilikleri máselelerinde óz ishine aladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-mart, PQ-4230-sonli “Yuk va yo‘lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4229763>
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги. «Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати» 2023 йил
3. В. А. Хо‘jaev Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari.-T.: O‘zbekiston, 2016.- 239 b.

УДК: 331.103

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONASIDA INSON KAPITALIGA INVESTITSIYA KIRITISH TIZIMI VA INSON KAPITALI QIYMATINI BAHOLASH MODEL

СИСТЕМА ИНВЕСТИЦИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И МОДЕЛЬ ОЦЕНКИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ СЕРВИСА

HUMAN CAPITAL INVESTMENT SYSTEM AND HUMAN CAPITAL EVALUATION MODEL IN SERVICE ENTERPRISES

Dauletmuratov Adilbay Mırzabaeovich, Berdaq nomidagi QQDU
“Menejment va iqtisodiyot asoslari” kafedrası docenti,

Annotatsiya

Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish korxonalarida inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishga investitsiyalar kiritish hamda ularning samarasi, korxonada inson kapitalining qiymatini baholash modeli tadqiq qilingan. Shuningdek innovatsion xarajatlari inson kapitalining korxona daromadiga qo‘shgan hissasini belgilovchi muhim omillardan biri sifatidagi ahamiyati bayon qilingan. Bulardan tashqari, inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish tamoyillar tizimi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xizmatlar sohasi, inson kapitali, investitsiya, innovatsion harajatlar, korxona daromadi, majburiy xarajatlar, qo‘shimcha xarajatlar, mehnat xarajatlari, inson kapitali qiymati, motivatsiya.

В данной статье рассматриваются модели инвестиций в формирование и развитие человеческого капитала на предприятиях сферы услуг и их эффективность, а также определение и оценка стоимости человеческого капитала на предприятии. Также описано значение затрат на инновации как одного из важных факторов, определяющих вклад человеческого капитала в доходы компании. Кроме того, представлена система принципов формирования и развития человеческого капитала.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

Ключевые слова: сфера услуг, человеческий капитал, инвестиции, инновационные затраты, доходы предприятия, обязательные затраты, дополнительные затраты, затраты на оплату труда, стоимость человеческого капитала, мотивация.

This article examines the model of investments in the formation and development of human capital in service enterprises and their effectiveness, as well as the determination and evaluation of the value of human capital in the enterprise. The importance of innovation costs as one of the important factors determining the contribution of human capital to the company's income is also described. In addition, the system of principles of formation and development of human capital is presented.

Key words: service industry, human capital, investment, innovation costs, enterprise income, mandatory costs, additional costs, labor costs, value of human capital, motivation.

Bugungu kunda iqtisodiyotning eng harakatchang sohasi hisoblangan xizmatlar sohasida korxonalar, ularning faoliyat ko‘lamidan qat’iy nazar, uzliksiz turda inson kapitaliga investitsiyalar kiritib boradi. Bularga mehnat xarajatlari yoki ish haqi, byudjetdan tashqari jamg‘armalarga majburiy ajratmalar va xodimlarni majburiy o‘qitish uchun xarajatlari kiradi. Korxonalarning bir qismi, ayniqsa faoliyat ko‘lami katta bo‘lmagan, faqat shu faoliyat turi bilan cheklanadi.

Bunday holda, ish haqi xodimni rag‘batlantiruvchi omil, shu bilan birga inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Katta korxonalar, o‘z xodimlariga majburiy investitsiyalardan tashqari, quyidagi qo‘shimcha xarajatlarni sarflaydi: xodimlarni o‘qitish xarajatlari (ish beruvchi uchun ixtiyoriydir), u odatda o‘z ichiga tegishli kasblarni o‘rganish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishni oladi. Xodimlarning ta‘lim darajasini oshirish ham inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishning elementlaridan biridir.

Xizmatlar sohasida korxonada innovatsion faoliyatni takomillashtirish inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishning yana bir muhim sababidir. Bugungi kunda insonning yangi texnologiyalarni, yangi mahsulotlarni loyihalash, ishga tushirish va joriy etish qobiliyati, ya’ni innovatsion jarayonda ishtirok etishi inson kapitalining muhim elementi hisoblanadi. O‘tkazilgan tadqiqot davomida innovatsion xarajatlari inson kapitalining korxona daromadiga qo‘shgan hissasini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligi isbotlandi [3].


Hatto o‘z sohasida tajribali ishchilarni tanlashda ham to‘g‘ri rag‘batlantirish siyosatini olib borish va ularni korxonada saqlab qolish zarur, chunki xodimning o‘z korxonasida to‘plagan tajribasi boshqa korxonada to‘plagan tajribasidan muhimroqdir, chunki har bir korxonaning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud, tajriba esa mehnat unumdorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va ularning mehnat jarayoniga jalb etilishi innovatsion siyosatni amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Xodimlarning katta miqdordagi aylanmasi korxonani malakali kadrlar tanglash qo‘shimcha xarajatlarni qilishga majbur qiladi. Bu korxonaning mehnat unumdorligi va innovatsion faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yo‘qorida keltirilganlarni inobatga olgan holda, innovatsion-faol korxonada inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishni investitsiyalash tizimini quyidagicha ifodalashimiz mumkin (1-rasmga qarang).

Shunday qilib, amalga oshirilgan tahlil korxonada inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish tizimini joriy etish va amalga oshirish bir qator tamoyillar va shartlarga rioya qilishni talab qiladigan murakkab jarayon ekanligi to‘g‘risida xulosa chiqarishimizga imkon beradi. Shu bilan birga, bu tizim innovatsion-faol korxonada ma’lum xususiyatlariga ega bo‘ladi. Ularga korxonada inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishga, xususan xodimlarning innovatsion qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun qo‘shimcha investitsiyalar kiritish kiradi. O‘tkazilgan tadqiqot jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining innovatsion rivojlanishi inson kapitaliga va korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlari inson kapitaliga investitsiyalar kiritishga bog‘liq ekanligi, korxonaning inson kapitalini baholash modelini ishlab chiqishda ushbu omillarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”



1-rasm. Korxonada inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishiga investitsiya kiritish tizimi [3]

Inson kapitalini baholashning mahalliy va xorijiy yondashuvlar tajriba shuni ko'rsatadi, ularning barchasi o'ziga xos xususiyatlariga va kamchiliklariga ega. Qoidaga ko'ra, mavjud texnikaning murakkabligi hisoblash uchun zarur ma'lumotlarni olishdagi qiyinchiliklardan iborat. Shuning uchun, ishlab chiqilayotgan modelning asosi sifatida eng keng tarqalgan xarajatlar bo'yicha yondashuvni, modelni shakllantirishning metodologik asosi sifatida foydalanish uchun eng qulay va inson kapitalining qiymatini real aks ettiradigan metodologiyani (inson salohiyati xalqaro indeksini hisoblashning umumiy metodologiyasi) olish zarur.

O'tkazilgan tadqiqotlarga asoslanib, xizmatlar sohasi korxonalarida inson kapitalining qiymatini baholash modelining asosiy shartlari quyidagilar bilan izohlanadi:

- xizmatlar sohasidagi korxonalarda inson kapitalini baholash zaruriyati;
- xizmatlar sohasi korxonasining inson kapitaliga investitsiyalarini hisobga olish;
- xizmatlar sohasi korxonasining innovatsion rivojlanish natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanish;
- xizmatlar sohasi korxonasi xodimlarining motivatsiyasini hisobga olish;
- xizmatlar sohasi korxonasida inson kapitaliga investitsiyalarning qaytimligini ta'minlash.

Qo'llaniladigan usullarning asosiy tamoyillaridan foydalangan holda, shuningdek, korxonaning inson kapitalini shakllantirishda umumiy qabul qilingan va o'ziga xos omillarni hisobga olgan holda, korxonaning inson kapitalini to'g'ri baholash taklif etiladi:

$$IKQ = I * I_{KKIRQH} \quad (1)$$

bu erda, IKQ – inson kapitalining qiymati, so'm;

I – ish beruvchining inson kapitaliga investitsiyasi, so'm;

I_{KKIRQH} – inson kapitalining korxonaning investitsion rivojlanishiga qo'shgan hissasi indeksi, birlik ulushlarda.

Keltirilgan ko'rsatkichlarga asoslanib shuni aytish kerak, inson kapitaliga sarflangan xarajatlar har doim ham to'liq qaytimga ega bo'lmasligi mumkin, "inson kapitaliga investitsiyalar" ko'rsatkichini korxonaning innovatsion rivojlanishiga inson kapitalining qo'shgan hissasi indeksini

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

hisobga olish esa, korxonaning innovatsion rivojlanishiga ta’sirini hisobga olgan holda inson kapitali qiymatini aks ettiradi.

Shunday qilib, xizmatlar sohasida korxonaning moliyaviy holati u qanday inson kapitaliga ega ekanligi va ushbu inson kapitali korxonaning innovatsion faoliyatida qanday ishtirok etishiga bog‘liq. Shu bois “Korxonaning innovatsion rivojlanishiga inson kapitalining qo‘shgan hissasi indeksi” ko‘rsatkichi quyidagi ikkita elementni hisobga olishi kerak:

1) xizmatlar sohasida inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanishning natijasi hisoblangan korxonaning innovatsion rivojlanishi;

2) xizmatlar sohasida inson kapitalining har tomonlama rivojlanishi.

$$I_{IKKIRQH} = I_{KIR} \times I_{IKR} \quad (2)$$

bu erda, $I_{IKKIRQH}$ – inson kapitalining korxonaning investitsion rivojlanishiga qo‘shgan hissasi indeksi, birliklarda;

I_{KIR} – xizmatlar sohasida korxonaning innovatsion rivojlanishida foydalaniladigan inson kapitalining samaradorligini aks ettiruvchi korxonaning innovatsion rivojlanish indeksi, birlik ulushlarda;

I_{IKR} – xizmatlar sohasi korxonasida mavjud inson kapitalining uning kequsida innovatsion rivojlanishiga ta’sir qilish darajasini aks ettiruvchi inson kapitalining rivojlanish indeksi, birlik ulushlarda.

Korxonaning innovatsion rivojlanish indeksini korxonaning inson kapitaliga investitsiyalarning o‘rtacha geometrik mahsuloti sifatida aniqlash taklif etiladi, chunki innovatsion faoliyat yuqori rivojlangan inson kapitali va ma’lum bir davrdagi innovatsion faoliyat samaradorligining natijasidir:

$$I_{KIR} = \sqrt{k_{IKI} \times (1 + k_{IFS})} \quad (3)$$

bu yerda, I_{KIR} – korxonaning innovatsion rivojlanish indeksi, birlik ulushlarda;

k_{IKI} – inson kapitaliga investitsiya koeffitsienti (bu ko‘rsatkich korxonaning umumiy xarajatlarida inson kapitalini rivojlantirish xarajatlarining hissasini aks ettiradi), birlik ulushlarda;

k_{IFS} – innovatsion faoliyat samaradorligi koeffitsienti (bu ko‘rsatkich innovatsion faoliyatning korxonaning moliyaviy holatiga ta’sir qilish darajasini ko‘rsatib beradi), birlik ulushlarda.

$$k_{IKI} = \frac{I}{\text{korxonaning umumiy xarajatlari}}, \quad (4)$$

bu yerda, I – ish beruvchining inson kapitaliga investitsiyasi (ish beruvchining inson kapitaliga majburiy va qo‘shimcha xarajatlari), so‘m.

Ko‘pchilik holatlarda innovatsion faoliyatning samarasi sifatida korxonada innovatsiyani jalb qilishning iqtisodiy natijasi qaraladi va tadbirlarning iqtisodiy natijasi bilan uning xarajatlari o‘rtasidagi ayirma sifatida hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar korxonaning innovatsion faoliyatning rivojlanishi bo‘yicha ichki hisobot sifatida ko‘rsatiladi. Korxonaning moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri “korxonaning umumiy xarajatlari” hisoblanadi, ko‘pchilik innovatsion loyihalar uni kamaytirishga yo‘naltirilgan, shu bois innovatsion faoliyat samaradorligi koeffitsientini quyidagicha aniqlash taklif etiladi:

$$k_{IFS} = \frac{\text{Korxonaning innovatsion faoliyatining samarasi}}{\text{Korxonaning umumiy xarajati}}, \quad (5)$$

Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasining innovatsion rivojlanish indeksining ahamiyati, uni belgilash mantig‘idan kelib chiqqan holda, har doim manfiy bo‘lmagan ko‘rsatkich hisoblanadi.

Kvadrat ildiz ostidagi raqamga qarab, shuni aytishimiz mumkinki, xizmatlar sohasida inson kapitaliga investitsiyalar nisbati 1 dan katta bo‘lishi mumkin emas, chunki u inson kapitali xarajatlarining korxonaning umumiy xarajatlarga nisbatiga tengdir. Korxonaning innovatsion faoliyati samarasining korxonaning umumiy xarajatlarga nisbati bo‘yicha aniqlanadigan innovatsion faoliyat koeffitsienti o‘z navbatida salbiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin, chunki innovatsion faoliyat samarasi hamma vaqda ham ijobiy bo‘lmasligi mumkin.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

Salbiy xususiyatga qo‘shimcha ravishda, korxonaning innovatsion faoliyati samaradorligi koeffitsienti va inson kapitalini rivojlantirish uchun xarajatlar koeffitsienti 1 dan oshmaydi, chunki ijobiy va salbiy qiymatlar umumiy xarajatlarga teng kelmasligi mumkin. Bu korxonalar tomonidan kamdan-kam qo‘llaniladigan yuqori xavfli innovatsiyalar uchun bo‘lishi mumkin. Innovatsion faollik koeffitsienti bo‘yicha salbiy natija bo‘lsa, ijobiy qiymat uning yig‘indisini 1 bilan beradi.

Shunday qilib, xizmatlar sohasida inson kapitaliga investitsiyalar koeffitsienti 0 dan 1 gacha, korxonaning innovatsion faollik koeffitsienti esa -1 dan +1 gacha bo‘lgan qiymatga ega mumkin.


Tadqiqot natijasiga muvofiq, differentsial boshqaruv maqsadlari uchun xizmatlar sohasida korxonaning innovatsion rivojlanish indeksi qiymatining umumiy oralig‘ini grafik tarzda tasvirlaylik: 0 dan 0,3 gacha - korxonaning innovatsion rivojlanishining past darajasi, 0,31 dan 0,6 gacha - o‘rtacha daraja, yuqori daraja sifatida 0,6 dan yuqori (2-rasmga qarang).

Shunday qilib, korxonaning inson kapitalining rivojlanish indeksi yuqoridagi ko‘rsatkichlarning o‘rtacha geometrik qiymati sifatida aniqladi:

$$I_{IKR} = \sqrt[3]{k_t * k_{KT} * k_{PM}} \quad (6)$$

$$k_t = \frac{\text{sohada uch yildan ortiq tajribaga ega bo'lgan xodimlar soni}}{\text{xodimlarning o'rtacha soni}}, \quad (7)$$

bu yerda k_t – xodimlarning tajriba koeffitsienti, birlik ulushida,



2-rasm. Xizmatlar sohasida korxonaning innovatsion rivojlanish indeksining differentsial qiymati (birlik ulushida) [4]

$$k_{kt} = \frac{\text{uch yil ichida o'qitilgan xodimlar soni (malaka oshirish va qayta tayyorlashdan o'tgan)}}{\text{xodimlarning o'rtacha soni (XO'S)}}, \quad (8)$$

bu yerda k_{kt} – xodimlarning kasbiy tayyorgarlik koeffitsienti, birlik ulushida,

$$k_{pm} = \frac{1}{(\text{uzirsiz sabablarga ko'ra o'z hoqishiga ko'ra ishdan bo'shatilgan xodimlar soni}) / XO'S * 100} \quad (9)$$

bu yerda k_{pm} – xodimlarni motivatsiyalash koeffitsienti, birlik ulushida.

Ushbu koeffitsientlarning mahsuloti bu omillarning umumiy ko‘rsatkichga ta’sir qilish darajasini hisobga olish, har bir koeffitsientning qiymati va uning umumiy ko‘rsatkichga ta’sirini aniqlash zaruriyati bilan bog‘liq. Shu bilan birga, xodimlarni rag‘batlantirish (motivatsiya) koeffitsienti kadrlar almashuvi darajasiga teskari proportsionaldir, o‘z hoqishi bilan ishdan bo‘shashning uzirsiz sabablariga (uzirli sabablar bundan mustasno) quyidagilar kiradi: boshqa

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

hududdagi doimiy yashash joyiga ko‘chib o‘tish, bolani 2 yashga to‘lgunga qadar parvarishlash va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa sabablar. Shuni ta’qidlash kerakki, agar yuqoridagi ko‘rsatkichlardan biri (k_t , k_{kt} , k_{pm}) nolga teng bo‘lsa, u hisoblashda hisobga olinmaydi.

Tadqiqot natijalariga muvofiq, xizmatlar sohasida inson kapitalining rivojlanish indeksi, shuningdek, yuqorida muhokama qilingan korxonalarining innovatsion indeksi salbiy qiymatga ega bo‘lishi mumkin emas, chunki tadqiqot davomida foydalanilgan koeffitsientlarning qiymatlari salbiy bo‘lmagan qiymatlardir. Shunday qilib, tajriba koeffitsienti 0 dan 1 gacha bo‘lgan qiymatni olishi mumkin, chunki sohada (korxonada) uch yildan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan xodimlar soni xodimlarning o‘rtacha sonidan oshmasligi kerak. Kasbiy tayyorgarlik koeffitsienti 0 dan 3 gacha bo‘lgan qiymatni olishi mumkin, chunki uch yil ichida barcha xodimlarni o‘qitish sharti bilan o‘qitilganlar soni uning sonidan uch barobar ko‘p bo‘lishi mumkin. Xodimlarni motivatsiyalash koeffitsienti xizmatlar sohasi korxonalarida kadrlar almashuvi koeffitsientiga bog‘liq bo‘lib, uning qiymatini hisoblash uchun xizmatlar sohasida kadrlar almashuvi tezligini (me’yorini) hisoblaymiz.

Tadqiqotlar natijasiga asoslanib shuni aytishimiz mumkin, xizmatlar sohasi korxonasida inson kapitalining qiymatini aniqlashga taklif etilayotgan yondashuv korxonaning innovatsion rivojlanishiga ta’sirini hisobga olgan holda korxonaning inson kapitalining qiymatini aks ettiradi. Muayyan davr dinamikasida taklif qilingan usul bo‘yicha hisoblangan inson kapitali xarajatlari va uning haqiqiy qiymatini taqqoslab, biz korxonadagi inson kapitalining holati va undan foydalanish samaradorligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dauletmuratov A. M. Factors of formation and development of human capital in the enterprise. // Ученые XXI века. Международный научный журнал. Россия. №4 (85) апрель 2022 г. стр. 24-27. ISSN 2410-3586
2. Корчагин Ю.А. Стоимость национального человеческого капитала. The cost of national HC // TSIRE: Центр исследований региональной экономики. LERC: local economics research center <http://www.lerc.ru/?part=articles&art=3&page=32> (December, 2014)
3. Худякова Е.Г. Человеческий капитал как фактор конкуренто-способности предприятия / Е. Г. Худякова // Международный научно-исследовательский журнал. – 2015. – № 6 (37) (ч. 3). – стр. 124–126
4. Usmonov B.SH., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli (ilmiy-ommabop risola). – Samarqand: SamDU, 2015. -29 b.

MINTAQADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI

SOCIO-ECONOMIC AND LEGAL BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN THE REGION

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В РЕГИОНЕ

Dosekeev Juginis Idirisovich QQDU, assistant o‘qituvchi

Annotatsiya

O‘zbekiston boshqa ko‘plab davlatlar qatori mintaqalarning iqtisodiy o‘ssishi va xorijiy sarmoyani jalb qilish uchun turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Ayni paytda turizm salohiyati katta, lekin qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash va sarmoyaga muhtoj hududlarda turizmni rivojlantirish bo‘yicha qator choralar ko‘rilmoqda.

Shunday mintaqalardan biri Orol dengizi va unga tutash mintaqadir. Orolbo‘yi mintaqasiga sayyohlarni jalb etish maqsadida turli tadbirlar, jumladan, festivallar, ko‘rgazma va tanlovlar, respublika ichida va xorijda reklama kampaniyalari o‘tkazilmoqda, turizm infratuzilmasi jadal rivojlantirilmoqda.

Kalt so‘zlar: turizm, mintqa turizmi, turizmning tashkiliy-huquqiy asoslari, turizm infratuzilmasi, sayyohlar, kirish turizmi, Orol dengizi, ekoturizm.

Uzbekistan, along with many other countries, pays great attention to the development of tourism for the economic growth of regions and attracting foreign investment. Currently, a number of measures are being implemented to develop tourism in regions that have great tourism potential, but require additional support and investment.

One of such regions is the Aral Sea and the adjacent region. In order to attract tourists to the island region, various events are held, including festivals, exhibitions and competitions, advertising campaigns within the republic and abroad, and the tourism infrastructure is rapidly developing.

Key words: tourism, regional tourism, organizational and legal basis of tourism, tourism infrastructure, tourists, inbound tourism, Aral Sea, ecoturism.

Узбекистан, наряду со многими другими странами, уделяет большое внимание развитию туризма для экономического роста регионов и привлечения иностранных инвестиций. В настоящее время реализуется ряд мер по развитию туризма в регионах, обладающих большим туристическим потенциалом, но нуждающихся в дополнительной поддержке и инвестициях.

Одним из таких регионов является Аральское море и прилегающий к нему регион. В целях привлечения туристов в островной регион проводятся различные мероприятия, в том числе фестивали, выставки и конкурсы, рекламные кампании внутри республики и за рубежом, бурно развивается туристическая инфраструктура.

Ключевые слова: туризм, региональный туризм, организационно-правовые основы туризма, туристическая инфраструктура, туристы, въездной туризм, Аральское море, экотуризм.

Ma'lumki, turizm dunyoning ko‘plab mamlakatlarida mintqa iqtisodiyotning muhim tarmog‘i bo‘lib, hududlarni rivojlantirish asosiy vositalarining biri hisoblanadi. Sohaning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko‘plab omillarga, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslarga bog‘liq.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha zarur tashkiliy-huquqiy, qonuniy-me‘yoriy asoslar yaratilib, dunyoda sohaning rivojlanishi tendentsiyasiga qarab takomillashtirilib kelinmoqda.

Tadqiqotimizda turizm sohasini rivojlantirishining tashkiliy-huquqiy asoslarini tahlil qilishda, ularni ko‘yidagi davrlarga va yo‘nalishlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikga erishgan kunidan 2016 yilgacha turizmni rivojlantirishga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar;

2. 2016 yildan boshlangan turizm sohasini ilohatlarga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar;

3. Orolbo‘yi mintaqasida, jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar.

O‘zbekistonda turizm sohasini tartibga solish va rivojlantirishning huquqiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida» (1999 y.) Qonuni (hozirgi kunda yangi tahrirda qabul qilingan) tashkil etadi. Ushbu qonun turizm sohasidagi asosiy tushunchalarni, turizm faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish qoidalarini belgiladi. qonunning muhim jihatlaridan biri turizm infratuzilmasini rivojlantirish talabidir. Qonunda davlat turizm infratuzilmasini rivojlantirishga, shuningdek, turistik obektlar va diqqatga sazovor joylarni yaratish va yaxshilashga ko‘maklashishi shartligi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, davlat mintaqaviy turizmni rivojlantirish va turistik yo‘nalishlar yaratishni qo‘llab-quvvatlashi masalalariga ham tuxtalgan.

Albatta, mustaqilligimizning ilk yillaridan turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi bejizdan emas. Chunki, O‘zbekiston turizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Mamlakatimizda 7400 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari mavjud bo‘lib, ulardan 209 tasi YuNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bundan tashqari, mamlakatimizda 11 ta milliy bog‘lar va davlat qo‘riqxonalari, 12 ta qo‘riqxona, 106 ta muzey va sayyohlarni o‘ziga jalb eta oladigan boshqa ko‘plab ob'ektlar mavjud [9].

Lekin, afsuski, ushbu salohiyatdan to‘liq foydalanildi deb aytish qiyin, sababi, sohada o‘rish jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichlardan past darajada edi.

2016 yildan O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini isloh qilishga alohida e‘tibor qaratilgan davr boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 02.12.2016 yildagi PF-4861-son Farmoni ushbu islohatlarning birinchi qadami sifatida namoyon bo‘ldi.

Farmonning maqsadi - O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik muhim tarmog‘i bo‘lgan turizmni jadal rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaxshilashdan va barcha hududlarning turizm salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, turizmni boshqarishni takomillashtirish, noyob milliy turizm mahsulotini yaratish va jahon bozorlarida ilgari surish hamda turizm sohasida O‘zbekistonning ijobiy imidjini shakllantirishdan iborat.

O‘zbekistonning turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari ko‘rsatish darajasi va ushbu sohani boshqarish tizimi globallashtirish va keskin raqobat sharoitida zamonaviy talablarga javob bermasligi ta‘kidlandi. Turizm sohasida litsenziyalash, sertifikatlashtirish va litsenziyalashning boshqa tartiblarini takomillashtirish maqsadida davlat tomonidan tartibga solishning yangi mexanizmlari belgilandi. Masalan, 2017 yil 1 yanvardan turizm faoliyatini litsenziyalash funktsiyalari yangi tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasiga o‘tkazildi. Shuningdek, 2018 yildan boshlab xorijiy sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi umumiy ovqatlanish va transport korxonalari turistlarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta‘minlash maqsadida sertifikatlashtirishdan o‘tishi shartligi belgilandi. Shu bilan birga, mehmonxonalar va boshqa yashash joylari uchun litsenziya olish talabi bekor qilindi.

Farmonning imzolanishi O‘zbekiston viza siyosati tubdan takomillashtirildi. Jumladan, 2017 yil aprel oyi boshidan 15 davlat (jumladan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, AQSh) sayyohlari uchun viza rejimi bekor qilindi. Xitoy, AQSh va Vetnam kabi boshqa 12 davlatdan kelgan sayyohlar uchun 55 yoshga to‘lgan va 30 kundan ortiq bo‘lmagan muddatga tur guruhlarida sayohat qilganlar uchun viza rejimi bekor qilindi. Yagona turistik vizalar joriy etildi, viza olish tartibi,

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

jumladan, onlayn viza anketasini to‘ldirish sezilarli darajada soddalashtirildi, elektron viza tizimi joriy etish vazifasi qo‘yildi. Shuningdek, Farmonda davlat chegarasi orqali aeroportlar, vokzallar va boshqa nazorat-o‘tkazish punktlarida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish talabi ham qayd etildi, turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, jumladan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turizm tashkilotlariga qo‘shimcha imtiyoz va preferentsiyalar berish bo‘yicha ham muhim chora-tadbirlar belgilandi.

O‘zbekistonning eng noyob joylaridan biri - Toshkent shahri bo‘lib, ko‘plab muzeylar va tarixiy obidalar, shuningdek, tabiat qo‘ynidan bahramand bo‘ladigan bog‘lari bilan mashhur. Misol uchun, poytaxtning markazida masjid, muzey, kutubxona va maqbaradan iborat Xast-Imom majmuasi joylashgan. Bu yerda 7-asrda yozilgan Qur‘on kabi eng nodir tarixiy yodgorliklar jamlangan bo‘lib, ular butun dunyodan sayyohlarni o‘ziga tortadi.

YuNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Samarqandning me‘moriy obidalarini O‘zbekistonning asosiy ramzlaridan biridir. Bu qadimiy shahar islom madaniyatining markazi va Ipak yo‘lining ahamiyatli qismidan biri bo‘lgan. Samarqandda Registon, Gur amir, Shoxi Zinda va boshqa ko‘plab diqqatga sazovor joylarni o‘z ichiga olgan noyob me‘morchilik nomunalari mavjud.

Buxoro va Xiva tarixiy diqqatga sazovor joylari bilan sayyohlarni o‘ziga jalb etadigan O‘zbekistonning yana ikkita mashhur shaharlaridir. Yer yuzidagi eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lgan Buxoro Markaziy Osiyodagi islom madaniyati va merosining markazi hisoblanadi. Shaharda Kalon masjidi, Lyabi-Xauz majmuasi, Poy-Kalon majmuasi, Bahouddin Naqshbandiy majmuasi va boshqa ko‘plab me‘moriy yodgorliklarni ko‘rish mumkin. O‘zbekistonning g‘arbiy qismida joylashgan Xiva ham o‘zining betakror me‘morchiligi va madaniy merosi bilan sayyohlar uchun mashhur maskan hisoblanadi. Bu yerda Xiva qal‘asining qadimiy devor va minoralari, Islom-xo‘ja majmuasi, Ravkitab madrasasi va o‘zining betakror me‘morligi bilan ajralib turadigan boshqa yodgorliklarni ko‘rish mumkin.

Sayyohlar uchun yana bir qiziqarli joy Qo‘qon bo‘lib, u yerda Xudoyorxon qal‘a majmuasi joylashgan. Bu joy O‘zbekiston tarixida o‘z izini qoldirgan va sayyohlarga mahalliy urf-odat va an‘analalar bilan tanishish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi.

The article examines the main results of institutional reforms implemented in agriculture, as well as approaches to the meaning and significance of the concept of contractual relations based on market mechanisms. Currently, when business entities make strategic business decisions based on the regulatory rules of the institutional environment, scientific proposals and practical

recommendations have been developed regarding the relationships between entities or the costs associated with each transaction.

Key words: institutional reforms, contractual relations, agrarian relations, contractual institution, transaction, property rights, contract, risk, risk.

Kuchli darajada markazlashgan va davlat mulki monopol mavqega ega bo‘lgan eski agrar munosabatlar o‘zining samarasiz ekanligi bois, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan yangi tipdagi agrar munosabatlarga o‘z o‘rnini bo‘shatib berdi. Bu qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning asosiy natijalaridan biridir. Hozirgi agrar munosabatlarni rivojlanish negizida bozor mexanizmlariga asoslangan shartnomaviy munosabatlar yotadi. Ammo eski agrar munosabatlar inersion ravishda yangi bozor mexanizmlarini ishlashini qiyinlashtirmoqda. Qishloq xo‘jaligi sohasida shartnomaviy munosabatlar keng avj olganiga qaramasdan, shartnoma tuzish va uni bajarish borasida ko‘plab muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolarning echimini topishda shartnoma institutining mohiyatini anglash muhim ahamiyatga ega.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar strategik tadbirkorlik qarorlarini qabul qilishda institutsional muhitning me‘yoriy qoidalaridan kelib chiqadilar. Bu subyektlar o‘rtasidagi munosabatlar yoki har bir transaksiya (kelishuv, bitim) bilan bog‘liq xarajatlar, ya‘ni transaksiya xarajatlarni ortib ketishidan saqlaydi. “Lekin bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri uchun xos bo‘lgan institutsional muhitning umumiy me‘yoriy qoidalari hali shakllanish va rivojlanish bosqichida ekanligi sababli, iqtisodiyotda soxta tadbirkorlik va nosog‘lom raqobat hollari uchray turadi” [1]. Bu hol rasmiy qoidalarni turlicha talqin qilish imkoniyati mavjud bo‘lganda har bir tadbirkorlik subyekti o‘zi uchun ko‘proq manfaatli yo‘lni tanlashi tarzida namoyon bo‘lishi mumkin.

Individlar mulkiy huquqlar bilan almashish mobaynida muqarrar ravishda shartnomaviy munosabatlarga kirishadilar. O‘tmishda shartnomaning og‘zaki ko‘rinishi ham keng tarqalgan edi va u hozir ham mahalliy bozor va qarindosh-urug‘chilik aloqalari yoki yagona maqsad bo‘yicha birlashgan individlar guruhlarida o‘rtasida amal qilish hollari mavjud. Bugungi kunda mulkiy munosabatlarni amalga oshirishda asosan yozma shartnoma qo‘llaniladi. Shartnomaning yozma shaklda bo‘lishi, iqtisodiy munosabatlardagi transaksiya xarajatlarni kamaytiradi.

Shartnomani tuzish bosqichlariga qarab transaksiya xarajatlar ikkiga bo‘linadi. Ya‘ni shartnomani tuzishdan oldin va shartnoma tuzilganidan so‘ng vujudga keladigan transaksiya xarajatlar. Biznes uchun hamkor, resurs, xomashyo topish maqsadida axborot yig‘ish hamda muzokaralar olib borish xarajatlari, tovar va xizmat sifatini aniqlash, shartnomani tuzishga sarflanadigan xarajatlar shartnoma tuzilgunga qadar yuzaga chiqadigan transaksiya xarajatlardir. Shartnoma shartlariga amal qilinishi ustidan nazorat qilish hamda uchinchi shaxslardan himoyalash xarajatlari shartnoma tuzilganidan keyingi transaksiya xarajatlar jumlasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasida shartnoma “ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi” [2] deb ta’riflangan. Tabiatiga ko‘ra shartnomaning ikki turi mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishda “yollash shartnomasi” va “sotish shartnomasi” deb nomlash mumkin. Bunga sabab individlar psixologiyasining turlicha ekanligidir. Ularning tavakkal qilishga munosabatlari ham turlicha bo‘ladi. Ya‘ni ular tavakkalga moyil yoki moyil bo‘lmasligi, yoki mutlaqo befarq bo‘lishi mumkin. Shartnoma shartlariga qarab undagi tavakkalchilik va xatar darajasi ham turlicha bo‘ladi. SHu bois individlar o‘zlarining psixologiyalariga muvofiq keladigan shartnoma turini tanlaydilar.

Birinchi turdagi shartnomada individlarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari chuqurroq hisobga olinadi. Shartnomaning ushbu turidagi munosabatlar yollanma ishchi va ish beruvchi munosabatlariga xos bo‘lib, odatda yollanma ishchi tavakkalga moyil emas. Shu bois u tavakkalga moyil yoki befarq bo‘lgan ish beruvchi tomonidan taklif etilayotgan shartlarga va qat’iy belgilangan daromad, maoshga rozi. Bu esa, o‘z navbatida, ish beruvchiga o‘z sarmoyasini xatarga qo‘yish orqali yuqori daromad olish imkoniyatini beradi. Boshqacha aytganda yollanma ishchi ish beruvchining foydasiga sherik bo‘lmaydi, lekin ushbu foydani yaratishga o‘z hissasini qo‘shadi. Yollash shartnomasi me‘yorlariga muvofiq yollanma ishchining xatti-harakatlari ish beruvchining

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

qarori va oldindan belgilab bergan chegaralariga muvofiq kelishi lozim. Ya’ni shartnomaning bajarilishi mobaynida yollanma ishchi belgilangan vazifalarni bajaradi va uning xatti-harakatlari ish beruvchi tomonidan belgilangan umumiy qoidalar doirasida bo‘ladi. Shartnomaning amal qilish vaqtida yollanma ishchi o‘z mehnatidan tashqari boshqa mol-mulkini korxona faoliyati bilan bog‘lamaydi va xatarga qo‘ymaydi. Shuningdek uning daromadi korxonaning shartnomada belgilangan miqdorda bo‘ladi.

Ikkinchi tur shartnoma, ya’ni sotish shartnomasida individlar psixologik xususiyatlari jihatidan yaqin. Ya’ni sotish shartnomasida tomonlar tavakkal qilishga bir xil munosabatda bo‘ladi. Ular shartnoma tuzish orqali konkret vazifalarni hal etish imkonini yaratadilar. Har ikki shartnomada ham mulkiy huquqlarning o‘ziga xos spetsifikatsiyasi mavjud. Ya’ni tomonlar mulkiy huquqlar bilan almashadilar. Aynan shartnoma tomonlarining mulkiy huquqlar bilan o‘ziga xos tarzda almashinishi ushbu shartnoma turlarini bir-biridan ajratib turuvchi asosiy farqidir. Yollash shartnomasi shartlariga ko‘ra yollanma ishchi o‘z xohishiga binoan ish beruvchiga o‘zining xatti-harakatlari ustidan nazorat qilish huquqini topshiradi. Albatta, shartnoma doirasidan tashqarida u o‘z xatti-harakatlarini o‘zi nazorat qiladi. Shu bilan birga, shartnoma muddati tugaganidan so‘ng ish beruvchiga ixtiyoriy ravishda topshirgan huquqlarini o‘ziga qaytarib olish imkoni ham saqlanib qoladi. Sotish shartnomasida esa tomonlarning mavqei teng bo‘lib, shartnoma amal qilish muddati mobaynida murosasozlik harakatlarini oldini olish maqsadida doimiy ravishda bir-birlarining xatti-harakatlarini nazorat qilishga majbur bo‘ladilar.

Demak, shartnoma instituti individlarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib mulkiy huquqlar bilan almashishlarining aniq me’yorlarini belgilab beradi. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, umuman inson kapitalini realizatsiya qilish mulkiy huquqlarni almashishni taqozo etadi. Shartnoma instituti xo‘jalik yuritishdagi ahamiyati haqida gapirganda, shuni ta’kidlash o‘rinliki, uni o‘rganish o‘tish davrida xo‘jalik yuritishning eng asosiy muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadigan – korxona transaksiya xarajatlarini maqsadga muvofiqligini ta’minlash muammosi echimini topishga yordam beradi. Chunki hozirgi zamonda transaksiya xarajatlarning asosiy qismi aynan huquqiy munosabatlar bilan bog‘liqdir. Tadbirkorning transaksiya xarajatlari hajmi davlat tomonidan u yoki bu huquqiy me’yorlarni kuchga kiritish, ularni soddalashtirish, shartnomalarni rasmiylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi yoki qisqartirilishi mumkin. Shu bilan birga tadbirkorlarga ba’zi tortishuvli masalalarni uchinchi taraf, ya’ni sud orqali hal etish imkoniyati berilishi hamda mulkiy huquqlar bilan almashuvni amalga oshirish ustidan nazoratni moliyalashtirish tadbirkorlar zimmasiga yuklanishi mumkin (shartnomalarni notarial tasdiqlatish). Demak, shartnoma institutini o‘rnatishda asosiy xo‘jalik yuritish erkinliklarini buzmaslik tamoyiliga amal qilish katta ahamiyat kasb etadi. “Shartnomani tuzish orqali individlar nafaqat mulkiy huquqlar bilan almashadilar, balki shartnoma shartlari bo‘yicha ma’lum majburiyatlarni o‘z zimmlariga oladilar” [3]. Ushbu majburiyatlar tomonlarni shartnoma shartlariga ma’lum muddat mobaynida amal qilishlarini va sifatli bajarishni ta’minlaydi. Majburiyatlarning bajarilmaslik holatlari yuz bergan taqdirda javobgarlik instituti ishga tushadi. Fuqarolik kodeksining 357-moddasida shartnoma tuzilgan paytidan boshlab kuchga kirishi va tomonlar uchun majburiy bo‘lib qolishi belgilangan. Shuningdek shartnomaning amal qilish muddati tugashi tomonlarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi. Demak, hatto shartnomaning amal qilish muddati rasman tugaganidan so‘ng ham tomonlar o‘z haq-huquqlarining buzilishi holatlari bo‘yicha ikkinchi tomonni javobgarlikka tortishni talab qilishga haqli. Bu esa individlarni shartnoma tuzish va uni shartlarini amalga oshirishga jiddiy yondashishlari talab qiladi. Javobgarlik institutining mavjudligi bois individlar shartnomada shartlashilgan amallarni ixtiyoriy ravishda bajara boshlaydilar, ya’ni javobgarlik instituti shartnomalarning “so‘zsiz” bajarishini ta’minlaydi.

Bugungi kunda respublikamiz agrar iqtisodiyotida keng quloch yoyib borayotgan shartnomaviy munosabatlar tahlili ular rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari mavjud ekanligidan dalolat beradi. Mamlakatimizda yer – ommaviy mulk hisoblanadi, unga egalik huquqi davlat ixtiyoridadir. “Qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar undan muddatli ijara va meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida foydalanadilar” [4]. “Shu bilan birga qishloq xo‘jaligi korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklarining a’zolari xo‘jalik mol-mulkiga, asosiy

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

fondlar va ishlab chiqarish vositalariga nisbatan muayyan mulkiy huquqlarga ega bo‘ldilar” [4]. “Natijada qishloq xo‘jaligida haqiqiy mulkdorlar sinfini va yangi agrar munosabatlarni shakllantirish, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish sharoitlarini o‘zgartirish hamda qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash sanoati, savdo va boshqa tarmoqlar orasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirishga zamin yaratildi” [5].

Agrar sohada bozor iqtisodiyotiga xos erkin iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish jarayoni, avvalo, eskicha xo‘jalik yuritish shakllari va munosabatlariga to‘la barham berish, ular o‘rnida yangilarini vujudga keltirish, davlat mulkini xususiylashtirib, xo‘jalik mol-mulkini uning haqiqiy egalari bo‘lib berishdangina iborat emas. Buning uchun olib borilayotgan institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirish orqali xo‘jalik yuritish subyektlarining xo‘jalik qarorlari qabul qilishdagi erkinligini oshirish va ular orasida sog‘lom raqobatni vujudga keltirish, mulkiy huquqlar himoyasini kuchaytirish, rasmiy mulkdorlarni emas, balki haqiqiy mulkdorlarni shakllantirishga, ularning mulkdan kelayotgan foydani ko‘paytirishlari uchun me‘yoriy shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Yuqoridagi vazifalarga erishishda shartnoma institutini takomillashtirishga kuchli e‘tibor qaratilishi muhim. Agrar iqtisodiy munosabatlarda keng qo‘llanilayotgan shartnomalar qatoriga ijara hamda o‘z poyoniga etayotgan kontraktatsiya shartnomasi kiradi.. Shuningdek servis korxonalar va qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarning o‘rtasidagi munosabatlarda oldi-sotdi shartnomasi keng tarqalgan. “Sobiq shirkat xo‘jaliklarida oila pudrati shartnomasi ijara shartnomasining turi bo‘lib, unga ko‘ra ichki bo‘linma shirkat xo‘jaligi (yoki boshqa qishloq xo‘jalik korxonasi) buyurtmasiga asosan ishni tashkil qilgan va ma‘lum haq evaziga kelishilgan muddatlarda ma‘lum qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirib topshirgan” [4]. “Kontraktatsiya shartnomasi esa qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchi va uni tayyorlovchi yoki qayta ishlovchi korxonalar o‘rtasidagi munosabatni tartibga solidi” [4]. Fuqarolik kodeksining 465-moddasiga asosan “Kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun bunday mahsulotni xarid qiladigan shaxsga — tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish (topshirib turish) majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa bu mahsulotni qabul qilish (qabul qilib turish), uning haqini shartlashilgan muddatda muayyan bahoda to‘lash (to‘lab turish) majburiyatini oladi” [2].

Yuqoridagilarni inobatga olib, agrar sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yollash shartnomasiga nisbatan sotish shartnomasini amalda joriy etish maqsadga muvofiq. Sobiq shirkat xo‘jaliklarida amal qilgan “oilaviy pudrat” shartnomasi yollash va sotish shartnomalariga xos elementlar uchraydi. Bu shartnomaviy munosabatlarni yanada takomillashtirish lozimligidan dalolat beradi. Kontraktatsiya shartnomalari samarali bo‘lishiga esa tomonlarning mavqei (monopol xususiyat) ham ta‘sir etadi.

Adabiyotlar royxati:

1. Развитие теоретических вопросов управления инвестиционной привлекательностью промышленных предприятий. Тарелкин А.А. / Российское предпринимательство. 2015. Том 16. — № 10. -<https://bgscience.ru/lib/9195/>
2. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi (01.03.1997) - <https://lex.uz/docs/-111189>
3. Внешнее управление: Пути и пределы правового регулирования — <http://elibrary.ru/item.asp?id=39192419> qidiruv moduli
4. Экономика - Земельный кодекс Республики Узбекистан (с изменениями) http://www.pravo.uz/codex/get_data.php3?topic=7390&sub=0#3
5. Проект странового доклада Республика Узбекистан / Либерализация торговли, ВТО, сельское хозяйство и устойчивое развитие — <http://1aya.ru/paper/art-59025.php>

SPORT TURIZMIN RAWAJLANDIRIW BAĞDARLARI

SPORT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СПОРТИВНОГО ТУРИЗМА

DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF SPORTS TOURISM

Alimov Atabek, Qaraqalpaq mámleketlik universiteti, Ekonomika kafedrası docenti

Baymuratova Sarbinaz, Qaraqalpaq mámleketlik universiteti
Awdarma teoriyası kafedrası izleniwshisi

Annotaciya

Sport – adamlardı birlestiretuğın tarawlardıń biri esaplanadı. Sonlıqtan sport túrlerin rawajlandırıw turizmniń de rawajlanıwına sebep boladı. Maqalada Evropa mámleketlerinen bazıların, sonıń ishinde Adreatika-Ioniya (ADRION) regionı mámleketlerin mısıl retinde keltirildi. Bul mámleketlerdiń tájriybesin Qaraqalpaqstanda qollanıw, Qaraqalpaqstan Respublikasında sport turizmin rawajlandırıw boyınsha usınıslar keltirilgen.

Tayanış sózler: sport, turizm, ADRION, sport turizmi, turizm infrastrukturası, milliy sport, sport túrleri.

Sport – insonlarni birlashtiradigantarmoqlarning biri hisoblanadi. Shu sababli sport turlarini rivojlantirish turizmning ham rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Maqolada Evropa davlatlaridan ba‘zilarini, shundan, Adreatika-Ioniya (ADRION) mintaqasi davlatlari misol tariqasida keltirildi. Bu davlatlarning tajribasini Qoraqalpog‘istonda qo‘llash, Qoraqalpog‘iston Respublikasida sport turizmini rivojlantirish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sport, turizm, ADRION, sport turizmi, turizm infrastrukturası, milliy sport, sport turlari.

Спорт – одна из сетей, объединяющих людей. Поэтому развитие спорта будет стимулировать развитие туризма. В статье в качестве примера приведены некоторые европейские страны, в том числе Адриатико-Ионический (АДРИОН) регион. Внесены предложения по применению опыта этих стран в Каракалпакстане и развитию спортивного туризма в Республике Каракалпакстан.

Ключевые слова: спорт, туризм, ADRION, спортивный туризм, туристическая инфраструктура, национальные виды спорта, спорт.

Sport is one of the networks that unites people. Therefore, the development of sports will stimulate the development of tourism. The article uses some European countries as an example, including the Adriatic-Ionian (ADRION) region. Proposals were made for applying the experience of these countries in Karakalpakstan and developing sports tourism in the Republic of Karakalpakstan.

Key words: sports, tourism, ADRION, sports tourism, tourism infrastructure, national sports, sports.

Sport turizmi turizmniń tez pát penen rawajlanıp atırǵan segmentlerinen biri esaplanadı. [1] Sport turizmi sport hám turizm tarawlarınıń kesilispesindegi turaqlı turizmniń bas maqseti bolǵan ekonomikalıq hám sociallıq xızmetlerdi usınadı. FIFA Jáhán chempionatı, Olimpiada oynları, Aziya oynları sıyaqlı mega sport jarısları sportqa qızıǵıwshılıqtı arttırıw menen birgelikte turizmni

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

rawajlandirivga da oz ulesin qosadi. Bunday jarislardn mamlekette otkeriliwi kelgen iqlasbentlerde sayaxat etiw, doslar arttiriv imkaniyatı payda boladı. Bunnan, tısqarı jıllar boyı esinde qalıwı hám tákirar keliwdi qálewi sózsiz. Sport turizmi jergilikli xalıqtın ekonomicalıq hám sociallıq jaǵdayın bekkemlew menen birgelikte mádeniyat hám bilimdi rawajladıradı. Sonday-aq, basqa xalıqlar menen tanısıwǵa, milliy oýınlardı populyar qılıwda júdá áhmiyetli.

¹ Morfoulaki, M., Myrovali, G., Kotoula, K. M., Karagiorgos, T., & Alexandris, K. (2023). Sport Tourism as Driving Force for Destinations’ Sustainability. Sustainability, 15(3), 2445.

Turizm Turaqlı rawajlanıwdn kún tártibi 2030 hám Turaqlı rawajlanıw maqsetlerinde (SDG), tiykarınan 8,12, 14 maqsetlerinde sport turizmi turizmniń segmenti sıpatında turaqlı rawajlanıwǵa erisiwde járdem beriwı kórsetilgen. Dúnya júzlik turizm shólkemine kóre, Sport turizmi ekonomicalıq tárepten SDG 8 de turaqlı ekonomicalıq rawajlanıw menen birge jańa jumıs orınlarınń ashılıw hám jańa biznes túrleriniń payda bolıwına sebepti boladı. [2]

Sport turizminiń turaqlı rawajlanıwda áhmiyeti SDG 3 te keltirilgen. Bunda sport arqalı xalıqtın den sawlıǵın bekkemlew, turaqlı sport penen shuǵıllanıwǵa motivaciya beriw, ómirde aktiv bolıwǵa umtılıw imkaniyatın jaratadı.

Sonday-aq, sport turizmi arqalı piyada júriwdi propaganda qılıw, hawanıń pataslanıwınıń aldın alıw maqsetinde avtomobillerden kem paydalanıw SDG 15 keltirilgen wazıypalarda belgilengen.

Demek, turaqlı rawajlanıwǵa, xalıqtın salamatlıǵın bekkemlewge, ekologiyalıq mashqalalardı sheshiwge jańa biznes túrlerin payda etiwge, xalıqtın jumıs penen támiynleniwine járdem beriwshi sport turizmin rawajlandırıw boyınsha ilim-izertlew jumısların alıp barıw aktual máselelerden esaplanadı.

1.1.1. Adreatika-Ioniya (ADRION) regionı

Adreatika-Ioniya teńizleri basseyini átirapında 70 millionnan aslam xalıq jasawı, turizm sektori hár jılı kóp sayaxatshılardı ózine tartıwı sebepti ADRION regionın tańladıq. Bul regionnan 1-súwrette keltirilgen Greciya, Italiya, Sloveniya, Albaniya, Serbiya, Xorvatiya hám Montenegrodan 10 destinaciyanı izertlew areası sıpatında belgilep alındı. [3]

2. World Tourism Organization. Sport Tourism and the Sustainable Development Goals (SDGs); UNWTO: Madrid, Spain, 2013

3. Myrovali, G. Available online: <https://prezi.com/i/view/04ZZCWU7/KlaRwAAOLd6J/> (accessed on 27 January 2023)



1-súwret. Adreatika-Ioniya regionı

2.1.1. Afina marafoni. Authentic, Afina, Greciya

Afina Marafonı – Authentic, 1896-jıda birinshi zamanagóy olimpiada ótkerilgen jer bolı, Morofon awılınan baslap Panatinaikon Stadionına shekem eń tanılmalı xalıq aralıq júgiriw jarısı esaplanadı. Házirgi kúnde 100 jıdan aslam dáwir ishinde marafongá ózgerisler kiritilip Afina Morofonı Dúnya júzlik brend dárejesine kóterilgen. [4]

2.1.2. Vassiliki Windsurf klubi, Lefkada, Greciya

Vassiliki Windsurf klubi Xalıq aralıq windsurfing bazarında ataqlı sport brendine iye bolğan Lefkada atawında jaylasqan. Windsurfing gúzetiwsileri ushın qolaylıq jaratıw maqsetinde teńiz kánarında qolaylı miymanxanalar qurılğan bolıp, dúnya júzinen aktiv sport iqlasbentlerin ózine tartatúgın destinaciyalardan biri bolıp tabıladı.

Morfoulaki, M., Myrovali, G., Kotoula, K. M., Karagiorgos, T., & Alexandris, K. (2023). Sport Tourism as Driving Force for Destinations’ Sustainability. Sustainability, 15(3), 2445.

2.1.3. Albaniya suw sportları, Albaniya

Albaniya suw sportı aktiv turistler hám professional sportshılar ushın Albaniya boylap ashıq suw hawızlerinde hám teńizde suw sportına qatnasıw hám jarıslardı kóriw múmkin. Bunda jıl boyı turistler hám sportshılar sport klublarğa biypul ağza bolıwı múmkin hám sport inventarlarınan paydalanıwda shegirmeler aladı. [4]

Joqarıda ADRION regionınıń ayırım destinaciyları haqqında maǵlıwmat berdik. Bunda sport tuzimi arqalı kelgen turistler, sportshılar kelgen destinaciylar tariyxı, qalaları hám jergilikli xalıqlar menen tanısıw imkaniyatı payda boladı. Sonday-aq, turistler ushın xızmet kórsetiwshi turopoperatorlar, miymanxanalar, sawda orınları, restoran xızmetleri, transport hám basqa tarawlar ushın úlken dáramat deregi bolıp tabıladı.

Bul maqalada ADRION regionındaǵı sport turizmi rawajlanıw tariyxı, statistikalıq kórsetkishleri, mámleket hám xalıq aralıq shólkemler tárepinen berilip atırılğan imkaniyatlar analiz qılınıp, sonday-aq, turaqlı turizmdi rawajlandırıw strategiyası úyrenilip Qaraqalpaqstanda sport turizmin rawajlandırıw strategiyasın islep shıǵıwda paydalanıw boyınsha usınıslar islep shıǵıw maqset qılıp alındı.

Joqarıda Greciya tariyxında marafon jarıslarınıń Olimpiada dárejesine kóterilgenligin hám házirgi kúnde sport penen birge turizmdi rawajlandırıwǵa da imkaniyatlar jaratılǵanlıǵın kóriwimiz múmkin. Sol sebepli ADRION regionı tájriybesi mısasında Qaraqalpaqstan sport turizmin rawajlandırıw strategiyasın islep shıǵıwda tómendegi usınıslardı ámelge asırıw zárúr dep esaplaymız:

1) Qaraqalpaq milliy oyunlarınan milliy gúres, qasharman, iytler oyını, qoshqar urısı, ılaq oyını, at shabar, lánki, qazan sıyaqlı oyınlardı milliy dárejede mekteplerde, joqarı oqıw orınlarında, máhálle hám awıllarda ótkeriw;

2) Hár jılı ótkeriletúǵın milliy bayramlarda, festivallarda, milliy toylarda, seyillerde milliy sport túrlerin ótkeriletúǵın máresimlerdiń scenariylarına kiritiw;

3) Milliy sport túrleri haqqında sociallıq tarmaqlarda professional video hám fotolardı jaylastırıw;

4) Milliy sport túrleriniń elektron bazasın jaratıw hám olardı saytlarda hár qıylı tillerde keń propaganda qılıw;

5) SPORT-TURIZM-MÁDENIYAT-MEDICINA tarawların turizmdi, sonıń ishinde sport turizmin rawajlandırıw al’yansın dúziw;

Joqarıdaǵı usınıslardan tisqari, hár jılı elimizde student jaslar, mektep jasları ortasında jayaw júriw, velomarafonlar, júgiriw hám basqa sport túrlerinen jarıslar ótkeriledi. Bunday jarıslardı ótkeriw grafigi xalqımızǵa jıl basında saytlarda daǵazalanıwı arqalı oǵan xalqımız arasınan da adamlar qatnasıwdı hám onı kóriwdi jobalastırıw imkaniyatı payda boladı. Sebebi, elimizde ótkerilip atırılğan bunday jarıslar, marafonlardı tek ǵana 1-2 kún aldın yamasa ótkennen keyin sociallıq tarmaqlardan bilip qalamız.

Awıllarda ótkeriletúǵın úlken milliy toylardı turistler ushın da daǵazalaw turopoperatorlardıń turistlik marshrutlarına kiritiw áhmiyetli máselelerden biri esaplanadı. Sebebi bunday úyleniw, súnnet toylardı shólkemlestiriwde toy iyeleri bir jıl aldın jobalastıradı hám awıl aqsqaqalları menen oylasadı. Sonday-aq bunday toylarda palwan gúresi, ılaq oyın, at shabar, iyt oyını, qoshqa usırısı,

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

qoraz urısı sıyaqlı milliy oınlar shólkemlestiriledi. Sol sebepli, bunday toylardıń turistler ushın da qızıqlı boladı. Turistlerdıń awıllarımız benen tanısıwı menen birge awıl xalqınıń da bilim dárejesi, oy-órisi, basqa xalıqlar menen itegraciyasınıń asıwına sebepshi boladı.

Paydalanılğan ádebiyatlar

1. Morfoulaki, M., Myrovali, G., Kotoula, K. M., Karagiorgos, T., & Alexandris, K. (2023). Sport Tourism as Driving Force for Destinations' Sustainability. Sustainability, 15(3), 2445.
2. World Tourism Organization. Sport Tourism and the Sustainable Development Goals (SDGs); UNWTO: Madrid, Spain, 2013
3. Myrovali, G. Available online: <https://prezi.com/i/view/04ZZCWU7KlaRwAAOLd6J/> (accessed on 27 January 2023)
4. Morfoulaki, M., Myrovali, G., Kotoula, K. M., Karagiorgos, T., & Alexandris, K. (2023). Sport Tourism as Driving Force for Destinations' Sustainability. Sustainability, 15(3), 2445.

UDK: 638.154.21

ASALARICHILIKDA ASALARI KO‘PAYTIRISHNI YO‘LGA QO‘YISH METODOLOGYASI

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ПЧЕЛОВОДСТВА В ПЧЕЛОВОДСТВЕ

METHODOLOGY OF PROMOTING BEE BREEDING IN BEEKEEPING

Berdimuratov Quanishbay Genjebayevich,

Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası katta o‘qıtuvchisi

Utepbergenov Asamatdiyn Abdraxmanovich,

Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası stajor - o‘qıtuvchisi

Annotatsiya

Maqolada Qoraqalpog‘iston iqlimi va sharoitidan kelib chiqib asalarichilikni shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Sun‘iy usulda ona asalari yetishtirishda tarbiyalovchi asalari oilalarini roli beqiyos ekanligi, oilalarni qo‘shimcha oziqlantirib ularni alohidalash orqali tashkil etish, oilalarda lichinkalarni qabul qilinishi ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: asalarichilik, lichinka, sifatli ona, asalli ramka, yosh asalari, sifatli asal, perga, yetim oila, kuchli asalari oilasi.

В статье рассматриваются вопросы становления пчеловодства с учетом климата и условий Каракалпакстана. Сообщается, что роль пчелиных семей в искусственном разведении пчелиных маток бесподобна, что семьи организуются путем их раздельного кормления, что личинки принимаются в семьи.

Ключевые слова: пчеловодство, личинка, качественная мать, медовая рамка, молодые пчелы, качественный мед, соты, сиротская семья, сильная пчелиная семья.

The article considers the issues of beekeeping formation based on the climate and conditions of Karakalpakstan. It is reported that the role of nurse bee families in the artificial breeding of queen bees is incomparable, that families are organized by feeding them separately, and that larvae are accepted in families.

Key words: beekeeping, larva, quality mother, honey frame, young bees, quality honey, comb, orphan family, strong bee family.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

Asalarichilik qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i hisoblanadi. Asalarilar inson sog‘ligi uchun foydali bo‘lgan asal hamda halq xo‘jaligida keng ishlatiladigan asalari suti, asalari yelimi, aslari zahari kabi mahsulotlar yetishtirib beradi. Shu bois halqimiz asalarichilikni yetti hazinaning biri deb ataydi. Shuningdek, asalari qishloq xo‘jalik ekinlarini changlatishda, hosildorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Asalarichilik mamlakatimizda hukumat darajasida qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda, sohaga oid qaror va farmonlar chiqmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi “Asalarichilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 239-sonli qarori [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori [2] shular jumlasidandir. Qarorlarga ko‘ra sohada shug‘ullanuvchi tadbirkorlar va ilmiy izlanuvchilarga yaratilayotgan qator imkoniyatlar diqqatga sazovor.

Sun‘iy usulda ona asalari yetishtirishda ixtisoslashtirilgan xo‘jaliklarda, tarbiyalovchi asalari oilalarini tashkil etishning ikki xil maqsadida, ularning onasini olib qo‘yiladi va ikkinchisi esa, ona asalari olmasdan turib, tarbiyalovchi oilalar tashkil etiladi. Ona asalari olmasdan turib, tarbiyalovchi oilalarni tashkil etishda yotiqarixonalarda ona asalari uya chekkasida, ganiman panjarali to‘sqich taxta ortiga olib qo‘yiladi. Ona asalari yetishtirishda tarbiyalovchi oilalarni tashkil etishning maqbul usuli – bu oiladan ona asalari olib, oilani yetim qildirishdir. Bu usulda ona asalari bor tarbiyalovchi oilalarga nisbatan 3-4 barovar ko‘p ona asalari yetishtirilishi isbotlangan. Shuning uchun ham Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida tarbiyalovchi asalari oilalarini yetim qildirish usulida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordik. Qoraqalpog‘iston Respublikasining ko‘pchilik asalarichilari sun‘iy usulda ona asalari yetishtirishda mum kosachalarida asalari lichinkalarini o‘tkazish maqsadida ko‘pincha asal va asalari sutidan foydalanadilar.

Shularni xisobga olib, hududdagi asalarichilik xo‘jaligida mahalliy populyatsiyadagi asalari oilalaridan, ularning genofondini sof holda saqlab qolish maqsadida, sun‘iy usulda ona asalari yetishtirishda, ikki xil usullardan, tadqiqot ishlarimizda foydalandik. Buning uchun onalik oilalardan olinadigan bir kunlik lichinkalar yoshini aniqlash maqsadida, ganiman panjasidan foydalandik. Panjara ichida toza asalari romi solinib, unga ona asalari qo‘yib yuborildi va ramkaga lichinka berilgan vaqt (soat, kun) yozib qo‘yildi. Ana shu usulda bir kunlik qo‘yilgan asalari tuxumining vaqti, xatosiz aniqlandi. Sun‘iy usulda ona asalari yetishtirishda tajriba o‘tkazish davrida, asalari lichinkalarining bir kunlik yoshi aniqlanib olindi. Buning uchun bir kunlik yoshdagi lichinkalar tanlab olindi va ular birinchi guruxda, oddiy usulda, asalari suti ozuqasiga payvand qilindi, ikkinchi guruxda esa lichinkalarni ikki marotaba olib o‘tkazish yo‘li bilan, payvandlash usullari tajribalar asosida sinab ko‘rildi. Birinchi guruhda, ularni tarbiyalovchi asalari oilalarining qo‘shimcha ravishda oziqlantirish maqsadida, ularning ozuqasi tarkibida 50 %li birga bir nisbatdagi shakar sharbatining 10 litriga 1 litr maysali bug‘doy suvidan va II tajriba guruhida esa qand jo‘xori suvidan qo‘shib berildi. Xar xil usullarda ona asalari yetishtirishda tarbiyalovchi oilalarda lichinkalarni qabul qilinishi quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Har xil usullarda ona asalari yetishtirishda lichinkalarning qabul qilinishi

Payvandlash usullari	Lichinka berildi, dona	Lichinka qabul qilindi, dona	Qabul qilindi, %	Ona asalari yetishib chiqdi, dona	% hisobida
I-tajriba guruhidagi asalari suti	115	89	77,4	81	70,4
II-tajriba guruhidagi marotaba lichinkalarni olib o‘tkazish	100	94	94,0	92	92,0

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

1- jadval ma'lumotlarini ko'rsatishicha, asalari sutiga payvand qilingan I-tajriba guruhida lichinkalarni qabul qilish darajasi, lichinkalarni payvand qilishda ona asalarini yetishib chiqishi, II-tajriba guruhida lichinkalarni ikki marotaba olib o'tkazishga nisbatan sezilarli farq qildi. II-tajriba guruhida tarbiyalashga berilgan 100 ta lichinkalardan 92,0 donasidan sifatli ona asalari yetishib chiqdi. Buko'rsatkich 2-tajriba guruhida ikki marotaba olib o'tkazishda 92,0 % ni va oddiy asalari sutidagi I-tajriba guruhida 115 ta lichinkalar payvand qilinganda, ularning 81 tasidan ona asalari yetishib chiqqan va bu ko'rsatkich esa 70,4% na tashkil etdi. Bu esa II-tajriba guruhida lichinkalarni ikki marotaba olib o'tkazilganda, asalari sutiga payvand qilinganlarga I- tajriba guruhiga nisbatan 121,4% ga ko'pdir. ($R > 0,999$).

Oddiy asalari suti ozuqasiga lichinkalarni olib o'tkazilganda, undagi mumkosachalariga har xil tarkibdagi asalari suti tomizilgan bo'ladi. Asalari lichinkalari ana shunday noqulay va begona tarkibdagi asalari suti ozuqasiga payvand qilinganida, o'zining tabiiy ozuqasiga nisbatan, lichinka organizmini rivojlanishiga ancha salbiy ta'sir etuvchi xususiyatga ega bo'lgan va noqulaymuhitga tushgan. Bu esa ona asalari yetishtirishdagi onadonlar kurishida va ona asalarining sifat xususiyatlariga ma'lum darajada salbiy ta'sir etdi.

Oldin payvand qilingan va qabul qilingan lichinkalarini mum kosachalaridan olib tashladik. Ana shu kosachalardashu oilaning asalari suti ozuqasi ko'p bo'lib, qalqib turgan bir paytda va mum kosachalaridagi toza asalari sutiga yangi, bir kunlik lichinkalarni olib o'tkazdik. Bunday usulda asalari lichinkalari toza asalari sutiga qalqib yuradi va o'zini yaxshi tabiiy muxitga tushganligini sezib, yaxshi rivojlandi. Bunday usulda yetishtirilgan ona asalarilarning eksterer va interer ko'rsatkichlari boshqa xil usullarda yetishtirilgan ona asalarilarga nisbatan ancha yaxshi bo'ldi. Ona asalarini vazni xam ancha og'irlashdi.

Shu maqsadda tarbiyalovchi asalari oilalarida xar xil oziqlantirish usullarida yetishtirilgan ona asalarilarning vazniga tasirini ham o'rganib chiqdik. Tarbiyalovchi asalari oilalarida asalari lichinkalarini payvandlashning ona asalari vazniga tasiri to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tarbiyalovchi asalari oilalarida har xil usullarda lichinkalarni payvandlashning ona asalari vazniga ta'siri, mg

Payvandlash usuli	n	lim	$M \pm m$	$C_v, \%$
Oddiy asalari sutiga	50	178-199	$188,5 \pm 1,06$	3,34
Ikki marotaba lichinkalarni olib o'tkazish	30	186-212	$199,0 \pm 1,07$	3,39

2-jadval, ma'lumotlaridan ko'riniyapdiki, oddiy asalari sutiga payvand qilingan I-tajriba guruhida lichinkalardan yetishib chiqqan ona asalarilarning vazni $188,5 \pm 1,06$ mg.ni tashkil etgan bo'lsa, II-tajriba guruhida ikki marotaba olib o'tkazilgan lichinkalardan yetishib chiqqan ona asalarilarda esa bu ko'rsatkich $199,0 \pm 1,07$ mg.ni tashkil etdi. Bu esa oddiy asalari sutiga payvand qilingan I-tajriba guruhi lichinkalardan yetishib chiqqan ona asalarilar vaznidan 10,5 mg.ga yoki 103,5% ga ko'pdir. ($R > 0,999$). O'zgaruvchanlik koeffitsienti belgisi $C_v, \%$ -3,39 ni tashkil etmoqda va bu raqam esa 0,5% ga birmuncha ko'pdir. ($R > 0,999$).

Olingan bu natijalarimiz Ye.Ye.Butovning, O.S.To'raevning xulosalariga ancha mos keladi [1, 2]. Mualliflar erta bahordan boshlab tarbiyalovchi asalari oilalarini tanlash va ularni shakllantirishda alohida e'tibor berishni tashkil qiladilar, chunki tarbiyalovchi asalari oilalari ona asalarilarni shakllanishda katta ijobiy rol o'ynashini ko'rsatib o'tadilar.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, ishchi asalarilar uyani tozalash, qo'riqlash, uy havosini mo'tadillashtirish, mumkatak incha qurish, qurtchalarni boqish, sharbat va gulchang to'plash, sharbatni qayta ishlash, ya'ni asalga aylantirish, haroratni ko'tarish-tushirish, havo namligini ta'minlash, uyaga suv va propolis keltirish kabi ishlarni bajarishga ixtisoslashgan. Uydagi hamma ishchi arilarni ikki tabaqaga bo'lish mumkin. Birmuncha yoshroq (14- 20 kunlik) arilar uya ichida

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

ish bajaruvchi arilar tabaqasini tashkil qilsa, 14-20 kunlikdan oshgan arilar esa dalaga uchuvchi arilar tabaqasini tashkil qiladi. Uya ichida ish bajaruvchi arilar ob-havo yaxshi kunlari kunning o‘rtalarida o‘zlarini orqa ichaklarini axlatdan bo‘shatish va o‘z uyasi atrofi bilan tanishish uchun tashqariga uchib chiqadilar. Ikkinchi tabaqani tashkil qiluvchi ishchi asalarilar ham ob-havo yaxshi kunlari daladan sharbat va gulchang tashish uchun tashqariga chiqadilar. Bahor va yoz faslida yetishtirilgan ishchi asalarilar o‘rta hisobda 35-45 kun, kuzda yetishtirilganlari esa kelasi bahor davriga qadar ya’ni yosh arilar chiqqungacha 4-6 oy yashashlari mumkin.

Ishchi asalari tanasining uzunligi 12-14 mm, o‘rtacha og‘irligi 0,1 gr, ya’ni 1 kg da 10000 ta ishchi asalari bor. Ularning miyasi ona arinikiga nisbatan yaxshi rivojlangan. Ishchi asalari oilada turli-tuman ishlarni bajarganligi sababli ona va erkak ari xo‘jalik va irsiy belgilariniig shakllanishida katta rol o‘ynaydi.

Sun’iy usulda ona asalari yetishtirishda tarbiyalovchi asalari oilalarini roli beqiyos ekanligini hisobga olib, bunday oilalarni qo‘shimcha oziqlantirib ularni alohida qoldirgan xolda tashkil etish lozim, chunki bunday oilalarda lichinkalarni qabul qilinishi yetim qilinmaganlarga nisbatan 20-25% ga ko‘p va yetishib chiqqan ona asalarilarning vazni ham 10-12 mg.ga ko‘p bo‘lgan.

Adabiyotlar royxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.10.2017 yildagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3327-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.06.2023 yildagi “Asalarichilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 239-son qarori.
3. To‘raev O.S. Asalari tuxumidan ona asalari yetishtirish istiqbollari. "Zooveterinariya" jurnali. 2012, №1, 46-47 betlar.
4. To‘raev O.S., O‘rmanov Sh.Sh. "Asalarichilikda ko‘ch onadonlaridan ona asalari yetishtirishda foydalanish. Respublikada Chorvachilikni rivojlantirish va soxada ozuqa bazasini mustaxkamlashning ustuvor vazifalari" mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2011, 20-22 b.
5. O‘rmonov Sh.Sh., To‘raev O.S. "Toshkent viloyati sharoitida sun’iy usulda ona asalari yetishtirish istiqbolari" Respublikada Chorvachilikni rivojlantirish va sohada ozuqa bazasini mustahkamlashning ustuvor vazifalari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2011, 22-24 b.
6. Yarankin B.V. Qulay hujayralarni ko‘paytirish. jurnal. Asalarichilik, 2014 yil, 1-son, 48-bet
7. www.ziynet.uz

AHOLI DAROMADLARINI OPTIMAL SOLIQQA TORTISH VA SOLIQ STAVKALARI TA’SIRINI BAHOLASH

ОПТИМАЛЬНОЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ И ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ НАЛОГОВЫХ СТАВОК

OPTIMAL TAXATION OF PERSONAL INCOME AND ASSESSMENT OF THE IMPACT OF TAX RATES

Калимбетов Ж.К., Калимбетов Х.К. ҚҚДУ
Иқтисодиёт факультети «Молия» кафедраси доценти

Разбаев С.Н. ҚҚДУ Иқтисодиёт факультети «Иқтисодиёт» кафедраси стажёр
укитувчиси

Аннотация

Ushbu maqolada aholi daromadlarini optimal soliqqa tortish va soliq stavkalari ta’sirini baholash bo’yicha bayon etilgan.

Калит сўзлар: daromad, fiskal, progressiv daromad, modellashtirish, optimal

В данной статье обсуждается оптимальное налогообложение доходов населения и оценка влияния налоговых ставок.

Ключевые слова: доход, фискальный, прогрессивный доход, моделирование, оптимальный

This article discusses the optimal taxation of personal income and assessing the impact of tax rates.

Key words: income, fiscal, progressive income, modeling, optimal

Jahondagi rivojlangan va aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda jismoniy shaxslarning daromad solig’i nafaqat byudjet daromadlarini shakllantirishdagi muhim o‘rin tutadi, shu bilan birga, aholi daromadlarini tartibga solishda samarali fiskal instrumentlardan hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda progressiv daromad solig’i shkalasi qo‘llaniladi. Jumladan, «Daromadga soliq solishning progressiv modelini joriy etish daromad tengsizligi va ijtimoiy tabaqalanishni kamaytirish hamda byudjetga soliqlarning to‘liq yig‘ilishini ta’minlash bo’yicha qator muammolarni hal qilishi mumkin» [1] bo‘lib, bu o‘z navbatida progressiv daromad solig’i shkalasini takomillashtirishni talab etmoqda.

Jahonda aholi daromadlari tarkibiga jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlar stavkalarining ta’sirini modellashtirish masalalari tadqiqiga yo‘naltirilgan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikni tartibga solish, jismoniy shaxslarni progressiv shkalada soliqqa tortish uslublarini takomillashtirish, daromad solig’i stavkasining turmush darajasiga ta’sirini baholash, progressiv daromad solig’i shkalasini tanlashni modellashtirish, daromadlar darajasi bo’yicha aholi guruhi qatlamlarini progressiv shkalada soliqqa tortish, soliq stavkalarining ijtimoiy tenglikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishga ta’siri samarasini oshirish, progressiv daromad solig’i optimal shkalasini tanlovini modellashtirish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Soliq asosiy daromad manbai bo‘lib, u davlatning suveren hokimiyati asosida undiriladi. Shu nuqtai nazardan, soliqqa tortish davlatlar iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun foydalanadigan asosiy siyosiy vositalardan biridir. Soliqqa tortish fiskal siyosat vositasi sifatida davlatlarga makroiqtisodiy nuqtai nazardan o‘z maqsadlariga erishishda samarali

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”

amaliyotlarni amalga oshirish imkonini beradi. Yuqorida qayd etilgan makroiqtisodiy maqsadlarga erishishda soliq siyosatining roli shuni ko‘rsatadiki, soliqqa tortish davlat qo‘lida iqtisodiy siyosatning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy davlat yondashuviga muvofiq soliqqa tortish transfer mexanizmi sifatida maydonga chiqadi. Har bir shaxs uchun tenglik/adolatni ta‘minlash davlatlarning o‘z fuqarolari oldidagi burchlarining boshida bo‘lishi qabul qilinadi.

Mamlakatdagi barcha daromad guruhlariga mansub fuqarolar tenglik va adolat tamoyili doirasida davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun, boshqa tomondan, davlat faqat yuqori daromad guruhidan yig‘iladigan resursni o‘tkazishi mumkin. davlat xizmatlari sifatida past daromadli guruhlariga soliq solish. Shu doirada soliqqa tortish daromad guruhlariga o‘rtasidagi transfer mexanizmining eng muhim elementi hisoblanadi.

Samaradorlik va tenglik maqsadiga erishishda davlatning eng muhim siyosat quroli bo‘lgan soliqlarni qanday loyihalash to‘g‘risida optimal soliqqa oid adabiyotlarda har tomonlama muhokama qilingan. Optimal soliqqa tortish - bu jamiyatning tenglik va iqtisodiy samaradorlik kabi raqobatbardosh maqsadlari o‘rtasidagi imtiyozlarni aks ettiruvchi va ijtimoiy boylikni maksimal darajaga ko‘tarish boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan soliqqa tortish.

Davlat shaxsning ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlari to‘g‘risida assimetrik ma‘lumotlarga ega bo‘lgan bugungi sharoitda daromadlarni qayta taqsimlash maqsadini buzuvchi soliqlardan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin. Davlat faqat iqtisodiy samaradorlikka yo‘l qo‘yib, buzib ko‘rsatuvchi soliqlardan foydalangan holda daromad adolatini ta‘minlashi mumkin. Shu sababli, optimal soliqqa tortishda asosiy e‘tibor soliq sub‘ekti, soliq stavkasi va soliq bazasiga qaratiladi, bu esa soliq tushumlarining ma‘lum miqdorini ta‘minlashda siqilishni minimallashtiradi [1].

AQSh va Yevropa mamlakatlarida yuqori va past daromadlarga soliq stavkalarini qo‘llanishi keng doirada va uzoq vaqt davomida muhokama qilingan bo‘lsada, biroq, daromadni taqsimlashda qanday soliq stavkasi muhim instrument bo‘lishiga qaramasdan iqtisodiy nazariya deyarli mavjud emas [2].

Umuman olganda, qayta taqsimlovchi progressiv soliqqa tortish odatda jismoniy shaxsning daromadi (aniqrog‘i, uning taxminiy daromadi miqdoriga) bilan bog‘liq. Uning aniq intellekt koeffitsienti (I.Q.), ilmiy darajasi, yashash joyi, yoshi yoki ijtimoiy mavqei orqali jismoniy shaxsning daromad olish potentsiali to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lish mumkin, ammo tabiiy ravishda taxmin qilish mumkin, uning daromad potentsiali eng ishonchli ko‘rsatkich bo‘lib uning daromadi hisoblanadi. Mirrleesning ta‘kidlashicha, insonlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini iqtisodiy imkoniyatlarining dalili sifatida ishlatish natijasida daromadning ijtimoiy marjinal foydaligining to‘liq tengligi ma‘qul bo‘lmay qoladi, chunki bunday natijaga olib keladigan soliq tizimi barcha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noqulaylarni bartaraf etadi [3]. Shuning uchun quyidagi savollar yuzaga keladi: optimal daromad solig‘ini qaysi printsiplar tartibga solishi kerak?; bunday soliq stavkasi qanday belgilanadi? va soliq stavkasi o‘rnatilgandan keyin daromad tengsizlikning darajasi qanday o‘zgaradi?.


Zamonaviy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida bu yondashuvlar juda keng qo‘llanilgan, ammo bu yondashuvlarni gibril (birlashtirilgan) sifatida ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar ham mavjud.

Bu bizga eng maqbul yondashuvdir, chunki u aholi daromadlari kategoriyasining mohiyatini o‘rganishga kompleks yondashish imkonini beradi.

Binobarin, iqtisodiyot fanida mahalliy iqtisodchi olimlar aholi daromadlari kategoriyasini aniqlashning ikkita yondashuvga asoslanadi va aholi daromadlari kategoriyasi mohiyatini aniqlashda har tomonlama tahlil qilish imkonini beruvchi makro va mikro yondashuvlarni birlashtirgan.

Aholining daromadlari toifasini aniqlash bo‘yicha qarashlarni makro va mikro yondashuvlarga bo‘lish bilan bir vaqtda umumiy nazariy yondashuvni (iqtisodiy nazariya doirasida ishlab chiqilgan) va amaliy yondashuvni (amaliy iqtisodiy va sotsiologiya fanlari tizimida qo‘llaniladi) ajratib ko‘rsatish mumkin [4] (1-rasm).

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI”



1-rasm. Aholi daromadlari kategoriyasini aniqlashga yondashuvlar [2]

Aholining daromadlarining amaldagi ta'riflarida ularning shakllanishi shart-sharoiti va omillarini aniqroq ko'rsatish hamda bu shart-sharoit va omillarni tizimlashtirish imkonini beradigan jihatlarni o'z ichiga olishi zarurligini alohida ta'kidlash lozim.

Shu bilan birga, umumiy nazariy yondashuvning ahamiyati shundan iboratki, bunda aholining nominal va real daromadlaridagi farqlarni hamda ularning dinamikasini nazariy tahlil qilish imkonini beradi. Aholi daromadlari kategoriyasini aniqlash bo'yicha yuqoridagi yondashuvlar iqtisodchi olimlar McConnell, Bru S.L., Samuelson, Nordhaus, Haye, Simon, Hicks va Fisherlarning [3] tadqiqotlarida o'z aksini topgan (1-jadval).

1-jadval

Aholi daromadlari mohiyatini aniqlashga xorijiy iqtisodchilarning yondashuvlari [6]

Mualliflar	Aholi daromadlarini aniqlashning mohiyati
McConnell, Bru S.L.	Uy xo'jaligini daromadini, uy xo'jaligini iqtisodiyotni resurslar bilan ta'minlaydigan va ular uchun olingan pulni insonning moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatadigan iqtisodiy birlik sifatida ko'rib chiqish.
Samuelson Nordhaus	Daromad-jismoniy shaxs yoki mamlakat tomonidan muayyan vaqt mobaynida olingan ish haqi, foiz to'lovlari, dividendlar va boshqa daromadlar oqimi.
Hayes, Simon	Shaxsiy daromad iste'molda amalga oshirilgan huquqlarning bozor qiymatining algebraik yig'indisi va ko'rib chiqilayotgan davrning boshi va oxirigacha to'plangan mulkiy huquqlar qiymatining o'zgarishi sifatida belgilanishi mumkin.
Hicks	1. Indivdning daromadi uning tushumlariga (mehnat daromadlari yoki mol-mulk uchun renta to'lovlari) teng deb hisoblanishi mumkin. 2.Daromad-hafta davomida iste'molga sarflanishi mumkin bo'lgan maksimal miqdor va haftaning oxirida boshida bo'lgani kabi bir xil farovonlikni saqlab qolish. 3.Daromad-mavjud taxminlarga muvofiq kelajakdagi tushumlarning kapital qiymati bir xil bo'lib qolishi sharti bilan, bir vaqt davomida sarflanishi mumkin bo'lgan mablag'larning maksimal miqdori.
Fisher	Daromad tushunchasi yakuniy iste'molni anglatadi.

Biroq, ayrim iqtisodchi olimlar, jumladan, Atkinson, Stiglitz va Ehrenberg, Smithlar [4] aholi daromadlarini nazariy jihatdan odatda to'lov qobiliyati tahlil qilinadi, empirik tadqiqotlarda esa qoida tariqasida, o'lgangan pul daromadlari miqdori hisobga olingan. Aksariyat, iqtisodchi olimlar tomonidan aholi daromadlari kontseptsiyasiga asoslangan bo'lib, unga ko'ra, daromad nafaqat pul tushumlarini, balki pul bo'lmagan tarkibiy qismini, ya'ni o'z tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlari, oila tomonidan to'plangan mulkning (uy-joy, uzoq muddatli iste'molga

mo'jallangan predmetlar, garaj va boshqa mol-mulkar) joriy iste'molini ham o'z ichiga oladi [4].

Fikrimizcha, aholi daromadlarini tartibga solish mexanizmi iqtisodiy tartibga solish umumiy mexanizmning bir qismidir degan xulosaga kelishimiz mumkin. Mirrlesning ta'kidlashicha, insonlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini iqtisodiy imkoniyatlarining dalili sifatida ishlatish natijasida daromadning ijtimoiy marjinal foydaligining to'liq tengligi ma'qul bo'lmay qoladi, chunki bunday natijaga olib keladigan soliq tizimi barcha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noqulayliklarni bartaraf etadi [5]. Shuning uchun quyidagi savollar yuzaga keladi: optimal daromad solig'ini qaysi printsiplar tartibga solishi kerak?; bunday soliq stavkasi qanday belgilanadi? va soliq stavkasi o'rnatilgandan keyin daromad tengsizlikning darajasi qanday o'zgaradi? Jismoniy shaxslar daromad solig'ining mehnat taklifiga ta'sir ko'rsatishi ko'p vektorli bo'lib, kam miqdordagi ish haqi to'lanadigan sharoitda daromadlarga mutanosib stavkada soliq solish mehnat taklifining pasayishiga yoki yashirin iqtisodiyot ulushini ortishi kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Boshqa tomonidan esa daromadni proportsional soliqqa tortish yuqori ish haqiga ega bo'lganlar uchun mehnat taklifining oshishiga olib kelishi mumkin. Binobarin, proportsional daromad solig'i o'rtacha ish haqi darajasi yuqori bo'lgan rivojlangan iqtisodiyotda mehnat taklifiga ijobiy va o'rtacha va kam ish haqi ulushi yuqori bo'lgan iqtisodiyotga salbiy ta'sir ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan, mehnat taklifiga ijobiy ta'sir ko'rsatish pozitsiyasidan daromadni soliqqa tortishda qanday soliq stavkasini o'rnatish maqsadi uchun iqtisodiy va matematik modelni qurish zarur hisoblanadi. Dunyodagi davlatlarning jismoniy shaxslarni soliqqa tortish amaliyotini tahlil natijalari asosidagi xulosalardan kelib chiqib, daromadni yagona shkalada soliqqa tortish mehnat bozori rivojlanishiga va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [6]. Bundan tashqari, soliqlar faqat fiskal vosita sifatida qaralib, uning asosiy maqsadi barcha darajadagi byudjetlarni to'ldirishdan iborat bo'lib qolmoqda va turli xil soliqlarning qo'llanilishi natijasida kelib chiqadigan ta'sirlar yuzaki o'rganilgan va e'tiborga olinmagan.

Z_A chizig'i soliq solingungacha bo'lgan daromadni (byudjet cheklovi) xarakterlaydi va u mehnatdan olingan daromad hajmini bildiradi. Z_F chizig'i bir martalik soliq o'rnatilganda byudjet

cheklovini paralel o‘zgarishini ko‘rsatadi. Shuning uchun, Z_A va Z_F chiziqlarini egilish burchaklari bir xil (bir martalik soliq buzuvchi hisoblanmaydi). Z_{E2} chizig‘i proportsional soliq joriy qilingandan keyingi byudjet cheklovini ifodalaydi. Uning egilishi, Z_A chizig‘i burchagidan kichik bo‘lib, bu mehnat miqdorining ko‘payishi bilan soliqdan keyin qolgan daromad miqdorining pasayishini anglatadi.

Shu bilan birga, bu erda egilish burchagining pasayishi progressiv soliq kiritilgandan keyin byudjet cheklovi kabi muhim emas (Z_{E1} chizig‘i). Z_{E1} chizig‘i burchagini egilishi minimal, mehnat miqdori ortishi bilan progressiv soliq to‘lovchisi sof daromadi tobora sekin o‘sib borishidan dalolat beradi [7].

